



O'TKIR
HOSHIMOV

Sirli yulduz

QISSALAR

...muallim bulutlar orasiga, tumanlar orasiga singib borar edi...

O'tkir
HOSHIMOV

Sirli yulduz

O'tkir Hoshimov

O‘TKIR HOSHIMOV

SIRLI YULDUZ

Qissalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2019

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov asarlari adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan. Adibdan meros qolgan asarlar bugungi kunda ham qayta-qayta nashr etilmoqda. Buning sababi, yozuvchining har bir asarida tasvirlangan voqealarning hayotiyliigi, yuragimizga yaqinligida.

Ushbu kitobdan adibning „Sirli yulduz“, „Bahor qaytmaydi“ qis-salari o‘rin olgan.

SIRLI YULDUZ

Bu asarda o'tgan asrning saksoninchi yillarida ro'y bergan voqealar tasvirlangan. Ular bugungi avlodga bir qadar erish tuyulishi mumkin. Ammo o'sha zamon uchun bular oddiy, kundalik turmush tarzi edi. Olisdagi markaz zug'umi ostida kecha-kunduz mehnat qilayotgan o'zbek dehqonining kosasi oqarmas, farzandlarining ilm olishi ham o'lda-jo'lda edi.

Shunga qaramay, yosh avlodning ilm olishi uchun jon fido qilishga tayyor ustozlar, bilimga chanqoq yoshlar oz emasdi.

Eng muhimi – asarda o'smir yigitcha bilan qizaloqning bahor shamolidek pokiza, shudring tomchisidek shaffof, olis yulduz kabi ilk sevgisi tasvirlangan.

Muallif

Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti, ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti. Derazalar bug'lanib, xiralashib qolgan, tashqari ko'rinmaydi. Faqat hovlidagi simyog'och uchiga ilingan qalpoqda chiroqning aksi olmadek qizarib turibdi. Lampochkaning o'zi emas, xira dog' ko'rinadi.

Barak ichi yorug'. Uzun shiftning to'rt joyida lampochka bor. Ikki qavat qator-qator so'rilar, so'rilarida har kim o'z uyidan olib kelgan ko'rpa-to'shaklar. Barak o'rtasidan qop tutib, ikkiga bo'lingan. Bir tomonidan o'g'il bolalar yotadi, bir tomonda qizlar. O'rtada uzun yog'och stol. Stolning ikki tomoniga harraklar qo'yilgan. Bolalar shu stolda ovqatlani-shadi. Bir tomonda qizlar tizilib o'tiradi, bir tomonda o'g'il bolalar. Stol yonida Omonulla Rustamovning yig'ma karavoti. U – o'qituvchi, astronomiya o'qituvchisi, geografiya-dan ham dars beradi. Paxta terimiga hasharga chiqqan to'qqizinchi sinf o'quvchilariga Omonulla Rustamov rahbar bo'lib kelgan. Bolalar uning otini ham, familiyasini ham aytishmaydi. „Muallim“ deb chaqirishadi.

Muallim stol yonidagi harrakda oyog'ini chalishtirib o'tiribdi. Egnida vodolazka, charm kurtka. Domla Hamroyev uni „shaharlik bodi“ deydi. („Bodi“ bo'lgani uchun paxtagayam charm kurtka kiyib chiqqan). Boshyalang. (Yana o'sha domla Hamroyevning aytishicha, „Jingalak sochini ko'rsatish uchun“ boshyalang yuradi, bo'lmasa shlapa kiymasmidi?) „Bodi“ bo'lsayam bolalar uni yaxshi ko'rishadi. Paxtaga Omonulla Rustamov boshliq bo'lib boradi, deyishganida to'qqizinchi sinf o'quvchilari xursand bo'lib ketishdi. Aslida, ular beshinchi sentabrdan paxtaga chiqishgan. Avvaliga darsdan keyin chiqib yurishdi. Keyin ertalabdan chiqadigan bo'lishdi. Oktyabrning o'rtalariga borib, ularning kolxozi planni bajardi.

Keyin aksiga olib, yomg'ir yog'di. O'quvchilarni maktabga to'plab, ertaga ko'rpa-to'shak bilan kelinglar, cho'ldagi yangi sovxozga borasizlar, deyishdi. Bolalar o'rganib ketishgan. Yomg'ir yog'sa dalaga mashina kirmaydi, qo'lda terish kerak. Ilgari ham boshqa xo'jaliklarga ko'p borishgan.

Yigirma kundan oshdi: o'quvchilar yangi ochilgan sovxozda „podbor“ terishyapti. Havo ochiq kunlarda kechalari muallim ularni hovliga olib chiqib „Somon yo'li“ni, „Katta ayiq“ni, „Oqqush“ yulduzlarini ko'rsatadi. Ikki kundan buyon tinimsiz yomg'ir yog'ib, bolalar dalaga chiqolmay qolishdi. Ikki kundirki, muallim ularga rubob chalib beradi, koinot haqida, kosmonavtlar to'g'risida qiziq-qiziq hikoyalar aytadi. Hozir ham u uzun stol yonida o'tirgancha osmon sirlarini so'zlayapti. Stol ustida kattakon tunuka choynak, piyolalar, bir chekkada buxanka non burdalari, quyultirilgan sut bankalari.

Hozirgina ovqatlanib bo'lgan o'quvchilar muallimning ikki tomoniga tizilib o'tirib olishgan. Ba'zi bolalar o'z o'rnida yotgancha inidan mo'ralagan qaldirg'ochdek boshini chiqarib muallimga qarashadi. Bir xil qizlar kaftini iyagiga tirab jimgina o'tirishibdi. Ba'zilar tizzasini quchoqlab, boshini bir yonga tashlagan ko'yi uning gaplarini tinglaydi. Xonada karam sho'rva hidi aralash namiqqan paypoq isi kezadi. Yomg'ir hamma yoqni zaxlatib yuborgan.

– Biz cheksiz koinotda shiddat bilan uchib yuribmiz, – deydi muallim o‘ychan ohangda. Uning ovozi bo‘g‘iqroq. Shamollagan odamdek xirillab chiqadi. Darsni ham shunaqa o‘tadi. Ammo bolalar darsida qilt etmay o‘tirishadi. – Uchib yuribmiz-u, o‘zimiz bilmaymiz. Yer shari o‘z o‘qining atro-fida soatiga bir ming yetti yuz ellik kilometr tezlikda aylanadi. Uncha-muncha samolyot yetolmaydi.

Toshpo‘lat „ikkinchi qavatda“ taxta kat ustida yostiqla suyangancha oyog‘ini osiltirib o‘tiribdi. U ham to‘qqizinchi sinfda o‘qiydi, astronomiyani yaxshi ko‘radi. Kosmonavt bo‘lgisi keladi. Muallimning gapini berilib tinglaydi. Shunaqa-yu, oyog‘i og‘riyapti. Ayniqsa, o‘ng oyog‘ining tizzasi. Shunaqangi zirqirab og‘riyaptiki, ingrab yubormaslik uchun labini tishlab o‘tiribdi. Oyog‘i azaldan og‘riydi o‘zi.

Esida, kichkinaligida tomog‘i og‘rirdi. Tomog‘i og‘rib, kechasi bilan isitmalab chiqar, onasi yarim kechada uyg‘onib, sut qaynatar, durda yog‘ qo‘shib ichishga majbur qilardi. Dadasi suvchi bo‘lgani uchun ko‘pincha kechalari dalada qolib ketar, ertalab horib-charchab qaytib kelar, loyga botgan etigini kavshandozga yechib, darrov cho‘yan pechka yoniga cho‘zilardi. Onasi bo‘lsa Toshpo‘latning boshida o‘tirib hasrat qilardi.

– Shu bacham nimjon chiqdi-da...

Bir kuni (taxminan besh yoshlarda bo‘lsa kerak) onasi uni yetaklab, derazasiga oq parda tutilgan doktorxonaga olib bordi. Doktorxona qishloq markazida – pochtaning yonida ekan. Ichkariga kirdi-yu, oq xalatlil doktor xotinni ko‘rib, qo‘rqib ketdi. Onasining pinjiga tiqildi.

– Hech nima qilmaydi, – dedi onasi uni yupatib. – Doktor opa tomog‘ingni ko‘rib qo‘yadilar.

– Polvon ekan-ku, bu! – doktor stakandan qoshiq bandiga o‘xshagan yaltiroq temirni olib, og‘ziga tiqdi.

– A-a degin!

Toshpo‘latning tomog‘i qichishib, ko‘zidan yosh chiqib ketdi. Jonholatda doktorning qo‘liga yopishdi. Doktor xotin kuldi.

– Ibi, men seni domod qilmoqchiman-ku!

– Kerakmas, – dedi Toshpo‘lat hech baloga tushunmay.

– Hozir bitta ukol qilamiz, kasaling tuzalib qoladi.

Toshpo‘lat emlashdan qo‘rqib yig‘lab yubordi.

– Ibi! – dedi doktor xotin yana kulib. – Ukoldan qo‘rqasanmi? Ana, Soliya qo‘rqmaydi-ku!

Toshpo‘lat xona burchagidagi kursida qo‘g‘irchoq o‘ynab o‘tirgan, zardo‘zi do‘ppi kiygan qizaloqqa endi e‘tibor berdi. Qizaloq qo‘g‘irchoqning sochini kafti bilan tarar, kulib turardi. Toshpo‘lat hiqillab-hiqillab chiqib ketayotganida ham qizaloq kulib qarab qoldi.

Birinchi marta maktabga borgan kuni xuddi o‘sha qizaloq bilan bitta partaga o‘tqazib qo‘yishdi. So‘ng ikkovlari qishloq etagidagi mozoristonga tutashib ketgan o‘tloqda mol boqishdi.

Keyinchalik ham Soliyaning onasi vaqt-bevaqt Toshpo‘latni ukol bilan „siylab“ turdi. Beshinchi sinfda o‘qiyotganida uning bo‘g‘inlari qaqshab og‘riydigan bo‘ldi. Ayniqsa, tizzasining ko‘zi shu qadar azob berardiki, Toshpo‘lat kechasi bilan ingrab chiqar, ertalab ko‘zining tagi ko‘karib ketardi. Bir kuni doktor opa Toshpo‘latning onasiga qattiq tayinladi:

– Bo‘g‘inlari shishibdi. Revmatizmga o‘xshaydi. Bisillin olishi kerak.

Onasi uni tuman markazidagi poliklinikaga olib bordi. Haftasiga bir martadan ukol qilishdi. Ukol olgan kunining ertasiga oqsoqlanib yurardi-da, keyin ninaning o‘rnidagi og‘riq bosilib qolardi. Bir haftadan keyin yana ukol... Keyin bo‘g‘inlarining og‘rishi bosilganday bo‘ldi. Onasining koyishiga qaramay Toshpo‘lat poliklinikaga qatnamay qo‘ydi.

* * *

Tashqarida sim-sim yomg‘ir shitirlashi ham, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg‘ir yog‘yapti. Ezib-ezib kuz yomg‘iri yog‘yapti. Muallim oyog‘ini chalish-tirib o‘tirgancha hikoya qilyapti.

– Yer shari Quyosh atrofida bundan ham tez aylanadi, – deydi u hamon o‘sha bo‘g‘iq ohangda. – Sekundiga o‘ttiz kilometr tezlikda.

– Ibi – deydi harrakning bir chetida o‘tirgan Soliya ko‘zlarini katta-katta ochib. – Shunday tezmi, ma‘lim!

– Shunaqa tez! – muallim mamnun jilmayib qo‘yadi. – Biz yashab turgan Yer faqat Quyosh atrofida emas, Galaktika atrofida ham aylanadi. Bunisi undan ham tez: sekundiga ikki yuz qirq kilometr! Bolalar, qizlar chekka-chekkadan hayratlanib xitob qilishadi.

– Eh-he!

– Nega bo‘lmasa biz bilmaymiz, ma‘lim?

Bu – yana Soliyaning ovozi. Toshpo‘lat unga qaramaslikka harakat qiladi: Soliyadan arazlagan. Ammo uni ko‘p tush ko‘radi. Anchadan buyon.

Sakkizinchi sinfga o‘tishganida ham Toshpo‘lat uni mensimasdi. Hatto boshqa partaga – Abdullaning yoniga o‘tib olgandi. Abdulla duduq bo‘lsayam a‘lochi bola. Hamma narsani biladi...

Birinchi may bayrami kuni Toshpo‘lat Soliyani avtobusda ko‘rib qoldi. Uyam shaharga – o‘ynagani ketayotgan ekan. Ko‘rdi-yu, g‘alati bo‘lib ketdi. Yo‘q, bu – o‘zi bilan mol boqib yuradigan Soliya emasdi. U sochini chiroyli qilib turmaklab olgan, oyog‘ida oppoq tuffi, egnida atlas ko‘ylak... Ko‘ylak ostida ko‘ksi bo‘rtib turibdi... Toshpo‘lat esankirab qoldi. Nimagadir tomog‘i qaqrab yutindi.

– Senam shahargami? – dedi ovozi titrab.

– Ha, – Soliya kuldi. Chiroyli kipriklari pipirab ketdi. – Birga-birga aylanamizmi?

Shaharga tushishdi. Avtostansiya oldidagi do‘konchadan muzqaymoq olib yeyishdi. Toshpo‘lat o‘tgan-ketgan yigitlarning Soliyaga tikilib-tikilib qarayotganini ko‘rar, g‘ashi kelar edi. Qishloqqa kelguncha gap-gapga qovushmadi. Xayrlashayotganda Toshpo‘lat nima deyishini bilmay so‘radi:

– Ertaga darsga borasanmi?

Soliya unga qarab turdi-turdi-da, sharaqlab kulib yubordi. Shunaqa chiroyli kuldiki, Toshpo'lat mulzam bo'lib, gan-diraklagudek yurib ketdi.

Keyin qulog'iga dars kirmaydigan bo'lib qoldi. Ikki ko'zini Soliyadan uzmaydi. Soliya uch parta oldinda, narigi qatorda Sharifa bilan o'tiradi. Toshpo'latga uning sochi, yuzining bir tomoni, bejirim burni ko'rinib turadi. Doskaga chiqqanida esa unga qaramaslikka harakat qiladi. Qarasa, gapidan adashib ketadi. Ta'til yaqinlashgan sayin uning yuragi bezillar edi. Ta'tilga chiqishsa, Soliyani ko'rolmay qoladi. Baribir vaqt-soati bilan imtihonlar ham o'tdi, ta'til ham keldi. To'g'ri, imtihon boshlanganda ham ular har kuni ko'rishib turishdi: sinovdan bo'sh kunlari o'quvchilarni chopiqqa olib chiqishdi. Toshpo'lat boshiga oq ro'mol tang'ib olgan Soliyaning egilib chopiq qilayotganini ko'rib turar edi... Keyin ta'til boshlandi. Uch kunda Toshpo'lat uni sog'inib qoldi. Soliyaning onasi ishlaydigan poliklinika oldidan atayin velosipedini yetaklab bir necha marta o'tdi. Soliya yo'q edi. Ularning uyi ham yaqin. Pochtadan nariroqda. Ammo Toshpo'lat uyiga biron narsani bahona qilib boray desa, Soliyaning dadasidan qo'rqadi.

U har kuni qorong'i tushganida paxtaga suv tarayotgan dadasiga ovqat olib borar edi. Velosipedning ruliga tugunni osadi-yu, g'irillab ketaveradi. Dadasi marza chetidagi tut tagida yonboshlagancha shoshilmay ovqatlanadi. Toshpo'lat ungacha poylab turadi.

Bir kuni kechasi tuproq ko'chadan velosiped minib qaytayotganida maktab darvozasi oldida sharpa ko'rindi. Toshpo'lat allaqanday ichki sezgidan hayajonlanib velosipeddan tushdi. Yaqinroq bordi. Qarasa – Soliya. Qorong'i bo'lsayam Toshpo'lat uni uzoqdan taniganiga o'ziyam hayron bo'ldi.

– Soliya! – dedi ovozi titrab. – Nima qilopsan?

– Go'sala bo'shalib ketibdi, – dedi Soliya negadir velosipedning ruliga qo'lini qo'yib.

– Qachon?

– Bilmasam... – Soliya Toshpo‘latga jilmayib qaradi. Jilmaydi-yu, qorong‘ida yuzi yorishib ketganday bo‘ldi. – Sen dadangga har kuni ovqat olib borasanmi?

– Ha! – dedi Toshpo‘lat alanglab. – Go‘salang qayoqqa ketdiykin?

– O‘zi topib boradi! – Soliya qo‘l siltadi. – Mayli xayr. – Shunday dedi-yu, tuproq ko‘chadan yurib ketdi. Toshpo‘lat serrayib qolaverdi. Anchadan keyin o‘ziga keldi-da, ko‘chani boshiga ko‘tarib baqirdi:

– Shoshma, oborib qo‘yaman!

Velosipedining rulidan changallagancha lo‘killab yugurdi. Ellik qadamcha nariga borib qolgan Soliyaga yetib oldi.

– O‘tir, – dedi velosipedning orqa o‘rindig‘ini kafti bilan artib, Soliya orqa o‘rindiqqa oyog‘ini juftlashtirib yonboshlab mingashdi. Toshpo‘latning biqinidan yengil tutdi.

Toshpo‘lat yerda emas, osmonda uchib borayotganday edi. G‘ildirak ostida tuproq shit-shit etadi, osmon to‘la yulduzlar... Soliyaning yumshoq, issiq qo‘llari vujudini yondiradi. Toshpo‘lat yulduzlar sari uchib boryapti. Ana, hozir osmoni falakka uchib ketadi, yonida – Soliya.

– Bo‘ldi, – dedi Soliya uning yelkasiga ohista shapillatib. – Bo‘ldi, keldik-ku.

Toshpo‘lat qarasa, ambulatoriya yaqiniga kelib qolishibdi. Soliya o‘rindiqdan lip etib tushdi-da, sekin qo‘l siltadi:

– Xayr...

O‘sha kecha u Soliyani birinchi marta tush ko‘rdi. Ikkovlari velosiped minib osmonda uchib yurishganmish.

Keyin yana ikki marta Soliyaning buzog‘i „yo‘qolib“ qoldi. Toshpo‘lat uni velosipedga mingashtirib uyiga oborib qo‘ydi. Ular ko‘p gaplashishmas, darrov xayrlashar edilar. U Soliya bilan tushida gaplashardi.

...Arazlashib qolishgani chatoq bo‘ldi. Uch kundan buyon gaplashishmayapti. Shuning uchun u harrak chetida o‘tirib, muallimning hikoyasini berilib tinglayotgan Soliyaga qaramaslikka harakat qiladi. Aslida hozir oyog‘ining qaqshab

og'riyotganiga ham bir chekkasi Soliya sababchi. Yo'q, Soliyamas, Mamat sababchi. Uch kun avval odatdagidek podbor terishdi. Podbor terish uncha qiyinmas: mashina terganida egatlarga to'kilib qolgan, chanoqlarda yangi ochilgan paxta terib ketilaveradi, etak tez to'ladi. Ammo avval ham yomg'ir yog'gani uchun to'kilgan paxta yerga yopishib qolgan. Tirmalab olish kerak.

Kechqurun bolalar tergan paxtasini orqalab yo'l chekkasiga olib chiqishdi. Odatda, tushda, kechqurun yo'l chetida bitta telejka tayyor turadi. Tarozisini shaylab tabelchi ham keladi. Tabelchi paxtalik kiygan, soqoli tikandek o'sib ketgan kishi. Shlapa kiyib yuradi. Yoniga yaqin kelsangiz dimog'ingizga gup etib vino hidi uriladi. Aftiga qarab yoshini bilib bo'lmaydi: o'ttizdami, ellikdami? Bolalardan paxtani tortib olayotganda doim qovog'ini solib turadi. Ammo qizlarga ko'zi yiltirab, iljayib qaraydi. Toshpo'lat etagini orqalab birinchi bo'lib keldi. Etak og'ir edi. Ikki qo'llab ko'tarib tarozi ustiga qo'ydi. Shu payt yelkasiga ikki etak paxtani ortmoqlab muallim ham kelib qoldi. (Qizlar tergan paxtani daladan o'zi ko'tarib chiqardi).

– O'n sakkiz! – tabelchi „ol etagingni“ degandek Toshpo'latga imo qildi-da, kirlanib ketgan daftarini ochdi.

Toshpo'lat endi etakni tarozidan olmoqchi edi, muallim uning qo'lidan tutdi.

– Shoshmang, – dedi tabelchiga. Tarozi toshini qaytadan o'ngga surdi. – O'ttiz kilo-ku!

– Iskidka bor, akamullo, iskidka bor!

– Skidka shuncha bo'ladimi? – dedi muallim labini qimtib.

– Nima deyobsiz, akamullo, biz ham o'q'igan, hisob-kitobni bilamiz.

Muallimning rangi o'chdi.

– Uyalmaysizmi, – dedi ovozi xirillab. – Yosh bolaning haqi-ku bu! Tag'in barmatuxa ichganini...

– Ibi, nima deydi bu! Barmatuxa nima o'zi? – Tabelchi telejka ustida turgan telpakli sherigiga qaradi. Negadir labining bir cheti bilan zaharli iljaydi. – Zakunchi bo'lsangiz,

direktorga jaloba qiling, akamullo, bizlar kichik odam. Hay ana, yigirma yozdik.

Muallim atrofini o'rab olgan bolalarga qarab qo'ydi-da, indamay etakni tarozidan oldi.

– Bundan ko'ra qushxonaga borib bez termaysanmi! – dedi past ovozda ijrig'anib – Vijdonsiz!

Tabelchi yo eshitmadi, yo eshitsa ham parvo qilmadi.

– Qani? – dedi navbatda turgan bolaga. – Chaqqon-chaqqon! Kech bo'pketopti.

Navbatning oxirida turgan bolalar ham paxtani torttirib telejkaga uzatishayotganda motor gurulladi. Ikki biqiniga loy sachragan „Niva“ mashinasi telejka orqasiga kelib to'xtadi. Eshik ochilib, kirza etik kiygan ko'zlari uyqusizlikdan qov-jiragan o'rta yoshlardagi kishi tushdi. Bu – sovxoz direktori edi. Yotoqqa kelganda bolalar uni ko'rishgandi.

Tabelchi direktorni ko'rib, tipirchilab qoldi.

– Assalom, – dedi-yu, pildirab borib, qo'shqo'llab ko'rishdi.

Direktor u bilan yengilgina ko'rishib, muallimning qo'lini qisdi.

– Hormaylar-ov, azamatlar! – dedi bolalarga yuzlanib.

Bolalar, qizlar uyalibroq salom berishdi.

– Bilaman, qiyin, hammamizgayam qiyin, – dedi direktor dehqoncha dilkashlik bilan. – Nailoj, kuz sabil og'ir keldi. Shu paxtani otalaringiz, onalaringiz ekishgan. Yil bo'yi ishlashgan. Yerda qolib ketsa bo'lmaydi-da, – u muallimga qaradi. – Bizga talablar bormi?

– Bor, – dedi muallim sekin. Toshpo'lat tabelchining ko'zini pirpiratib-pirpiratib orqaga tisarilganini, muallimga qarab ayanchli iljaygani, telejka ustida turgan telpakli shirigiga madad kutganday qarab qo'rganini ko'rdi.

– Pechka kerak, – dedi muallim. – Sovuq tushib qoldi.

– Yaxshi! – direktor keskin bosh silkidi. – Ikkita pechka olib kelishadi.

– Yo'q! – dedi muallim qo'rslik bilan. – To'rtta kerak. Barak katta. Besh-olti qop ko'mir ham kerak.

– Yaxshi, – dedi direktor yana bosh silkiib. – To'rtta bo'lsa to'rtta-da! Ammo ko'mir yo'q. O'tin topamiz. Balki, saksovol yuborarmiz. Cho'l yaqin-ku. – U muallim bilan qo'l olishib xayrlashdi-da, qaytib rulga o'tirdi. Mashinani keskin burib haydab ketdi.

– Ana endi uyimiz isib ketadi! – dedi muallim mamnun jilmayib. – Ko'mirdan saksovol yaxshi-da, to'g'rimi! – U bolalardan ko'ra ko'proq o'zi quvongandek tetik ovozda buyurdi. – Ketdik, bolalar!

So'qmoq yo'ldan kanal yoqalab yotoqqa qaytisha boshlashdi. Tizilishib kelishardi. Eng oldinda muallim, ketidan qizlar, bolalar... Toshpo'lat orqaroqda kelardi. Bolalarning tizilib borishimi, rang-barang kiyimimi, xullas nimasidir somon yo'liga o'xshardi nazarida. Xuddi osmondagi somon yo'liga. Ana, somon yo'lidagi eng chiroyli yulduz – Soliya. U Mamatdan oldinroqda ketyapti. Toshpo'lat xafa. Bugun ham Soliya bilan yonma-yon egatga tusholmay qoldi. Bir tomoniga Sharifa, bir tomoniga Mamat tushib oldi. Umuman, paxtaga chiqishganidan beri shu – Mamat Soliyaga ergashib yuribdi. Avval ham shunaqa qilardi-yu, Toshpo'lat uncha e'tibor bermasdi. Mamat gapga chechan. Allaqayoqdagi hango-malarni topib qizlarni kuldiradi. Toshpo'lat shu bolani jinidan ham yomon ko'radi. Dadasi selpo raisi. Bultur lotoreyaga „Jiguli“ yutgan. Oppoq „Jiguli“. Otasi lotoreyaga yutganini Mamatning o'zi aytgan. Toshpo'lat bu yangilikni o'z dadasiga yetkazganida dadasi nimagadir kulgan. „So'rab ko'r, Ahmad boyvachcha necha so'mlik lotoreya yutgan ekan, o'n besh ming so'mgami, o'n olti minggami“, degan. Keyinroq Toshpo'lat bilsa, lotoreyada hech qanaqa „superluks“ „Jiguli“ o'ynalmas ekan. Shu Mamat Soliyaning atrofida ko'p aylanyapti. Ana, hozir ham Soliyaning ketidan soyadek ergashib boryapti. Soliya o'ng qo'ltig'iga etak, chap qo'ltig'iga allaqanday qalin kitob qistirib olgan. U etakni boshi ustida vertolyot parragiday pipirratib aylantirgancha sakrab-sakrab qadam tashlaydi, xuddi yosh boladek. Mamat bo'lsa do'rillab

allanimalarni gapirib boryapti. Toshpo‘lat biladi: Mamat Soliyaga gapiryapti. Bilgan sayin alam qiladi. Soliya ham ahmoq, kelib-kelib shu bilan gplashadimi?

Bir mahal qiziq ish bo‘ldi. Soliya bir sakragan edi, qoqilib munkib ketdi. Qo‘ltig‘idan kitob otilib, varaqlari ochilganicha suvga uchib tushdi. Bolalar qiy-chuv qilib yuborishdi.

– Ibi, suvga tushdi!

– Kitobim, kitobim! – Soliya sohil bo‘ylab orqaga qayta boshladi. U kanal qirg‘og‘idagi kesaklarga qoqilib-qoqilib kelar, ikki ko‘zi suvda qalqib borayotgan kitobida edi. Hamma chuvur-chuvur qilar, kitob esa kanal o‘rtasiga borib qolgandi.

– Nima gap? – old tomondan muallimning ovozi keldi. Toshpo‘lat uning engashib botinkasining bog‘ichini yechayotganini ko‘rdi. Endi kitob Toshpo‘latning shundoq ro‘parasiga kelib qolgan edi. U sho‘rxok bosib qordek oqarib ketgan tik sohildan sirg‘alib pastga tushdi. Etigi loyga botib ketdi. Amallab loydan chiqdi-da, etigini yechmasdan shalop-shalop qilganicha suvga kirdi. Kanal sayoz ekan, tizzasidan keldi. Ammo shu ondayoq etigi muzday suvga to‘lib chiqdi. Sirg‘ana-sirg‘ana o‘rtaga bordi-da, kitobni tutib oldi. Negadir iljayib, muqovasiga qaradi. „Qizil va qora“ degan kitob ekan.

Sohilga yetganida qarasa, Soliya qo‘lini cho‘zib turibdi. Toshpo‘latni tok urgandek vujudi zirillab ketdi. Nazarida Soliya uning qo‘lini boshqacha qisgandek bo‘ldi. Yuragi gursullab ura boshladi.

– Rahmat, – dedi Soliya jilmayib. – Oyog‘ing sovuq yedimi?

Toshpo‘lat suvni ham, sovuqni ham sezmasdi, baxtiyor edi. Nariroqda iljayib turgan Mamatni ham ko‘rmadi, lekin gapini eshitdi, aniq eshitdi.

– Yaznamiz giroy-ku!

Toshpo‘lat suvga to‘lgan etigini shiltillatganicha chiqib keldi-yu, Mamatning basharasiga musht tushirdi.

Mamat ko‘zi olayganicha burnini tortdi, kaftining orqasi bilan labini artib og‘ir-og‘ir kiprik qoqdi.

– Nega uropsan? – dedi do'rillab.

– Soliyadan nari yur! – Toshpo'lat butun vujudi titrab ta'kidladi. – Uqdingmi?

Mamat suzong'ich buqadek boshini eggancha Toshpo'latga tashlandi.

Ammo yetib kelolmadi: bolalar orasidan otilib chiqqan muallim yelkasidan ushlab, bir tortgan edi, Mamat oyog'i sirg'anib o'tirib qoldi.

– Voy xo'rozlar-ey! – dedi muallim bosh chayqab. – Uyal-maysanlarmi!

Toshpo'lat goh Mamatga, goh Soliyaga qarab o'shshayib turardi.

– Nima, san manga xo'jayinmi? – dedi Soliya Toshpo'latga qarab. Shundoq dedi-yu, kitobni qulochkashlab suvga uloqtirdi. Indamasdan borib qizlar to'dasiga qo'shildi.

Toshpo'lat bunday bo'lishini kutmagan edi. Ayniqsa, Soliyaning jerkishidan ko'ra ko'zi chaqchayib baqirgani alam qildi.

– Jigaringni ezaman! – Mamat do'rillab, Toshpo'latga mushtini do'laytirdi.

– Yech etigingni! – muallim Toshpo'latni quruqroq kesak ustiga o'tqazdi. Etigini tortar ekan, yelkasi osha bolalarga yuzlandi.

– Etak beringlar!

Kimdir uzatgan ikkita etakni oldi-da, paytava o'rniga Toshpo'latning oyog'iga o'radi. Baribir, xo'l paxta terilgani uchun etaklar ham nam edi.

Muallim har biriga salkam yarim chelakdan suv to'lib qolgan etiklarni silqitib qayta kiygizdi-da, Toshpo'latga buyurdi.

– Marsh yotoqqa! Yugur!

* * *

...Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi ham, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti. Ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti.

Xonada makaron sho'rva hidi, namiqqan paypoq isi kezadi. Toshpo'lat sirqirab og'riyotgan oyog'ini silab o'tiribdi. Muallim hamon o'sha bo'g'iq ovozdahikoya qiladi.

– Olam cheksiz. Biz yashab turgan Yer shari olam oldida zarradek bir gap. Hozirgi astronomiya fani yetmish besh million Galaktikani aniqlagan. Shundan uchtasi bizning Galaktikaga yaqin joylashgan. Bittasi Katta Magellan, bittasi Kichik Magellan, yana bittasi Andromeda tumanligi. Andromeda tumanligining nuri Yerga ikki million yilda yetib keladi.

Toshpo'lat Andromeda tumanligini ko'z oldiga keltiradi. Muallim shundoq Somon yo'lining chetrog'ida turgan tumaniga o'xshash xira zich yulduzlar to'dasini ko'rsatib tushuntirgan. Shu Andromeda tumanligi. Bizning Galaktikaga qo'shni. Ammo Andromeda tumanligida ham hayot borligiga olimlar ishonmaydi. Agar unda ongli mavjudot bo'lsa, Yerga biron signal berishardi. Shunga qaramay, qayerdadir, baribir odamga o'xshagan mavjudot bor. Muallim aytgan. Bor. Albatta bor! Muallim bir narsani bilmasa gapirmaydi.

– Yulduzlar abadiy yashaydi, – deydi muallim o'ychanlik bilan. – O'zi so'nganidan keyin ham nuri bizga yetib kelaveradi... Osmondagi yulduzlar bizga bir tekis joylashgandek ko'rinadi. Lekin yonma-yon turgandek ko'ringan yulduzlar ham aslida bir-biridan juda uzoqda bo'ladi. – U negadir ma'yus xo'rsinib qo'yadi. – Odamlarga o'xshab... Bir xil odamlar bor. Yoningda turganga o'xshaydi-yu, o'zi olisda bo'ladi. Juda olisda. Faqat farqi shundaki, yulduzlar odamlarga o'xshab bir-birini aldamaydi. Ko'ziga cho'p solmaydi... – shunday deydi-da, uzoq jimib qoladi.

Toshpo'lat muallimning boshqalarga o'xshab qah-qah urib kulganini hech ko'rmagan. Nimaga shunaqa?

Qiziq, domla Hamroyev yangi o'qituvchini kelganidayoq yomon ko'rib qolgan. Domla Hamroyev Toshpo'latlar bilan hamsoya. Toshpo'latning dadasi bilan jo'ra. Kechqurunlari chiqadi-da, hovlidagi so'rida ~~gurunglashib o'tiradi. Toshpo'lat ularning gaplarini beixtiyor eshitib qoladi.~~

– Shaharlik bodi o'zlarini ko'rsatoptilar. Yangi jo'rob yaxshi supuradi-da! Bruklar utuklangan, bo'ynida bo'yinbog', soqollar paratka... Pedagog hamma joyda o'rnak bo'lishi kerak, deb leksiya o'qidilar. Men ham edim saningdek, sen ham bo'lasan maningdek! O'quvchisi oldida go'salaning uch-to'rt satil go'ngini tomorqaga tashisin, ko'ramiz, soqol olishga vaqti qolarmikin!..

Toshpo'latning dadasi javob berishga shoshilmaydi.

– Endi, domla, – dedi salmoqlab, – go'sala boqadigan joy ham qolmadi-ku o'zi. Mana, biz ham moldan qutuldik. Birini sotdik, birini so'ydik. Qishloq joyda turib, zardolini shahardan sotib olamiz.

Dadasi to'g'ri aytadi. Toshpo'lat oltinchi sinfda o'qib yurganida qishloq chekkasidagi mozoristonga tutashib ketgan yerlar bo'sh yotardi. Toshpo'lat ukasi, o'rtoqlari bilan mol boqqani chiqardi. Bir sigir, bir buzoq, to'rtta qo'yi bo'lardi. Mollarni o'tloqqa qo'yib yuborib, baqaterak tagida yotib kitob o'qirdi. Osmonda iliq bahor quyoshi, oppoq, erinchoq bulutlar... Qiziq, negadir Soliyani yoqtirmasdi. Ahmoq ekan-da! Ustiga-ustak o'zining molini Soliyaga boqtirardi. Hatto bir marta yig'latgan ham. O'shanda Soliya dadamga aytib beraman, seni otib tashlaydi, degan. Soliyaning dadasi – melisa. To'pponcha taqib yuradi. Nega yig'latgan ekan? Kelib-kelib Soliyani-ya!

...Keyin paxta maydonlari kengaytirildi. Mol boqishga joy qolmadi. Paxtazordan o't yulishgayam ikkilanadi kishi. Dori sepilgan bo'lsa ish chatoq. Sigirga hech nima qilmagandayam sutini odam ichadi-ku! Toshpo'latning dadasi tomorqadagi olma-o'riklarni kesib tashlab makka ekdi. Mo' deganning jag'i tinmas ekan. Tomorqadan chiqqan jo'xori urvoq ham bo'lmasdi. Hozir ikkita qo'ylari bor, xolos. O'shaniyam yoniga borgisi kelmaydi. Molni yomon ko'rib qolgan...

– Baribir! – deydi domla Hamroyev bo'sh kelmay. – Bu shaharlik bodi qishloqni bilmaydi. Rais bovaning qo'liga tushmagan hali. Saratonda uch kun yaganaga chiqsin, shahariga qarab tarang qochib qoladi.

Yo'q, muallim shahariga qarab qochib qolmadi. Kolxoz hammomining yonidagi mehmonxonada, bitta hujrada turib ikki yildan buyon ishlab kelyapti.

Muallim hali ularga ko'p dars bergani yo'q: paxtaga chiqib ketishdi. Biroq muallimning birinchi marta darsga kirgan kunini Toshpo'lat yaxshi eslaydi. Uchinchi dars edi. Qo'ng'iroq chalinishi bilan sinfga yangi muallim kirib keldi. Ko'ylagi qordek oppoq. Shimi tekis dazmollangan, jingalak sochli, oyog'ida gard yuqmagan tuffi... Bolalar boshqa o'qituvchilarning ham domla Hamroyevga o'xshab, pala-partish kiyinib kiraverishiga ko'nikib ketishgani uchunmi, biroz esankirab qolishdi.

– Salom, bolalar, – dedi yangi muallim xiyol bo'g'iq ovozda. – Mening ismim Omonulla, familiyam Rustamov. Men sizlarga astronomiyadan dars beraman. Xohlasangiz ismimni aytib chaqiringlar, xohlasanglar, familiyamni. Muallim desanglar ham mayli...

– Ma'lim deymiz. – Mamat o'tirgan joyida do'rilladi. – Ma'limsiz-ku, axir.

– Yaxshi! – Muallim ma'qullab bosh silkidi. – Men o'zimni tanishtirdim. Endi sizlarniyam tanib olay.

U yo'qlama qila boshladi. Har bir bola, har bir qiz o'rnidan turganida ko'ziga tikilib qaraydi, go'yo nimani o'ylayotganini bilib olmoqchidek.

Muallim darsni o'quvchilar kutganidan o'zgacharoq boshladi.

– Bundan bir necha yil ilgari Toshkentdan Moskvaga uchayotgan Il-62 samolyotida tajriba qilib ko'rishdi, – dedi bo'g'iq ovozda. – Uchuvchilar kabinasining oynasiga qora parda tutib qo'yishdi. Samolyot Moskvadagi Domodedova aeroportiga qo'nayotganida ham pardani olib tashlashmadi. Uchuvchilar yerni ko'rmasdan qo'nishdi. Bundan maqsad, samolyotdagi navigatsiya asboblari, elektron-texnika apparatlarini sinab ko'rish edi.

Bolalar darsni g'alati misol bilan boshlagan muallimga bir qadar hayron qarab qolishdi.

– Bilasiz, hozir texnika juda rivojlangan, – dedi muallim davom etib. – Lazerdan tortib elektronikagacha hammasi bor. Kosmosdan turib yerda, stol ustiga yozib qo'yilgan gazetani bemalol o'qish mumkin. Lekin bundan ming yillar ilgari ham sahrolarda karvonlar yurgan, okeanlarda kemalar suzgan. Mayli, kunduzi ular sharq bilan g'arbni oson topishgan. Ammo kechasi-chi? Dengizdagi kemalar, sahrodagi karvonlar kechasi to'xtab qolmagan-ku. Ularda oddiy kompas ham bo'lmagan. Ular yo'lni qanday topishgan? Yoki bahorda shimolga, kuzda janubga uchadigan qushlar kechasi nimani mo'ljalga oladi?

– Qushlar kechasi dam oladi, – Mamat yana o'tirgan joyida do'rilladi.

– Dam olmaydi, – dedi muallim qat'iy qilib. – Shunaqa qushlar borki, Atlantika okeanini qo'nmasdan kesib o'tadi. Bir haftagacha kecha-kunduz tinimsiz uchadi. Xo'sh, ular nimani mo'ljal qilishadi?

– Yulduzlarni! – dedi Mamat yana do'rillab. Bilag'onligidan xursand bo'lib, qaddini roslab qo'ydi.

– Mana shuning uchun ham insoniyat juda qadim zamonlardan astronomiyaga qiziqqan. Osmon sirlarini bilishga uringan. – Muallim ichki hayajon bilan jingalak sochli boshini silkitdi. – Biz yashab turgan yer-u osmon chambarchas bog'liq. Agar Oyda biron o'zgarish bo'lsa Yerga ham ta'sir qiladi. Agar Quyoshda portlash ro'y bersa, sakkiz yarim minutdan keyin Yerda avtomobil halokatlari ko'payib ketadi, yurak kasalliklari kuchayadi. Quyosh aktivligi oshganda Yer yuzida zilzilalar, suv toshqinlari bo'ladi.

...Qiziq, muallim birinchi darsdanoq bolalarni yulduzlar olamiga olib kirdi-qo'ydi. Bolalar uning „bodi“ligini unutib yaxshi ko'rib qolishdi...

Bultur qishda Toshpo'lat maktab kutubxonasiga kirsa, muallim ham turgan ekan. U hali Toshpo'latlarga dars o'tmagan edi. Toshpo'lat „Mening ukam Yuriy“, degan kitobni kutubxonachi opaga topshirayotganini ko'rib, yoniga keldi.

– Osmonni yaxshi ko‘rasanmi? – dedi to‘satdan.

Toshpo‘lat daf‘atan tushunolmadi.

– Nima?

– Kosmonavtikaga qiziqasanmi?

– Ha, – dedi Toshpo‘lat. – Judayam!

– Yur, senga kitob beraman. – Muallim shunday deb uni o‘zining hujrasiga boshlab bordi.

Toshpo‘lat muallimning bir xonalik uyiga kirdi-yu, hayratdan og‘zi ochilib qoldi. Ikki tomonidan devorga oynaband shkaf tirab qo‘yilgan, shkaf kitobga to‘la edi. Deraza oldida stol, stul, etak tomonda divan. Devorga rubob ilib qo‘yilgan.

– Anavi tokchadagilar hammasi astronomiya bilan kosmonavtika to‘g‘risida. – Muallim shunday dedi-da, chiqib ketdi. Zum o‘tmay bir chelak ko‘mir ko‘tarib kirdi. – Hozir pechka yoqamiz, – dedi „golland“ pechkaning burama bandli eshigini ochib. – Choy ichamiz.

Toshpo‘lat battar hayratlandi. „Bodi“ muallimning pechka yoqishini xayoliga ham keltirmagan edi. Qarashib yuborishini ham, indamay turishni ham bilmay serrayib qoldi. Muallim pechkaning kulini kurakcha bilan ehtiyotlab sidirib olib pachoq paqirga soldi, cho‘g‘ ustiga ko‘mir qaladi. Keyin ikkovlari konfet bilan choy ichishdi.

Muallim unga o‘lkamizda astronomiya faniga qiziqish qadimdan kuchli bo‘lganini, ulug‘ olim Beruniy bundan ming yil avval Yer bilan Oy o‘rtasidagi masofani aniq o‘lchaganini aytdi.

– Faqat bu emas, – dedi tushuntirib. – Beruniy Yerning dumaloq shaklda ekanini isbotlagan. Shundan kelib chiqib, g‘alati fikr aytgan. Agar Yer kurrasi shar shaklida bo‘lsa, uning bir tomoni quruqlik, boshqa tomoni suv bo‘lishi mumkin emas. Chunki fizika qonuniga binoan suv bilan quruqlikning solishtirma og‘irligi ikki xil. Bir yarim shar nuqul suv, ikkinchisi quruqlik bo‘lsa, Yer o‘z orbitasidan chiqib ketgan bo‘lardi. Demak, g‘arbdagi yarim sharda ham katta qit‘a bor. Beruniyning bu kashfiyoti dunyodagi eng zo‘r ixtirolardan biri bo‘lgan...

So'ng muallim Tunguska voqeasini aytib berdi. 1908-yil 30-iyunda Sibirdagi Tunguska daryosi yoniga meteorit tushganida Xirosimaga tashlangan atom bombasidan ming marta kuchli portlagan ekan, uning zarbidan Toshkentda ham yer qimirlabdi. O'shanda bir necha kungacha Taygadagi o'rmonlar yonib, osmondagi shafaq minglab kilometr naridan ko'rinib turgan ekan. Oradan ko'p yillar o'tgandan keyin akademik Petrov, Tunguskaga tushgan narsa meteorit emas, og'irligi yuz ming tonnalik qor uyumi deb isbotlagan ekan. Ammo Tunguskaga tushgan narsa boshqa planetadan kelgan kosmik kema, deb hisoblovchi olimlar ham bormish.

O'sha suhbatdan keyin Toshpo'lat kosmonavt bo'lishni ko'ngliga tugib qo'ydi. U muallimning domla Hamroyev aytganiday shaharga qochib qolishini xohlamasdi! Aslo xohlamasdi. Yo'q, muallim shaharga qochib qolmadi. Qaytaga qishloqdagilar uni yaxshi ko'rib qolishdi. To'ylar, ma'rakalar muallimsiz o'tmaydigan bo'ldi.

Qayerga bormasin doim ozoda kiyinib yuradi. Domla Hamroyev aytganiday „bodi“, bruklar utuklangan, bo'ynida bo'yinbog'i, soqoli qirtishlangan...

* * *

...Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. Tomchilarning shitirlashi, tarnovning shovullashi eshitilmaydi. Ammo yomg'ir yog'yapti. Ezib-ezib kuz yomg'iri yog'yapti. Xona ichi yorug', lekin zax. Bolalar jim. Muallimning hikoyasini tinglaydi. Toshpo'latning oyog'i yanayam qattiqroq og'riyapti. O'sha suvga tushgan kuni hasharchilarga o'vqat qilinadigan kattakon temir o'choq yonida g'o'zapoya alangasida paytavasini quritdi. Ammo kechasi bilan tomog'i og'rib chiqdi. Keyin oyog'i qaqshab og'riy boshladi.

– Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa yuz ellik million kilometr, – deydi muallim. – Oftob nuri esa shu masofani sakkiz yarim minutda bosib o'tadi.

– Ma'lim, osmonda nechta yulduz bor o'zi?

Toshpo‘lat Mamatning do‘rillagan ovozini eshitib, ijirg‘anib boshini ko‘taradi. Mamat to‘shagiga yonboshlaganacha yuzidagi husunbuzarni tirnog‘i bilan hadeb sityapti. Og‘riydi shekilli, bir ko‘zini qisib, peshanasini tirishtirib qo‘yadi.

Toshpo‘lat muallimning „o‘chir ovozingni“ deyishini xohlaydi. Lekin muallim osoyishta alfozda Mamatga qarab qo‘yadi.

– Bizning Galaktikamizda bir yuz yigirma milliard yulduz bor, – deydi xiyol bo‘g‘iq ohangda. – Bobomiz Ulug‘bek bir ming o‘n to‘qqizta yulduzning harakat xaritasini chizgan. Bu o‘n beshinchi asr uchun juda katta ish edi. Ammo muhimi bu emas. Muhimi shuki – Ulug‘bek planetalar harakatini o‘rgangan. Yulduzlar planetalarga qaraganda juda uzoqda bo‘ladi. Yerga eng yaqin yulduz ham Quyoshgacha bo‘lgan masofadan oltmish olti ming marta uzoq.

Bolalar yana hayratlanib xitob qilishadi.

– Eh-he!

– Voy-bo‘!

– Yulduzlar orasida o‘zining ravshanligini o‘zgartirib turadiganlari ham bor, – deydi muallim. – Ming yil ilgari arablar bunaqa yulduzlarga „shayton ko‘zi“ deb nom qo‘yishgan.

Mamat hiringlab kuladi.

– „Shayton ko‘zi?“ Qiziq-ku!

* * *

Toshpo‘lat domla Hamroyev bilan dadasining yana bir suhbatini eslaydi. Toshpo‘latning dadasi bir umr suvchilik qilgani uchunmi, sovuq tushishi bilan beli og‘riydi. Qish kunlaridan birida dadasi beliga kepak qizdirib bosib yotganida hamsoyalari kirdi.

„Yaxshimi, salomatmi?“ deb omonlashgandan keyin Toshpo‘latning dadasidan „suyunchi“ oladigandek „yangilik“ni aytdi.

– „Bodi“ bejiz kelmagan ekan, jo‘ra! Eshitdik, guldek xotini bilan uch yashar bolani sag‘ir qilib tashlab kelgan ekan.

Toshpo'latning dadasi yotgan joyida inqillab belini changalladi.

– Surilib ketibdi, o'g'lim, – dedi Toshpo'latga, – to'g'rilab qo'y.

Toshpo'lat dadasining biqiniga surilib ketgan kepakli „belbog'ni“ qayta bog'ladi.

– Endi, domullo, har kimning boshida bir tashvish bor, – dedi Toshpo'latning dadasi. – Murosasi kelishmagandirki, shundoq qilgandir. Birovdan o'tganini birov bilmaydi. Shuncha joydan kelib, bolalarimizga saboq berayotgani uchun rahmat demaysizmi? Birovga og'irligi tushmasa, katalakdek hujrada musofirdek tirikchilik qilayotgan bo'lsa!

– Ibi, sizam qiziq! – domla Hamroyev qo'l siltadi. – Nima-si pedagog muni. Xotinboz! – U qiziq voqeani esladi shekilli, ingichka ovozda kuldi. – Ammo lekin Ahmad selpo boplaladi bodini. Bilasiz, selponi o'g'li bor – Mamat. O'zi sho'xroq bola. Bodi borib otasiga aytibdi. „Bolangizni mazasi yo'q, ikkidan boshi chiqmayopti, yaxshisi hunar o'rgansin“, debdi. Shunda selpo nima debdi deng? – Domla Hamroyev yanayam ingichkaroq ovozda kuldi, – mayli, hozircha o'qib turaversin-chi, juda bo'lmasa sizga o'xshagan ma'lim-pa'lim bo'lar, debdi.

Toshpo'latning dadasi qovog'ini soldi.

– O'zingizam ma'limsiz-ku, domullo! – dedi zardali ohangda.

– Men bodimas! Hammaga bir xil talab qo'ymayman. Hamma olim bo'laversa, podani kim boqadi!

Toshpo'latning dadasi ixrab yana belini ushladi.

– Ahmad selponing o'g'li poda boqmaydi, – dedi og'riqdan aftini bujmaytirib. – Bo'lsa o'ziga o'xshagan chayqovchi bo'lar...

– Ibi, nima deyopsiz hali! – domla Hamroyev ovozini balandlatdi. – Selpo o'g'lini eng katta institutga kirgizmoqchi. Kirgizadiyam-da!

...O'sha suhbatdan keyin Toshpo'lat Mamatni yanayam yomon ko'rib qolgan. Nimaga endi institutga a'lochi Abdulla emas, Mamat kirishi kerak? Abdulla vrach bo'lmoqchi edi.

Muallimning astronomiya darsini eshitganidan keyin uyam Toshpo‘latga o‘xshab kosmonavtlikni orzu qiladigan bo‘lib qoldi.

Dadasi to‘g‘ri aytadi: shu ketishi bo‘lsa Mamat otasidan o‘tsa o‘tadiki, qolishmaydi. O‘tgan yili bahorda Mamat maktabga jinsi shim kiyib keldi. Charm marka yopishtirilgan, g‘ij-g‘ij yaltiroq zanjirli haqiqiy jinsi shim. Domla Hamroyev uni koyidi.

– Sen munay shayton teri bruklarni kiyma, – dedi nasihat qilib. – Kiysang, ana shers kiy, hay ana krimplin kiy... Nima qilasan munay brukni!

Tanaffusda bolalar Mamatning atrofini o‘rab olishdi.

– N-necha so‘m? – dedi Abdulla havas bilan.

– Seni puling yetmaydi. Mana, firmenniy! – Mamat otning boshi tasvirlangan charm markaga shappatiladi. – Dadam Toshkentdagi bozordan olibdilar.

Toshpo‘lat Mamatning shimini sehrlagandek tomosha qilar, xayolida nuqul bitta o‘y aylanar edi. O‘zi ham shunaqa jinsi shim kiyib, velosipedda Soliyaning oldiga borsa... Shunday deb o‘ylardi-yu, bu gaplar xomxayol ekaniga o‘zining aqli yetib turar edi. Avvalo, dadasi Toshpo‘latga shim olib beraman, deb ataylab Toshkentga bormaydi. Borganda ham shuncha pulga shim olmaydi. Ikki yuz so‘m, hazilmi?

Oradan ikki haftalar o‘tgach „firmenniy“ shim juda ham unchalik yangilik bo‘lmay qoldi, o‘ninchi sinfda o‘qiydigan bir emas, uch bola xuddi Mamatnikidaqa shim kiyadigan bo‘lishdi.

Ko‘p o‘tmay Toshpo‘latning sinfdoshi – doim orqa partada o‘tiradigan daroz Bahodir ham shunaqasidan kiyib keldi. Bahodir – kolxoz bexgalterining o‘g‘li, yaxshi bola. Bundan chiqdi, uning otasi ham Toshketga borgan. Toshpo‘lat har-chand so‘ramay desa ham chidab turolmadi.

– Qanchaga olding? Dadang Toshkentdan olib keldilarmi? – dedi Toshpo‘lat shimning markasini beixtiyor silab.

– Nega? – Bahodir yelkasini qisdi. – Mamatdan oldim. Ikki yuz ellik so‘m. Senga loyig‘i ham bor.

* * *

...Tashqarida hamon yomg'ir yog'adi. Ichkarida bolalar, qizlar o'tirishibdi. Hammasi jimjit. Hamma muallimning gaplarini tinglaydi. Toshpo'lat o'z xayoli bilan bo'lib gap paxtaga kelib taqalganini sezmay qoladi. U og'riyotgan oyog'ini ikki qo'llab qisib-qisib uqalaydi. Og'riq bosilganday bo'ladi-yu, o'sha zahoti yana sirqillayveradi. Muallimning gapi uning qulog'iga olisdan eshitilayotganday bo'ladi.

– Paxtadan nimalar olinishini bilasizlar-a?

– Bilamiz, ma'lim.

Bir zumda Toshpo'latning xayollari to'zib ketadi. Soliya ning ovozi eshitib, yarq etib qaraydi. Soliya ham muallimga gapiryapti-yu, ko'zi Toshpo'latda. Ikkovlari baravar ko'zini olib qochishadi.

– Bilamiz, – deydi Soliya muallimga qarab. – Paxtadan ip olinadi, gazlama, yog'...

– Kunjara, – deydi Mamat do'rillab.

„O'zing kunjara! – deydi Toshpo'lat xayolan ijirg'anib. – Soliyaning oldida bilag'onligini ko'rsatmoqchi!“

Muallim negadir xo'rsinadi.

– Odam nima uchun mehnat qilayotganini bilishi kerak, – deydi past, bo'g'iq ovozd. Kurtkasining cho'ntagini uzoq titkilab sigaret chiqaradi. Chekib, gugurt cho'pini quyultirilgan sutning bo'shagan bankasiga tashlaydi. Ha, aytganday, qaysi kuni Mamat etakni tagiga yozib, „Prima“ tutatib o'tirganida muallim kelib qoldi. Mamat shosha-pisha sigaretni ariq ichiga tashlab etigining poshnasi bilan ezg'iladi. Muallim urishmadi, so'kmadi. Faqat bir og'iz gap aytdi. „Nima foydasi bor“, dedi. Mamat iljaydi. „O'zingiz zam chekasiz-ku, ma'lim“, dedi. Muallim qarab turdi-turdi-da, yana bir og'iz gap aytdi. „Men qilgan xatoni sen takrorlashing shartmi?“ Shunday dedi-yu, ketaverdi. Hozir Toshpo'lat shuni esladi. Muallimga qarab qo'yadi.

– Siz bolalar, bu yerda bekorga paxta terib yuribmiz deb o'ylaysizlarmi? – muallimning ovozi yanayam bosiqroq

chiqadi. – Paxta degani ip-gazlama-yu, yog‘dan iborat degan gapmas. To‘g‘ri, paxtadan yuz xillab gazlama olinadi. Bir kilo paxta tolasidan yigirma metrgacha baxmal, chit olinadi.

– Eh-he!

– Yigirma metr!

– Bu hali hammasi emas, – deydi muallim hamon o‘sha ohangda. – Paxta tolasidan olingan kord bo‘lmasa, mashina bir qadam ham yurolmaydi. G‘ildirakka xuddi shu modda kerak. Hozir charm o‘rnida ishlanayotgan kirza ham paxta tolasidan olinadi. Paxta momig‘ida to‘qson foiz selluloza bor, yog‘ochdagidan ikki hissa ko‘p. Chigit moyidan olingan nitroglitserin eng og‘ir kasalliklarni davolaydi. G‘o‘zapoyadan shifer, mebel ishlanadi. – Muallim jimib qoladi. Sigaretni chuqur-chuqur tortadi. Og‘zidan tutun chiqarib, kafti bilan haydaydi. – Hatto kosmonavtika uchun ham paxtadan olinadigan mahsulot kerak... – deydi bir nuqtaga tikilib. – Eslab qolinglar: paxta tolasidan ellik xil, g‘o‘zapoyadan, chigitdan undan ham ko‘p mahsulot olinadi. Bir kilo paxta o‘ttiz kilo don bilan baravar baholanadi. – U yana jimib qoladi-da, sekin qo‘shib qo‘yadi. – Sizlar katta ish qilyapsizlar, bolalar.

Toshpo‘lat ko‘z qiri bilan Soliyaga qaraydi. Soliya yelkasi osha sochini o‘rayotgan alfozda turib qolgan. Xuddi suratga tushayotgandek. Mamat qaddini rostlab olibdi, og‘zini yarim ochib angrayib quloq soladi.

– Bizning yurtimizda ikki ming yil ilgari ham paxta ekilgan, – deydi muallim. – Arxeologlar bir qabrni ochib paxta tolasidan to‘qilgan arqon topishgan. Laboratoriyada tekshirib ko‘rishsa, ikki ming yillik arqon ekan. – Muallim sigaretni sut bankasining qopqog‘iga ezg‘ilab o‘chiradi. – Yevropaliklar paxtani Amerika kashf etilganidan keyin bilishgan. Ungacha paxta deganda shoxida meva o‘rniga qo‘y o‘sadigan daraxtni tushunishgan.

...Yettinchi sinfda o‘qishayotganda geografiya darsini domla Hamroyev o‘tgandi. U ham Kolumbning Amerikaga safarini gapirgan edi. Ammo darsda bolalar mudrab o‘tirishgandi.

Domla Hamroyev darsga g'alati kiyimda kirardi. Egnida olacha to'n, boshida shlapa, oyog'ida etik. Bo'ynida rezinka bog'ichli galstuk. Ammo ko'yilagin tugmasi taqilmagan. Sarg'ish yoqasi ko'rinish turadi. Zixlari terdan oqarib ketgan shlapani stol chetiga qo'yadi-da, kattakon, guldor ro'molcha bilan boshini obdan artadi. Keyin bolalarga yuzlanadi.

– Xo'sh, kimdan boshlaymiz?

Bilgan bolalar doskaga chiqib javob beradi, bilmaganlari pisib o'tiraveradi.

Keyin domla Hamroyev negadir baqirib dars o'ta boshlaydi.

– Amazonka daryosi...

Bir kuni Abdulla domla Hamroyevga qiziq savol berdi.

– Yer sh-sharida s-suv ko'pmi, ye-yermi?

– Ibi! – domla Hamroyev bir cho'chib tushdi. – Shuniyam bilmaysanmi? Uch yildan beri qulog'ingga tanbur chertyapmanmi, ho'kiz? Yer sharining uchdan biri quruqlik, qolgani suv. – Domla „buni qaranglar“ degandek bolalarga qaradi. – Tag'in a'lochi emish, o'tir joyingga!

Abdulla qip-qizarib joyiga o'tirdi. O'tirdi-yu, battar du-duqlanib gapirdi.

– O-okeanning t-tagiyam yer-yer-ku! D-demak, ye-yer k-ko'p.

– Ibi, sen bilasanmi, kitob yozgan olimlar biladimi? – Domla Hamroyev terlab ketgan boshini ro'molchasi bilan ishqab-ishqab artdi.

– M-menam k-kitobdan o'-o'qiganman.

Domla Hamroyev bir zum talmovsirab qoldi.

– Mahmadana! – dedi jerkib. – Olimlar ham odam. Yoza-veradi-da, boshiga kelgan gapni. Munay narsalarni sen titkilab yurasan. Ana, Mamatni qara, jim o'tiribdi. – U Mamatga o'g'irilib boshini yanayam ishqabroq artdi. – Dadangdan so'rab ko'r, xolagidan keldimikin. Davlena sabil yana ko'tarilopti.

Mamat negadir iljayib „xo'p“ deb qo'ydi...

Toshpo'lat tushundi. Domla Hamroyevning qon bosimi baland. To'qson besh choyni „xolagi“ deydi. Mamatning dadasi domlaga topib berib turadi.

Domla Hamroyev „bodi“ muallimni nimaga bunchalik yomon ko‘rishini Toshpo‘lat anchadan keyin tushundi. Domla dadasiga hasrat qilganida eshitib qoldi. „Bodi“ muallimga uning yarim stavka darsini olib berishgan ekan. Bu suhbat qish oxirlab qolgan kezlari bo‘lgan edi. Toshpo‘lat dadasi bilan tomdan g‘o‘zapoya tushirib, endi ovqatga o‘tirishgan edi. *Domla Hamroyev kirib qoldi. Shuncha qistashsa ham ovqatdan bir-ikki cho‘qigan bo‘ldi-yu, yemadi.*

– Siz, jo‘ra, bahuzur, – dedi qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib. – Hozir ovqat yeb edim. Mana bu gapni eshiting. Bodini rayonda boplabdilar. Avval ham bir zakun so‘qigan ekanlar. O‘quvchilar bir yilda to‘rt oydan ortiq o‘qimayopti, butun umri dalada o‘tib ketopti, debdilar. Institutga imtihon topshirgani borgan bolalarning savodsizligi shundoq ko‘rinib qolopganmish. Rayonga masala ko‘tarib chiqibdilar. Hay, u deb-bu deb jo‘natishibdi. Endi, ikkinchi chorakda bir emas, to‘rt bachaga „ikki“ chiqaribdilar. Direktor yaxshilik bilan tushuntiribdi. „Bizdayam pilon bor, o‘zlashtirish pilonini yuz poiz qilmasak, kattalardan gap tegadi“, desa osmonga sapchibdilar. „Aqlni piloni bo‘lmaydi, savodsiz bolaga uch qo‘yolmayman“, debdilar. Rayonga chaqirib olib, tarang tuzlashibdi. „Shaharni aptobusiga o‘zingiz chipta olasizmi yo pattangizni oberaylikmi“, deyishibdi. – Domla Hamroyev huzur qilib kuldi. – Shaharga ketadi-yu, akun qaytish yo‘lini topolmaydi. – Hamsoyasi gapini ma‘qullashini kutib qarab-qarab qo‘ydi. Toshpo‘latning dadasi indamaganidan og‘rindi.

– E, siz nimani tushunasiz, jo‘ra! – dedi hafsalasi pir bo‘lib. – Siz bir chalasavod odam-da!

Toshpo‘lat dadasining haqoratlanganidan g‘ijinib ketdi. Qiziq, dadasi parvo qilmadi. Indamay shavlani yeyaverdi.

– Shu bodi bilan ishlamayman! – dedi domla Hamroyev ingichka tovushda. – Maktabdan bo‘shaydigan bo‘ldim. Kataktonlar bilan gaplashib keldim.

Toshpo‘latning dadasi yalt etib unga qaradi.

– Ibi! Nega munay qildingiz? O'zingizni qishloq, o'zingizni maktab. Tashlab qayga borasiz?

Domla Hamroyev qo'l siltadi:

– Dehqonchilik qilaman. Ertadan kechgacha bachalarga dars o'rgatib jigar xunob. Oladigan pul holagiday... Dehqonchilik qilaman. Baribir, umrning yarmisi dalada o'topti.

...Chindan ham shunday bo'ldi. Mart oyidan boshlab domla Hamroyev darsga kirmay qo'ydi. Kattalar bilan gaplashib kolxozdan brigada olibdi.

Maktabdagi o'qituvchilar domla Hamroyevni eslashgan bo'lsa, bordir, ammo bolalar ko'p ham kuyunishmadi. Bir oydan keyin ertalab domla Hamroyev Toshpo'latlarnikiga kirdi. Shirchoy ichib o'tirgan Toshpo'latga gazeta uzatdi.

– Dadang ishdan kelsa o'qib ber. Albatta o'qib ber, uqdingmi?

Shunday dedi-yu, shoshilib chiqib ketdi. Toshpo'lat varaqlab qarasa tuman gazetasi. Ikkinchi betida „Tashabbuskor pedagog“ degan maqola chiqibdi. Tajribali pedagog Hamroyev qalb so'ziga amal qilib o'qituvchilikni tashlagani, brigadaga boshchilik qilayotgani, yuqori hosil ustalari safidan o'rin olishga azm-u qaror qilgani maqtalibdi. Rayondagi boshqa pedagoglarni undan o'rnak olishga chaqirishibdi.

Kechqurun Toshpo'lat maqolani dadasiga o'qib berdi. Dadasini qo'l siltadi.

– Brigadir bo'lmoqchi ekan, nimaga besh yil o'qituvchilikka o'qib davlatni ahmoq qildi. Agronomlikka o'qisin edi! – Maqolaning oxiri nash'a qilgan ekan shekilli, tajanglik bilan shang'illadi (Toshpo'lat dadasining shang'illab gapirganini kamdan kam ko'rgandi). – Xo'p gaplarni topadi-da, muxbirlaram! Nima, ma'limlik brigadirlikdan past bo'ptimi! Shu siyog'i bo'lsa brigadirlikniyam tashlab qochadi bu!

* * *

...Toshpo'lat sirqirab og'riyotgan tizzasini uqalab o'tirib, muallimning so'zlariga quloq solarkan, dadasining o'sha gaplarini eslaydi. Tashqarida sim-sim yomg'ir yog'adi. De-

razalar bug‘lanib qolgan, tashqariga ko‘rinmaydi. Faqat sim-yog‘och uchidagi lampochkagina olmadek qizarib turibdi. Ichkarida bolalar, qizlar muallimga quloq solib o‘tirishibdi.

– Odam yolg‘iz o‘zi uchun yashamaydi, – deydi muallim bir nuqtaga tikilib. Negadir ko‘zlarida horg‘in ifoda paydo bo‘ladi. – Yolg‘iz o‘zi uchun yashamaydi, – deb qaytaradi u tag‘in. – Bugun siz terayotgan paxta ertaga Yer sharining burchak-burchaklariga tarqaladi. Chexoslovakiya, Finlandiya, Yaponiya... Eh-he! – Muallim bolalargamas o‘ziga o‘zi so‘zlayotgandek xayolchan gapiradi. – Agar shu paxta yetib bormasa, Rossiyadagi qanchadan qancha fabrikalar yopiladi. Qanchadan qancha odamlar ishsiz qoladi.

Muallim yana kurtkasining cho‘ntagiga qo‘l suqib sigaret oladi.

– Endi yotinglar, – deydi bolalarga yuzlanib. – Yomg‘ir tinsa dalaga chiqamiz...

Bolalarning uyquasi kelmaydi. Kun bo‘yi yotishgan. Toshpo‘latning tagidagi o‘rindiqlarda o‘tirgan Abdulla bo‘ynini cho‘zib muallimga qaraydi.

– M-ma‘lim, kvaz-zarlar tez-tez p-paydo b-bo‘ladimi? – deydi.

Muallim unga mayin jilmayib qaraydi.

– Yigirma yil ilgari olimlar beshta kvazarni kuzatishgan. Kvazar – o‘ta katta yulduz degani. Hajmi Quyoshdan million marta katta bo‘ladi. Olimlar kvazarlarni Galaktikalarning yadrosi deb taxmin qilishyapti. Kvazarlar paydo bo‘lishi bilan teleskoplardan darrov kuzatishadi...

Toshpo‘lat joyiga yonboshlagancha sekin-sekin uyquga ketadi. Qulog‘iga muallimning gaplari elas-elas chalinadi. Balki, kvazarlar biz bilmagan koinotning quyoshidir... Balki, o‘sha Galaktikalarda hayot bordir... Toshpo‘lat tush ko‘radi. Tushida saraton quyoshida qizib yotgan tuproq ko‘chadan chopib borayotgan emish. Chopib borarmish-u, oyog‘i sirqirab og‘irmish. Oftob shunaqangi qizdirarmishki, nafas olishga qiynalarmish. Birdan Soliya paydo bo‘pti. Qo‘-

lida kitob bormish. Atlas ko'ylak kiyib olganmish. Toshpo'lat uning oldiga yugurib bormoqchi ekan, arazlagani esiga tushib qopti. Soliya bo'lsa qo'lidagi kitobni uloqtirib yuboribdi. Toshpo'lat qarasa, bu – Soliya emas, Mamat emish. Mamat atlas ko'ylak kiyib olganmish. Toshpo'lat oyog'i chalishib yiqilib tushibdi. Mamat uning tepasiga ke-lib, nuqul „tur-tur“, dermish.

Toshpo'lat ingrab ko'zini ochdi. Qarasa, yonida Abdulla turibdi.

– Tur, – dedi yelkasiga turtib. – H-hamma t-turib ketdi.

Toshpo'lat terlagan peshanasiga kaftini bosib ko'rdi, qo'li cho'g'ga tekkanday bo'ldi. Yutingan edi, tomog'i achishib og'ridi. Endi ikkala oyog'i ham zirqirab og'rir, boshi og'ir-lashib ketganga o'xshardi. U amallab „ikkinchi qavatdan“ tushdi.

– K-kasalmisan? – Abdulla unga achinib qaradi. – B-bo'li-masa yotaver.

Toshpo'lat indamay bosh chayqadi. Oyog'i og'riyotga-nini sezdirmaslik uchun xiyol oqsoqlanib o'rtog'iga ergashdi. Ikkovlari tashqariga chiqishdi. Yomg'ir tinibdi. Ammo havо rutubatli, zax, osmonda xo'mraygan kulrang bulutlar mual-laq turib qolgan. Hovlidagi simyog'och uchida hamon qal-poqli lampochka yoniq turibdi. Ellik qadamcha naridagi tomi shifer bilan yopilgan, atrofi ochiq bostirmada boshiga ko'rpabop matodan ro'mol o'ragan kampir kuymalanib yuribdi. Bir burchakda alumin bak-samovar. Bir burchak-da cho'yan o'choq. Kampir bak-samovar tagiga g'o'zapoya tiqadi, bakning dudburonidan lovullab alanga ko'tariladi. Qulog'i, dumi kesilgan kattakon it kampir atrofida o'rala-shadi. Kampir g'o'zapoya o'qталib uni haydaydi. It lapanglab nariroqqa boradi-da, tag'in qaytib keladi.

Yanayam nariroqda atrofi bo'z mato bilan pana qilingan hojatxona. Bolalar navbat kutib turishibdi. Toshpo'lat kanal tomondan yuvinib kelayotgan qizlar orasida Soliyani ko'rdi. U yelkasiga sochiq tashlab olgan, egnida eski, qalin jun kofta.

Undan orqaroqda sochig'ini beliga bog'lab olgan Mamat kel-yapti... Toshpo'lat oqsoqlanmaslikka harakat qilib, barak orqasiga o'tib ketdi.

Uzun stolning bir tomoniga bolalar, bir tomoniga qizlar o'tirib, nonushta qilishdi. Toshpo'lat shirin sutli choyni har yutganda tomog'i achishib, butun vujudidan olov chiqib ketayotganday, a'zoyi badani qizib borayotganini o'zi ham sezib turardi.

Choydan keyin bolalar o'rnidan turishdi, har kim o'z etagini qo'liga oldi. Eshik oldiga borganida muallim Toshpo'latni to'xtatdi.

– Bugun sen navbatchi bo'lasan, – dedi sekin.

Odatda, qizlar galma-galdan barakda qolib navbatchilik qilishadi. Navbatchi xonani supurib-sidiradi, ovqat uchun oshpaz kampirga kartoshka archib, piyoz to'g'rab beradi.

– Kerakmas, – dedi Toshpo'lat. Ovozi xirillab chiqdi.

Muallim kaftining orqasini uning peshanasiga bosib ko'rdi.

– Isitmang baland-ku, – dedi ko'ziga tikilib. – Mayli, dam olaver. Soliya navbatchilik qiladi.

– Kerakmas! – Toshpo'lat tajanglik bilan qo'l siltadi. – Kerakmas!

Soliya eshikdan chiqqan ekan. Muallimning gapini eshitdi shekilli, ostonaga qaytib ketdi.

– Bugun Sharifa navbatchi-ku, ma'lim, – dedi goh muallimga, goh Toshpo'latga qarab. Toshpo'lat darrov ko'zini olib qochdi. U Soliyaning hamon o'ziga qarab turganini his etib battar asabiylashar, birovning, ayniqsa, Soliyaning rahmi kelishini xohlamasdi. Iloji boricha dadil qadam tashlab tashqariga chiqdi.

Yer shu qadar suvga to'yib ketganki, yana bir tomchi yomg'ir yog'sa tuflab tashlaydigandek. Paxtazor botqoqqa aylangan. Har qadamda oyoqqa bir botmon loy ilashib chiqadi. Ikki kunlik yomg'ir egatlarga to'kilgan paxtani yerga chakichlab tashlagan. Qo'lga muzday uriladi. Toshpo'latning

qo'liga suzak kirib ketsa ham badani terlaydi, nuqul terlaydi. Ikki oyog'i sirqirab og'riydi. Xo'l paxtaga to'layotgan etak tizzasiga urilib battar qiynaydi. Tushga yaqin oftob ko'rindi. Bulutlar orasidan chiqib nimtatir iliq nur sochdi. Namiqqan g'o'zalardan spirtga o'xshash achchiq hid taraldi. Jigarrang paxtazor ustida yengil hovur ko'tarila boshladi. Bir mahal Soliya yarimlagan etagini ko'tarib telejka tomon ketayotganini ko'rdi-yu, o'zi etagining bog'ichini bo'ynidan yechdi. Orqalab yo'l chetida chiqquncha jiqqa terga botib ketdi. Ikki marta sirg'alib yiqilib ketishiga oz qoldi. Uning boshi g'uvullab borar, Soliya orqasiga qarab-qarab ketayotganini ko'rgani uchun tekisroq qadam tashlashga urinar edi.

Nihoyat, asfalt yo'lga chiqdi. Etigining loyini qoqib tozalagan bo'ldi. Soliyaning tergan paxtasini taroziga qo'yganini ko'rdi. Shlapali tabelchi unga iljayib allanima dedi. Soliya qovog'ini soldi. Toshpo'lat qadamini tezlatdi. Hamon boshi g'uvullab borar, ikki ko'zi Soliyada edi. Soliya etakni tarozidan olib telejka tepasida turgan telpakli odamga uzatayotganini ko'rdi. Bo'yi yetmadi. Telpakli kishi esa egila qolmaydi. Tabelchi iljayib yaqin bordi. Qarashgan bo'lib qo'lini Soliyaning qo'ltig'i tagidan cho'zdi. Bo'rtib turgan ko'ksiga begona qo'l tekkanidan qo'rqib ketgan Soliya seskanib o'zini chetga oldi. Ko'zlarini katta-katta ochganicha hayron bo'lib tabelchiga qaradi. Paxta to'la etak yerga tushdi. Toshpo'latning yuragi otilib ketganday bo'ldi. Yelkasidagi etakni uloqtirdi-yu, uchib borib tabelchining yoqasiga yopishdi.

– Nega? – dedi tabelchini kuchi boricha siltab. – Nega? Nega?!

Tabelchining shlapasi uchib ketdi. Taqir boshi silkinib, ko'zini baqraytirganicha Toshpo'latning qo'liga yopishdi.

– Qo'yib yubor! – dedi Toshpo'latning qo'lidan paxtaligining yoqasini bo'shatishga urinib. Biroq Toshpo'lat unga mushukdek yopishib olgan, qo'yib yubormasdi.

– Nega! Nega! – derdi baqirib.

Tabelchi uning vajohatidan qo'rqib ketdi.

– Yubor-e! – dedi titrab. Bor kuchi bilan yulqinib orqaga tashlandi. Toshpo‘latning qo‘lini omburdek chayir qo‘llari bilan qayirib yoqasini bo‘shatdi-da, siltab uloqtirib yubordi. Toshpo‘lat loyga yonboshi bilan yiqildi. Negadir ko‘kragingning chap tomonida olovdek lovullagan og‘riq sezdi. Shu paytgacha hech qachon yuragi sanchmagan edi.

– Nega! Nega! – deb hayqirdi loy yerni mushtlab. – Nega! Maraz!!!

Butun vujudi titrar, hamon ko‘kragingning chap tomoni lovullab achishar edi. Bir mahal kimdir uning qo‘ltig‘idan olib ko‘tardi. Qarasa, boshida muallim turibdi. Orqa tomonda tabelchining ovozi keldi.

– Ibi, devonami bu!!!

Muallim Toshpo‘latning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

– Tura qol. Kasalsan-ku, qara yonib ketyapsan.

Toshpo‘lat hech kimga qaramay kanal tomon keta boshladi. Hech kimni ko‘rishni ham, hech kimga ko‘rinishni ham istamasdi.

Anchadan keyin orqa tomondan ship-ship qadam tovushi eshitildi. Toshpo‘lat burilib qaradi: muallim boshini quyi solganicha sekin-sekin kelyapti.

– Keting! – dedi Toshpo‘lat alam bilan qo‘l siltab. – Keting!

Muallim yaqinroq kelib to‘xtadi.

– Hozir yuvinamiz, – dedi osoyishta ohangda. – Borib dam olamiz. Mashina chaqiraman... – U Toshpo‘latning ko‘ziga termildi. – Revmatizming bormi?

Toshpo‘lat indamay burilib ketdi.

Yotoqqa qaytishganda muallim unga dori ichirdi. Portfelini titkilab bitta limon topdi. Parraklab kesib choyga soldi. Uniyam ichirdi. O‘rniga yotqizib o‘rab qo‘ydi. Anchagacha yonida o‘tirdi. Toshpo‘lat badanida huzurbaxsh iliqlik sezib uxlab qoldi. Tush ko‘rdi. Osmonda, shundoq boshi ustida kattakon yulduz yonib turganmish. „Kvazar!“ dermish u qichqirib, „kvaza-a-a-r!“ dermish yana qichqirib. Uchaveribdi, uchaveribdi... Pastga qarasa yer xuddi globusga o‘xshab

ko'rinarinish. Okeanlar, Afrika... U bir qarashdayoq Yaponiyani topibdi. Xuddi xaritadaidek. Bitta uzunchoq, uchta kichkina orol. U cho'ntagiga qo'l tiqsa bir chanoq paxta chiqibdi. Paxtani qo'yib yuborgan ekan, xuddi oppoq kapalakdek pirpirab-pirpirab yer tomonga uchib ketibdi. Orol ustida turgan qisiq ko'zli yapon bola chanoqni ilib olibdi-da, unga qarab qo'l siltabdi. Allanima deb qichqirarmish-u, Toshpo'lat uning ovozini eshitmish. Bola esa qo'llarini silkitib quvonch bilan nuqul irg'ishlarmish. „Kvaza-ar!“, dermish Toshpo'lat shodlikdan nafasi qaytib. „Men keldim, kvaza-ar“. Borgan sayin yulduzga yaqinlasharmish. Yonida Soliya ham uchib kelayotganmish. Atlas ko'ylak kiyib olganmish...

* * *

U qancha uxlaganini bilmadi. Bir mahal g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushdan uyg'onib ketdi. Anchagacha qayerdaligini bilolmay garangsib yotdi. Nihoyat, o'zining joyida – „ikkinchi“ qavatda yotganini idrok etdi. Oyog'ining og'rig'i xiyla bosilgan, faqat boshi lo'qillab og'rib turar, terlab ketgan edi. Barak ichi nim qorong'i, derazalar xira oqarib ko'rinar, oqshom tushib qolgan edi. „Chiroqni yoqishmabdi, – deb o'yladi negadir hozir ko'rgan tushini eslab. – Yoqishsa yaxshi bo'lardi“.

Boya qulog'iga chalingan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovush yana eshitildi.

– Hammasi qonuniy hal bo'lgan edi-ku!

Bu – muallimning ovozi edi. Toshpo'latning ko'ngli negadir xijil bo'ldi. Nimaga shunaqa bo'layotganini keyin angladi: muallimning tovushi qandaydir asabiy, hatto alamli chiqdi. Ilgari hech qachon bunaqa ohangda gapirgan emasdi.

– Axir, hammasi qonuniy hal bo'lgan-ku, nimaga yana bunaqa qilishadi? – dedi u battarroq asabiy ovozda.

– Men qayerdan bilay? Rayondan keltirib berishdi.

Toshpo'lat bu ovozni tanidi. Maktab direktori! Qaddini rostlashga urinib, qo'lga tayanganicha boshini ko'tardi. Terlab ketgan badaniga nam, sovuq shamol tegdi.

– Yozib qo‘yibdi-ku, povestkaga: „Shahar sudiga 14-noyabrda yetib kelishi majbur“, deb.

Toshpo‘latning yuragi yomon narsani sezib sirqirab ketdi. Mo‘ralab qaradi. Stol oldidagi harrakda muallim bilan direktor nariyoqqa qarab o‘tirishar, muallimning jingalak sochli boshi, direktorning yirik gavdasi, ayvoni keng shlapasi g‘ira-shira ko‘rinib turardi.

– Bormayman! – muallim alam bilan yog‘och stolni mushtladi. Direktorga yuzlandi. – Tushunsangiz-chi, Mahmud Tursunovich! Men ham odamman! Yomon ko‘rgan, jirkangan kishim bilan turolmayman-ku!

– Hay, men nima qilay axir! – direktor ham ovozi ba-landlatdi. – Povestkani men yozgan emas-ku!

– Bormayman! – muallim qat‘iyat bilan bosh chayqadi. – Menga desa otib tashlasin! Xiyonat qilgan xotin bilan yashamayman!

– Hay, nega otadi! – Direktor uning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. – Bilasiz, zakun xotin tarafni oladi. Bir boring. Hech kim sizni bog‘lab qo‘ymaydi-ku! Sud bilan hazillashib bo‘ladimi? Tag‘in „vtorichno“ deb yozib qo‘yibdi.

Muallim uzoq jimib qoldi. Toshpo‘lat g‘ira-shira qorong‘ilikda uning jingalak sochli boshini changallab stolga muk tushganini ko‘rdi.

– Bolalar-chi? – dedi boshini ko‘tarmay. Ovozi xirillab chiqdi. – Bolalar nima bo‘ladi?

– Bolalar nima? – direktor yupatuvchan ohangda sekin gapirdi. – Har doim terib yurgan paxtasi. Ertaga o‘rningizga matematika o‘qituvchisini yuboramiz. Qaytib kelguningizcha paxtayam...

– Pechka so‘ragandim, – dedi muallim boshini ko‘tarmay. – Sovxoz direktori to‘rtta pechka bermoqchi edi. Tezroq olinglar. Bolalar sovqotib qolyapti.

– O‘zimiz to‘g‘rilaymiz, siz boravering axir...

Toshpo‘lat muallimning og‘ir tebranib o‘rnidan turganini, yig‘ma karavot boshidagi mixga ilig‘liq plashini olib bilagiga

tashlaganini ko'rdi. Plash tagida osig'liq turgan rubobning torlari ingrab yuborganday bo'ldi.

– Ma'lim, – dedi Toshpo'lat ovozi titrab.

Muallim yarq etib shu tomonga qaradi. Direktor ham boshini burdi. Muallim tez-tez yurib Toshpo'latning oldiga keldi.

– Isitmang tushdimi? – dedi peshanasiga kaftini bosib. – Malades! Ertaga mashina keladi. Kasalxonaga olib borishadi. Gaplashdim. Yot, o'ranib yot.

U ildam borib, yig'ma karavot tagiga tiqib qo'yilgan diplomat portfelini sug'urib oldi. Eshik yoniga yetib chiroqni yoqdi. Yotoq ichi yorishib ketdi.

– Ma'lim! – dedi Toshpo'lat yig'lab yubormaslik uchun labini tishlab. – Ma'lim...

Muallim unga qo'l siltab jilmaymoqchi bo'lgan edi, eplolmadi, labi ayanchli burilib ketdi. Toshpo'latning nazarida muallimning ko'zida yosh aylangandek bo'ldi. – Turma, – dedi bo'g'iq ovozd. – Turma, shamollaysan!

Shunday dedi-yu, direktorga ergashib eshikdan chiqib ketdi.

– Ma'lim... – Toshpo'lat butun kuchini to'plab o'rnidan turdi. Tashqarida traktor tarilladi.

– Ma'lim, ketmang! – Toshpo'latning bo'g'zidan titroqli yig'i otilib chiqdi. – Ketmang! Ketma-a-ang!

Ikkinchi „qavatdan“ sakrab tushdi. Paytavasini o'ramoqchi edi, titrayotgan qo'llari yaxshi qovushmadi. Sarpoychan oyog'ini muzdek etikka tiqdi-yu, ko'ylakchan eshikka otildi. Tuman tushgan, qorong'i quyushlab borar, bostirma oldidan jilgan traktor yo'l tomonga burilar edi. Toshpo'lat traktor pri-tsepinig ustiga chiqib olgan muallimni ko'rdi-yu, ostonada papiros tutatib turgan direktorni turtib o'tib yugurdi.

– Ketmang! – Ketmang, ma'lim! Ketma-a-ang! – Rasta bo'lgan hirqiroq ovozin baralla qo'yib yig'lab yubordi.

Direktordan ham, qozon boshida cho'mich ushlab turgan oshpaz kampirdan ham uyalmadi, bu – bolalikning so'nggi yig'isi ekanini idrok ham etmadi.

– Ketma-ang! – dedi nafasi qaytib! – Ma'lim!

Muallim qo‘li bilan traktor pritsepining orqa bortini changallagancha qichqirdi:

– Ichkari kir, shamollaysan!

Traktor qattiq tarillagancha tezlab yurib ketdi. Toshpo‘lat kuchi boricha yugurdi. Yuragi gursullab urar, sovuq havo nafasini bo‘g‘ar, traktor g‘ildiragidan sachrayotgan loy yuz-ko‘ziga urilayotganiga parvo qilmas, hansirab qolgandi. Muallim allanima deb qichqirar, ammo traktorning gurullashidan gapini anglab bo‘lmasdi.

Katta yo‘lga chiqqanda traktor ancha uzoqlashib ketdi. Toshpo‘lat hamon to‘xtamas, harsillab yugurib borar, sirg‘anib-sirg‘anib ketardi.

Yana bir necha qadam yugurib bordi-yu, tiyg‘onib, yuz-tuban yiqildi. Titrayotgan qo‘llariga tayanib, qaddini rostladi.

– Ketma-ang! – dedi ko‘zidan tirqirab chiqqan yoshni loy qo‘llari bilan artib. – Ma‘li-im!

G‘ira-shira qorong‘ilikda paxtadan qaytayotgan bolalar ko‘rindi. Ular ko‘chaning ikki chetiga chiqib traktorga yo‘l berishdi. Keyin pritsep ustida turgan muallimni ko‘rib qolishdi shekilli, hammalari traktor ketidan yugura boshlashdi.

Qorong‘ilik qo‘ynida: „Ma‘lim! Ma‘lim!“ degan nidolar tumanli havoni titratdi.

Toshpo‘latning madori qolmagan, dalaning loy yo‘lida cho‘kkalab qolgan edi. Boshqa tovushlar orasida Soliyaning ham ovozini eshitdi, aniq eshitdi.

– Ma‘li-i-im!

Endi traktor ham, pritsep ham ko‘rinmas, faqat motorning gurullagan tovushi eshutilib turar, muallim bulutlar orasiga, tumanlar orasiga singib borar edi.

BAHOR QAYTMAYDI

Bo'ston qishlog'iga og'ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig'ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo'lib qoldi. Havoda ananas isi aralash yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkiradi. Yoz bo'yi meva tugish dardida yashnagan bog'lar, shodon shovullagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o'ychan, g'amgin bosh egdi. Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to'ldi.

Sumbula tug'di. Qishloqni halqaday o'rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to'lqinlar endi jilovlanib, yuvosh bo'lib qoldi.

Odamlar qilichini ko'tarib kelayotgan qishdan cho'chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chorbog'ida o'tin arraladi, kimdir qo'shnisining tomsuvog'iga hasharga chiqa boshladi.

Hamma yagona bir tashvish – kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo'ldi.

Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi yolg'iz o'z tashvishi bilan band edi.

* * *

U past-baland qoyalar orasidan ot choptirib borayotganmish. Ot yeldek ucharmish, tog'-u toshlar chirpirak bo'lib

orqada qolib ketarmish. Birdan hamma yoqni zulmat qoplabdi. Ot allanimaga qattiq qoqilibdi-da, qop-qorong'i jarlikka munkib ketibdi. U otni bo'ynidan mahkam quchoqlab olgancha shuvullab pastga tushib ketayotganmish-u, yerga hech yetmashmish. Nafasi bo'g'ziga tiqilib, dahshatdan oyoq-qo'llari toshday qotib qolganmish...

– A-a-a!

Alimardon o'z ovozidan o'zi cho'chib uyg'onib ketdi. Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-katta ochgancha shiftga tikilib qoldi. A'zoyi badani o't bo'lib yonar, peshanasini muzdek ter bosgan, bir tutam sochi ter aralash qoshlariga yopishib qogan edi.

U anchagacha behush tikilib yotdi-da, vassajuftlari sarg'ayib ketgan shiftni, tokchadagi lagan-tovoqlarni, burchakdagi shkaf ustida turgan, chaqa solinadigan ganch mushukchani ko'rib sekin uf tortdi. Xayriyat, uyda ekan!

Bir lahzadan keyin ko'z o'ngidagi narsalar tag'in siyrak tumanlik ichida yo'qoldi-yu, yana alahlay boshladi. Zum o'tmay tag'in ko'zini ochdi. Bora-bora fikri tiniqlashib, shiftga tikilib qoldi. Qayerdandir bir qaldirg'och uyga otilib kirdi. Shift tagida aylana-aylana vassajuftdagi uzun mixga kelib qo'ndi. G'amgingina vijirlab qo'ydi. Oq-sarg'ish bo'ynini burib Alimardonga qaradi. Munchoqdek ko'zlarini tikib uzoq qarab turdi-da, yana bir sayrab qanotini yozdi. Lip etib pastga sho'ng'idi, derazaning ochiq tabaqasidan hovliga otildi.

Alimardon ko'rpa ostidan qo'llarini mashaqqat bilan sug'urib oldi. Tirsagiga tayanib, sekin deraza tomonga o'girildi. Terlab yotgan badaniga sovuq shamol tegdi. Bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'tala boshladi. Har yo'talganida nafasi og'ziga tiqilar, ko'z o'ngida xira halqachalar pirpirar, quloqlari shang'illar edi. Nihoyat, sekin-sekin damini rostladi, hovliga tikilgancha bir tekis, chuqur-chuqur nafas ola boshladi.

Ochiq derazadan tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko'rinib turardi. Chekka-chekkadagi azamat yong'oqlar shov-shuv etib, o'tib ketgan bahorini eslaganday jimgina xayolga tol-

gan, o'riklarning qonday qizargan yaproqlari uzilib ketishdan cho'chib titrab turibdi. Yong'oq shoxida zag'izg'on sayradi. Keyin ola qanotlarini yoyib, havoga ko'tarildi-yu, uzun dumini likillatib, etakdagi molxona tomiga borib qo'ndi. Tom ustiga yoyib tashlangan makkajo'xorilarni bir-ikki cho'qigan bo'ldi-da, yana qanotini yoyib havoga ko'tarildi. Devor oshib qo'shni hovliga o'tib ketdi.

Alimardon shu yozda onasi o'lganidan keyin hovlidan fayz ketganini hozir, ayniqsa, chuqur his qildi. Onasi necha yildirki, uni uylantirishni orzu qilar, ammo Alimardon unamas edi. Rost, u ko'p qizlarni ko'rgan, lekin hech biri bilan birga bo'lishni xayoliga ham keltirmagan edi. „Avval konservatoriyani bitirib olay, u yog'i o'zi topilib ketadi“, deb o'ylardi. Alimardon diplom yoqlashidan bir hafta oldin onasi qazo qildi. U orzusiga yetolmadi: kelinining qo'lidan bir piyola choy icha olmadi.

Alimardon yuragining bir burchida uyg'ongan chidab bo'lmas hasratdan entikib qoldi.

– Anvar ham kelmabdi, nomard! – pichirladi u g'ijjini. Alimardon betob bo'lib qolganidan beri goh Anvar, goh onasi har kuni kelib uning holidan xabar olib turishardi. Bugun kelmabdi. „Birovning go'riga birov tusharmidi? Anvarning men bilan nima ishi bor!“ U jahl bilan ko'zlarini chirt yumib, ko'rpani boshiga tortdi.

Yana ko'zi ilinayotgan edi, gurs-gurs qadam tovushi eshitildi. Alimardon ko'rpani ko'tarib qaraguncha, allakim deraza yonidan lip etib eshik tomonga o'tib ketdi.

„Anvar!“ Alimardon eshikning ochilishini kutib burilib qarab yotdi.

Anvar pastak eshikdan boshini egib kirdi-da, qo'lidagi qog'oz xaltani bir chekkaga qo'yib, shimining pochasini qoqa boshladi.

Engashib turgancha boshini ko'tarib qaradi-da, jilmaydi.

– Tuzukmisan?

Alimardon indamadi. Qoshini chimirgancha tikilib yotaverdi.

Anvar har kelganida shunday jilmayib qarar, xuddi shunday past, mehribon ovozda undan hol so‘rar edi.

Hozir Alimardon uning tez yurganini, ko‘ylagining tugmalarini yechib yuborganini, ichidagi maykasi terlab badaniga yopishib qolganini ko‘rdi.

Anvar tufflisining bog‘ichini shosha-pisha yechib, tez-tez yurib uning tepasiga keldi. Karavot yoniga cho‘kkalab, peshanasiga muzdek kaftini qo‘ydi.

– Isitmang yo‘q-ku, – dedi yana jilmayib.

Alimardon uning qo‘lini peshanasidan olib tashladi. „Yolg‘on aytyapti!“

– Yo‘lda o‘lib qoldingmi, degandim.

Anvar do‘stining bo‘g‘iq ovozidan uning xafa bo‘lganini tushundi, ko‘z milklarining cheti tirishib, qizarib ketdi. Uning sal narsaga qizarishi ham, qizlardek tortinchoqligi ham, chiroyli chehrasi ham ko‘pincha Alimardonning jig‘iga tegardi.

– Kech qoldim-a? To‘g‘rimi? – dedi Anvar uzr so‘ragan ohangda.

Keyin begunoh ko‘zlarini Alimardondan uzmay yana o‘sha past, o‘ychan ohangda gapirdi:

– Ishga bordim. Hech ilojini qilolmadim. Birinchi kun...

Alimardon uning o‘ziga emas, shiftning bir chekkasiga qarab so‘radi:

– O‘sha telestudiyagami?

Anvar do‘stining gap boshlaganidan quvonib ketdi.

– Ha. Bilasanmi, muzika redaksiyasiga! – U sevinchdan chehrasi yorishib, o‘rnidan turdi. – Sen sog‘ayishing bilan studiyaga borasan. Hozir u yerdagilar yosh artistlarga juda muhtoj ekan. – U do‘stiga sinchiklab qarab qo‘ydi.

Alimardon miyig‘ida kuldi-yu, indamadi. Ko‘nglida g‘ijinishmi, adovatmi, allaqanday xira bir tuyg‘u uyg‘ondi. O‘zidan oldin Anvarning ish boshlagani, quvonch bilan gapirishi unga yoqmasdi.

Uning o‘zini ham shahardagi muzika maktabiga o‘qituvchi qilib tayinlashgan, ammo hali ish boshlamagan edi.

Anvar do'stini ranjitib qo'yganini payqadi shekilli, indamasdan borib qog'oz xaltani ochdi.

– Uzum yeysanmi? – dedi turgan yerida burilib qarab. Alimardonning javobini ham kutmay hovliga chiqib ketdi. Zum o'tmay to'rt burchak patnida ikki bosh uzum ko'tarib kirdi. Yana karavot oldida cho'kkaladi. – O!, juda shirin ekan...

Alimardon ko'z qiri bilan qarab qo'ydi. Sap-sariq husaynilar tovlanib turar, shudringday suv tomchilari tarang, tekis uzum donalari ustida jilolanar edi.

Anvar ikki dona uzumni uzib oldi.

– Og'zingni och!

Alimardon uzumni karsillatib yer ekan, beixtiyor jilmaydi.

– Shaharda nima gaplar?

– Tinchlik... – Anvar qizlarnikiga o'xshash tim qora ko'zlarini suzib qo'ydi.

Alimardon uning qiziq bir yangilik aytishga og'iz juftlab turganini sezdi.

– Gapiraver! – dedi jilmayib.

Anvar yalt etib unga qaradi.

– Muqaddam shu yerga – Bo'ston guzaridagi do'xtirxonaga hamshira bo'lib kelibdi...

„Ha, shuning uchun og'zi qulog'ida ekan-da!“ Alimardonning ko'nglida yana o'sha chalkash tuyg'u uyg'ondi. Anvar bu qizni yaxshi ko'rishini ko'p gapirar edi. „Bu yog'i ham besh bo'libdi... Qiziq, bir xil odamlarning ishi o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. Meniki-chi?“ Alimardon ichidan xo'rsinib qo'ydi.

– Yaxshi! – dedi xushchaqchaq gapirishga urinib. – Bizni kelinning o'zi davolar ekan-da?

– Aytdim unga... – Anvar bir shingil uzumni unga tutqazdi. – Bugundan boshlab har kuni kelib turadi. – U to'satdan esiga tushgandek so'radi... – Mastava qilib beraymi... Aftingni burishtirma, yaxshilab pishiraman...

Saldan keyin Anvarning oshxonada gursullatib o'tin yorgani eshitildi. Zum o'tmay deraza orqasida Anvarning o'zi ko'rindi. U maykachan bo'lib olgan edi.

– Hamma yoq xazon bo‘lib ketibdi, supurib tashlay, – dedi u derazadan boshini suqib. – Keyin molxona eshigi tagida yotgan uzun supurgini oldi-da, xuddi chalg‘ida o‘t o‘rayotganday qulochkashlab supura ketdi.

Yirik-yirik yong‘oq xazonlari qizg‘ish o‘rik yaproqlariga qo‘shilib, *supurgiga ergashgancha havoda ojizgina pirpirab* uchib, ancha nariga borib tushar, hovlining oppoq sathi yo‘lakday ochilib qolar edi. Anvar supurgini g‘ayrat bilan qattiq-qattiq silkitar, ammo zum o‘tmay supurilgan yerga yana xazonlar kelib qo‘nar, xunobi oshib tag‘in orqaga qaytar edi.

Alimardon yaproqlarning pirpirab uchishini tomosha qila-qila pinakka ketdi...

* * *

Oshxona ichi tutunga to‘lib ketgan edi. O‘tin o‘chakishganday yonmas, hadeb tutar edi. Anvar cho‘nqayib olgancha bor kuchi bilan puflayverib tomoqlari achishib ketdi. Bo‘g‘ilib yo‘tala boshladi. Endi toqati toq bo‘lganida o‘tin lov etib yonib ketdi.

Anvar tutundan bo‘g‘ilib tashariga otildi. Ko‘zlarini uzoq ishqaladi. Qo‘lini tushirdi-yu, ko‘cha eshik oldida o‘ziga qarab turgan Muqaddamni ko‘rib xijolatdan yuzlari lovullab ketdi. Muqaddam qizil ko‘ylak kiyib olgan, qo‘lidagi yaltiroq sterilizatorni silkitgancha hadeb kulardi.

Anvar jilmaygancha yugurib uning oldiga bordi.

– Keldingizmi? Qandoq topdingiz?

– Hamma yog‘ingiz qorakuya bo‘lib ketibdi-ku! – Muqaddam erka tabassum bilan unga qarab qo‘ydi. – Qandoq kiraman, deb cho‘chib turgan edim... Yaxshiyam o‘zingiz bor ekansiz!

...Muqaddam Anvarga boshdan oyoq qarab chiqdi. Shu tobda uning chang aralash is tekkan qosh-kipriklari, maykanchan bo‘lib olib, xijolatdan qizarib turishi ham kulgili, ham zavqli edi. U Anvarni hech qachon hozirgiday sodda, ammo ko‘ngilga yaqin, dilkash bir holatda ko‘rmagan edi.

– Oshpazlikni ham bilasizmi? – dedi u Anvarning qorayib qolgan peshanasiga qarab.

Anvar soddagina jilmayib qo'ydi-yu, Alimardon yotgan uyga imo qildi.

– Kiraylik.

Ketma-ket uyga kirishdi. Devor oldidagi karavot yoniga Anvar birinchi bo'lib bordi. Ko'rpani ko'tarib qaradi-yu, Muqaddamga o'girilib shivirladi:

– Uxlab qolibdi-ku...

Muqaddam oyoq uchida yurib kelib, bemorning ustiga egildi.

Rangi biroz siniqqan, ammo ko'rkam chehrasida qat'iyat balqib turgan yigit ko'zlarini chirt yumib uxlab yotardi. Muqaddam bir qarashdayoq uning chimirilgan qoshlarida, mahkam yumilgan yupqa lablarida, kulgichi chuqur botib kirgan iyagida mag'rur bir ifoda borligini payqadi. Negadir qip-qizarib ketdi. O'zining holatidan o'zi iymanib, gunoh qilib qo'ygan odamdek Anvarga qaradi. Anvarning tikilganini ko'rib battar qizardi.

– Uyg'otasizmi? – dedi sekingina.

Anvar yalang'och yelkalarini qisdi.

– O'zingiz bilasiz...

Muqaddam bir lahza o'ylanib qoldi.

– Mayli, – dedi pichirlab. – Bezovta qilmay qo'ya qolaylik. Sterilizatorni tashlab ketaman. Ertaga ertalab kela qolaman.

Anvar bu safar ham yelkasini qisdi.

– Mayli...

Muqaddam eshik oldiga borganida yana bir marta o'girilib qaradi. Tokchalardagi choynak-piyolalarga, shkaf ustidagi ganch mushukchaga, taxmondagi ko'rpachalarga bir-bir nazar tashladi-yu, tag'in karavotga tikilib qoldi. Bemor hamon qoshini chimirgancha qimir etmay yotar, chehrasida o'sha qat'iyat bor edi.

– Bronxit ekanmi? – dedi Anvarga qarab. Anvar bir qo'lini baland ko'tarib eshik kesakisidan ushlagancha goh Alimardonga, goh Muqaddamga qarab turar edi.

– Bolaligidan shunaqa, – dedi Anvar achinish to‘la past ohangda. – Sal shamollasa o‘pkasi qisadi. Qaysi kuni anhorda cho‘milib, tag‘in shamollab qolibdi. O‘jar-da, o‘jar. Kasalxonaga bormadi. – U bir nafas jim qoldi-da, yana Alimardon tomonga qaradi. – Hali bilmaysiz... Juda ajoyib yigit. Shunaqa ovozi borki, shunaqa yaxshi ashula aytadiki...

– Eshitdim... Doktor aytgan edi. – Muqaddam Anvarga qarab jilmaydi. – Ketaveraymi?

Anvar uning ko‘zlaridan o‘ziga qadrton bo‘lib qolgan iliq mehri sezdi-yu, quvonib ketdi.

– Ovqat pishsin... Kuzatib qo‘yaman.

* * *

Ular anhor yoqasidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan izma-iz borishardi. Muqaddam oldinda ketar. Anvar uch qadamcha orqada undan ko‘z uzmay borardi. Yo‘l kimsasiz bo‘lgani uchun Muqaddam tufisini yechib, barmoqlariga ilib olgan, yalang oyoqlari ostidan ko‘tarilgan chang yo‘l chekkasidagi sarg‘aya boshlagan o‘tlar ustiga cho‘kar, etagining shamolidan silkingan g‘umaylar ohista bosh silkib qolardi. U chor-atrofni tomosha qilib borar, Anvar uning chehrasini ko‘rmasa ham quvonchdan jilmayayotganini, hayajonlanayotganini sezib turardi.

Qishloq ustida kuzning atlas libosi lovullab yonadi, ufqqa tutashib ketgan polizlar, tokzorlar goh qizg‘ish, goh qahrabo rangda tovlanadi. Olisda, osmonning yer bilan tutashgan joyida olovli bir hovur ichida quyosh botib borardi. Qayerdadir buzoqlar ma‘raydi, guzar tomondan maktab bolalarining qiychuv tovushlari eshitiladi.

So‘qmoq birdan o‘ngga burildi-yu, pastga anhor ustiga sho‘ng‘ib ketdi. Muqaddam to‘xtab qoldi. „Endi qayoqqa boramiz?“ deganday Anvarga qayrilib qaradi.

– Yakkacho‘pdan o‘tamiz... – Anvar Muqaddamni chetlab o‘tdi-da, tik so‘qmoqdan pastga yugurib tushib, qirg‘oqdagi tolning g‘adir-budur, yo‘g‘on gavdasini qo‘li bilan

ushlab qoldi. Anhor sohilida erkaklab ketgan baland-baland yalpizlar yashnab yotar, qirg'oqdagi ikki tup azim tol atrofga oqshom soyasini tashlagan edi. Anvar burilib qaradi-yu, terak bo'yi balandlikda o'ziga qarab jilmayib turgan Muqaddamni ko'rdi. Yuqorida hali quyosh nuri so'nmagani uchun Muqaddamning qizil ko'ylagi oftobda yaraqlar, go'yo uning o'zi ham alanga og'ushida yonayotgandek edi.

U qo'llarini havoda keng yozdi-da, bolalarcha shodon ohangda qichqirdi:

– Ushlang, Anvar aka!

Anvar hushini yig'ib olguncha u chopqillab tusha boshladi. Anvarning yuragi gupullab urib yetdi. U Muqaddamning hozir bag'riga kelib urilishini bilib turar, ammo quchoqlab olishini ham, qo'lidan tutib qolishini ham bilolmay ikkilanardi. Anvar hushini to'plab bo'lguncha Muqaddam shiddat bilan yetib keldi. Anvar birdan o'zini chetga oldi-da, uning bilagidan mahkam tutib qoldi. Muqaddam keskin burilganicha uning ko'ksiga urildi. U negadir ko'zlarini yumganicha hadeb kular, Anvar esa hayajondan nafasi tiqilib, nima qilishini bilmay qolgan edi. Muqaddam unga hech qachon shunchalik yaqin turmagan, uning sochlari hech qachon Anvarning yuziga tegmagan edi. Anvar hayajondan bo'g'ilib qolgan, o'zi ham ma'nosini tushunib yetmagan allanimadan uyalar edi.

Muqaddam qo'lini tortib oldi-da, qoshlarini chimirib jilmaydi.

– Yomonsiz-a...

Anvar yana negadir o'zidan o'zi uyalib, ko'zlarini olib qochdi.

Muqaddam tuflisini yalpizlar ustiga tashlab, anhorga oyog'ini osiltirib o'tirdi. Anvar tikka turaverishini ham, uning yoniga o'tirishini ham bilmasdi. Muqaddam yelkasi osha burilib qaradi. Xuddi uning ko'nglidagini bilib turganday so'radi:

– O'tirmaysizmi?

Anvar uning yoniga o'tirdi. Suvdan salqin, zax havo gurkirar, narigi sohildagi tik qirg'oq, ikki tol o'rtasidan cho'zilib

ketgan ingichka yakkacho'pning soyasi suv yuzida lopillar, anhor tip-tiniq bo'lgani uchun suv tagidagi tol xazonlari aniq ko'rinib turar edi.

Muqaddam Anvarga bir qarab qo'ydi-da, engashib, hovuchlab suv olganча oyog'ini yuva boshladi. Anvarning yuragi boyagidan ham qattiqroq gupullab urib ketdi. Quloqlarigacha lovullab yuzini o'girdi.

– Bu yerda cho'milsa bo'ladimi?

Anvar hayron bo'lib qaradi. Muqaddam unga qaramasdan ikkinchi oyog'ini yuvar edi. Anvar muzdek suvni his qilib, eti junjikib ketdi.

– Sovuq-ku hozir...

– Sovuqmas paytda-chi?

– Bo'ladi. – Anvar suv tagida silkinib turgan xazonlardan ko'z uzmay jilmaydi. – Bu yerda ko'p cho'milganman... Bolaligim shu yerda o'tgan...

Ikkovlari ham jimib qolishdi.

Anhor yuzi sekin-sekin qoraya boshladi. Qayerdadir chigirtka chirilladi. Anhor bir shovullab, yana jimib qoldi. Anvar Muqaddamga burilib qaradi. U tizzalarini quchoqlab olganча narigi sohilga tikilib o'tirar, Anvar uning nimalarni o'ylayotganini bilmasa ham chuqur xayolga tolganini his etdi. Muqaddam uning qarab o'tirganini sezdi shekilli, sekin so'radi:

– Alimardon bilan birga o'sganmisizlar?

Anvar o'sha beg'ubor xotiralarni eslab jilmaydi.

– Ikkalamiz shu yerlarda sigir boqardik, – u birdan kulib yubordi, – Alimardon o'shanda ham shayton edi... Bir marta anhorning narigi betidagi Sobir cho'loqning poliziga qovun o'g'irlikka tushganimizda meni rosa do'pposlatgan... Men chayla yaqiniga borib Sobir cho'loqni poylab turdim. Agar uyg'onib qolsa hushtak chalishim kerak edi. Alimardon ham qovunni olib chiqqanidan keyin hushtak chalib meni chaqirmoqchi edi. – Anvar Muqaddamga qarab kulib qo'ydi. – Hali o'tiribman, hali o'tiribman Alimardonning hushtagidan darak yo'q. Bir mahal birov yelkamdan mahkam ushlab, tarsaki

qo'yib yuborsa bo'ladimi. Sobir cho'loqning uyg'onganini bilmay qolibman... Uyga kelsam, Alimardon allaqachon qovunga to'yib, uxlab yotibdi. Ishini bitirib, indamay ketavergan ekan.

Muqaddam yelkalarini silkitib qah-qah urib kuldi.

– Siz o'shanda ham bo'shgina ekansiz-da...

Anvar yuvosh jilmaydi.

– Kim bilsin...

Asta-sekin oqshom qo'na boshladi. Tol shoxlari soyaday qorayib qoldi. Shabada turdi. Yaproqlar duv to'kilib, suv yuziga chipillab tusha boshladi.

– Dadam o'lganidan keyin biz shahar hovliga ko'chib ketdik, – dedi Anvar o'ychan ovozda. – Shunda ham men o'ninchini bitirguncha Bo'stondan ketmadim. Maktabni bitirayotganda odam boshqacha bo'ladi-ku... Men shoirlikni orzu qilgandim.

– Shoir bo'lolmadingiz! – Muqaddam kulgi to'la ovozda uning gapini kesdi. Keyin yupatdi: – Mayli, jurnalist bo'ldingiz-ku!

– Kim bilsin hali... Ishni endi boshladik-ku! –

U yana do'stini esladi.

– Alimardon konservatoriyani yaxshi bitirdi. Ko'rasiz, undan yaxshi bastakor, yaxshi artist chiqadi...

Ikkovlari tag'in jimib qolishdi. Muqaddam bemalol o'tirar, ketgisi kelmayotganga o'xshar edi. Anvar kech bo'lib ketayotganini ko'rib iymanar, bu yo'l kamqatnov bo'lsa ham birov o'tib qolishidan, „Bu yerda nima qilib o'tiribsanlar?“ deyishidan istihola qilardi. Atrofni g'ira-shira qorong'ilik o'radi. Suv yuziga ilk yulduzlar sho'ng'idi.

– Ketamizmi? – dedi Anvar o'rnidan turib. – Qarang, qorong'i tushib ketdi.

U Muqaddamni qo'lidan ushlab, lopillab turgan yakka-cho'pdan ehtiyot bilan olib o'tdi.

– Katta anhor ekan... – Muqaddam qirg'oqqa chiqib yengil nafas oldi. – Oti nima?

– Qonqus... – dedi Anvar yo'l boshlar ekan.

Muqaddam taqqa to'xtab qoldi.

– Qonqus?!

Anvar uning orqada qolib ketganini ovozidan payqadiyu, o‘girilib qaradi. Muqaddam besh-olti qadam orqada turar, qorong‘ilikda gavdasi elas-elas ko‘rinardi.

Anvar qaytib kelib shivirladi:

– Yuring! – Bir necha qadam bosgandan keyin tushuntirdi. – Eski nom-da...

Muqaddam oppoq so‘qmoqdan avaylab qadam tashlab borarkan, yana so‘radi:

– Nega unaqa?

– Har xil gaplar bor, – Anvar unga qarab qo‘ydi. – Bittasi menga ayniqsa yoqadi... Bir vaqtlari bu yerdan katta daryo o‘tgan, deyishadi. Daryo bo‘yida shahar bor ekan... Bir kuni shaharga dushman hujum qilib qolibdi. Shahar odamlari daryoning ko‘prigini buzib tashlashibdi... – U yana Muqaddamga burilib qaradi. – Daryoning kechuv joyi bor ekan-u, uni shu shahardagi ikki yigitdan boshqa hech kim bilmas ekan. Ikkala do‘st bitta qizni yaxshi ko‘rishar ekan.

Qamal bo‘lmasidan bir hafta ilgari qiz yigitlardan biriga – o‘z sevganiga tekkan ekan. Ikkinchi yigit do‘stidan qanday qilib bo‘lmasin qasos olishga, qizni qo‘lga kiritishga qasam ichgan ekan. Dushman shaharni o‘rab olishi bilan o‘sha yigit xoinlik qilibdi. Daryodan suzib o‘tib, dushman sarkardasiga sirni aytibdi: „Agar sen raqibimni o‘ldirib, sevgilimni menga topshirishga va‘da bersang, yo‘lni ko‘rasataman“, debdi. Sarkarda rozi bo‘libdi. Dushmanlar kechuvdan o‘tib, shaharni bosib olishibdi. Qizning sevgilisi urushda o‘libdi. Sarkarda xoinni chaqirib, may tutibdi. „Xizmat haqingni ol“, debdi. Xoin may ichib, oxirgi tilagini aytibdi: „Men sening buyrug‘ingni bajardim. Endi sen ham mening shartimni bajar. Odamlaringga ayt, sevgilimni olib kelishsin“. Sarkarda kulib yuboribdi. „Sevgilingni ko‘rish senga nasib qilmaydi, hozir ichganing may emas, zahar! O‘z do‘stiga xiyonat qilgan odam menga do‘st bo‘lolmaydi. Sen qon qusib o‘lasan!“ debdi. Xoin chindan ham qon qusib o‘libdi.

Anvar jimib qoldi. Uning qadam tovushlari so'qmoq ustida tekis gursullay boshladi.

– Qiz-chi, qiz nima bo'пти?

Anvar Muqaddamning ovozi eshitib burilib qaradi-yu, uning vahimada katta-katta ochilib turgan ko'zlarini qorong'ilikda aniq ko'rdi.

– Sevgilisining o'lganini eshitgan zamoni o'zini daryoga tashlagan ekan.

Muqaddam qo'rquv to'la ko'zlarini terak bo'yi pastlikda jimgina oqayotgan anhorning qop-qora suvlariga tikdi.

– Tezroq yuraylik...

– Mayli. Men ham tezroq qaytishim kerak... Alimardon xunob bo'lib o'tirgandir.

* * *

Alimardon uyg'ondi-yu, o'zidan bir necha qadam narida turgan qizni ko'rdi. Qiz boshyalang, sochlari turmaklangan, oppoq xalat kiygan edi. U katak-katak dasturxon yopilgan stol ustida biqirlab qaynayotgan yaltiroq sterilizatoridan pinset bilan ignalarni avaylab olar, sovutish uchun bo'lsa kerak, bir chekkaga qo'yar edi. Qiz yonlamasi turgani uchun Alimardon uning chehrasini yaxshi ko'rolmas, ammo derazadan yog'ilayotgan tong nurida qirra burni, silliq, xushbichim yuzining bir tomoni, mayin tukli lablari aniq ko'rinardi.

„Muqaddam, – deb o'yladi u qizdan ko'z uzmay. – Anvarning kuyib yurganicha bor ekan“.

U ko'p qizlarni ko'rgan, ammo bunaqa jozibador qizni uchratmagandi. Yuragi gupullab ura boshlaganini sezib, boshini ko'tardi. Qiz karavot g'ichirlaganini eshitib, burildi.

– Uyg'ondingizmi? – Qiz jilmayganida uzun, qayrilma kipriklari tutashib yana ham chiroyli bo'lib ketdi.

„Farishtaday ekan...“ Alimardon ham beixtiyor jilmaydi.

– Siz Muqaddamxonsiz-a? – u yana nimadir deyish kerakligini o'ylab so'radi. – Anvar ketdimi?

– Men kelsam, ketgan ekanlar, – dedi Muqaddam yana shprislarıni olib. – Ishga ketgan bo‘lsalar kerak...

„Kelganıga ancha bo‘lgan ekan-da...“ Alimardon nıma uchun quvonayotganıni o‘zi bılmasa ham qızdan ko‘z uzolmay qoldı.

Muqaddam flakondagi dorıni shprisga tortıb oldı-da ignasını yuqori ko‘tardı. İgna uchıdan tızıllab dorı otıldı.

– Bılagıngızıni chıqarıng... – dedi u Alımardonga qaramay. Alımardon unıng uyalayotganıni sezıb turardı.

– Qo‘rqaman-da, – u ataylab ko‘rpaga burkanıb oldı. Ko‘rpa tagıdan mo‘ralab qaradı-yu, Muqaddamning qızarıb ketganıni, o‘zıni jıddıy tutıshga urınayotganıni payqadı.

– Bo‘lıng! – Muqaddam hamon igna uchıdan otılayotgan dorıdan ko‘z uzmay, quruqqına buyurdı. – Chang qo‘nsa, shprislarıni boshqatdan qaynatıshga to‘g‘rı keladı.

Alımardon hamon undan ko‘z uzmay, ko‘ylagıning yengıni shımardı.

– O‘lıb qolsam, o‘zingız javob berasız!

U ukolning og‘rıg‘ını sezmadı ham. Tepasıda engashıb turgan Muqaddamga tıkilıb yotaverdı.

Muqaddam avaylab dorı yuborar, qo‘lları bılinar-bılınmas tıtrar, Alımardonning emas, o‘zıning joni og‘rıyotganday labıning bı burchını qımtıb turardı. Alımardon unıng oppoq yuzıdan ko‘z uzolmas, xalatıning ochıq yoqasıdan ko‘rınayotgan bo‘ynıdagi xoli ham, qunduzday qoshları ham yuragını o‘rtar edı.

– Mana, bo‘ldı. – Muqaddam igna o‘rını spırtlı paxta bılan artıb jılmaydı. – Shunga qo‘rqıb o‘tırebsız...

U sekin-sekın stol oldıga yurıb bordı-da, ignanı chıqarıb sterilızator qopqog‘ıga tashladı.

Alımardon unıng har bı harakatınıdıqqat bılan kuzatar, mıyası g‘uvullab ketgan, chalkash tuyg‘ular ıchıda to‘lqınlanar edı.

Muqaddam anjomlarını yıg‘ıshtırıb bo‘lgunıcha u bı qarorga keldı-yu, chaqırdı:

– Nima qilib qo'ydingiz... – dedi hayajondan ovozi titrab. – Hamma yog'im olov bo'lib yonib ketyapti-ku!

– Nima? – Muqaddam cho'chib o'girildi. Uning chehrasida qo'rquv bor edi.

– Ishonmasangiz peshanamni ushlab ko'ring!

Muqaddam shoshilib kelib uning peshanasiga kaftini bosdi. U endi gapirishga og'iz juftlagan edi, Alimardon bo'ynidan mahkam quchdi-yu, siltab pastga tortdi, lablaridan, yuzidan o'pa boshladi.

Muqaddam bir lahza gangib qoldi. U o'zini yo'qotib qo'ygan, Alimardonning og'ushida talpinar, ammo chiqib ketolmas edi. Qiziq, shuncha oylardan beri Anvardan kutib yurgan keskin harakatlarni Alimardon qilar, bu ayyor yigitni urib yuborishini ham, indamasligini ham bilmasdi. Ammo Anvarni eslashi bilan siltanib qaddini rosladi-da, Alimardonning yuziga tarsaki tushirdi.

– Uyatsiz! – U ko'z o'ngini to'sgan yosh pardasidan hech nimani ko'rolmay, tasmollab stol yoniga bordi.

Shosha-pisha sterilizatorni yig'ishtirayotganida orqa tomondan Alimardonning bo'g'iq ovozi keldi.

– Kechiring...

Muqaddam yoshli ko'zlari bilan unga qaradi.

Alimardon karavotda ma'yus bosh egib o'tirardi.

– Kechiring, Muqaddam, – dedi u bo'g'iq ohangda. Keyin unga tik qarab turib ta'kidladi: – Meni, ifloslik qilyapti, demang. Siz baribir meniki bo'lasiz!

Muqaddam ko'ksini toshirib yuborayotgan yig'idan bo'g'ilib, tashqariga otildi.

Ko'cha eshik g'iyqillab ochilib yopilganidan keyin, Alimardon o'zini yostiqqa tashladi. Vijdonining tub-tubida yengil bir azob uyg'ondi.

„Yaxshi bo'lmadi... – U shiftga bir lahza tikilib yotdi-da, o'ziga tasalli berdi. – Nima bo'пти?! Qizlar ham mard yigitlarni yaxshi ko'radi. O'sha lattadan kam joyim bormi?!“

...Shu kuni tushda Iqbol xola osh olib kelganda Alimardon u bilan sovuqqina salomlashdi. Anvarni so'ramadi ham...

* * *

Muqaddam Anvar akasi bilan nurli ko'chadan borardi. Salqin sezilib qolgan, oldi odamlar yomg'irpo'sh kiyib olishgan edi. Kattakon shahar seryulduz kuz osmoni tagida chiroqlarini yashnatib yotar, yo'lkalar u yoqdan bu yoqqa shoshilib o'tayotgan kishilar bilan gavjum edi. Odamlar yotish oldidan shahar kezishadi, chekka-chekkalardagi gazsuv do'konlari oldida navbat kutib to'dalanib turishadi. Choratrof sayilchilarning g'ovur-g'uvuri, tramvay-trolleybuslarning shovqini bilan to'lib-toshgan.

Ular yo'lovchilar daryosiga qo'shilib jimgina borishardi. Simyog'ochlar tagida o'z soyalariga yetib olishar, uch-to'rt qadam yurishlari bilan soya yana oldinga o'tib ketar, kelgusi simyog'ochga yaqinlashgan sayin orqaga chekinar edi.

Mehmonxona yonidagi yerosti yo'lidan o'tib, gulzor maydonga chiqishdi. Eng chekkadagi skameykaga borib o'tirishdi. Bu yerda hamma narsa – baland-baland binolar pesh-toqidagi afishalar ham, shovullab otilayotgan favvora ham, skameykalar ham kamalak nurida tovlanadi. Mehmonxonaning yettinchi qavatidagi restorandan orkestr sadosi, mastona qiyqiriqlar eshitiladi. Toshkent o'zining tashvishi-yu quvonchi, nurlari-yu zulmati bilan yashaydi.

Muqaddam zimdan Anvarga qarab qo'ydi. U favvoradan ko'z uzmay o'tirar, chehrasi suv ichida aylanayotgan nurlar aksida goh qizarib, goh ko'karib ko'rinardi.

– Alimardonni ko'rib turibsizmi?

Muqaddamning yuragi zirqirab ketdi. Anvarning o'ziga qaramay gapirganidan shubhaga tushib, ikkilanib qoldi: „Sezibdi! Aytaymi, yo'qmi?“ U yana bir lahza ikkilanib turdi-da, ichki bir ishonch bilan o'ziga dalda berdi: „Bilsa nima!“

– Ha borib turibman... – U shunday dedi-yu, ikki yuzining lovullab ketganini sezib, tilini tishlab qoldi.

Anvar o'girilib qaradi. Uning ko'zlarida yuvosh tabassum bor edi.

– Tuzukmi?

– Yaxshi... – Muqaddam yelkalarini uchirib qo'ydi. – O'zingiz bormadingizmi hech?

– Ish ko'payib ketdi, – dedi Anvar charchoq ohangida, – ertadan kechgacha yugur-yugur... Hali bastakor bilan uchrash, hali she'rlarni muhokama qil... Televizorni ko'ra-verarkanmiz-u, tomoshalarni tayyorlash qanchalik mashaqqatli bo'lishini bilmas ekanmiz.

Muqaddam uning sidqidildan gapirayotganini payqadi.

Yo'q, Anvar quvlik-shumliki bilmaydi!

U Anvaring o'ychan ko'zlariga qarab, ohista xo'rsindi. O'sha kundan beri o'zining ko'nglida uyg'ongan muammoga javob topgandek bo'ldi. „O'zimning Anvar akam yaxshi!“ U xayolida shunday dedi-yu, ammo ko'nglining bir chekkasini ayovsiz kemirayotgan chidab bo'lmas bir kuch tag'in junbushga keldi. Muqaddam bu muammoning nima ekanligini tushunib yetolmas, ammo bir narsa aniq edi: u Alimardonning nimasidir Anvardan ustunroq, kuchliroq ekanini his etar edi. Ko'pdan buyon Anvarning allanimasi o'ziga yoqmay kelayotganini payqagan, lekin bu narsa nima ekanini aniq bilmas edi. Alimardonni uchratganidan keyin bildi. Anvar bo'shang ekan, latta ekan!

– Ketamizmi?

Muqaddam uning yuvosh ovozini eshitdi-yu, nima deganini payqamay savolomuz qarab qo'ydi.

– Kech bo'lib ketdi, – dedi Anvar noqulay jilmayib. – Uyingizdagilar xavotir olishadi.

Ular tor ko'cha boshidagi kattakon xarsangtosh oldida xayrlashdilar. Kun bo'yi tosh ustida pista sotib o'tiradigan xotin allaqachon uyiga ketgan, chor-atrofdagi pista po'choqlari sochilib yotardi.

Anvar xayrlashib qo'l cho'zarkan, Muqaddamning ko'nglidagi boyagi xijillik yo'qoldi. Xayolida yana o'sha yupanchli, tiniq fikr uyg'ondi: „Yo'q, o'zimning Anvar akam yaxshi!“ Muqaddam uning qo'lini uzoq qisib turdi-da, ishonch to'la ko'zlariga qaragancha xo'rsinib qo'ydi.

Ko'cha ichkarisidan allakimning qadam tovushlari eshiltildi. Anvar darrov qo'lini tortib oldi.

– Xayr...

Muqaddam shartta burildi-da, qorong'i ko'cha ichiga sho'ng'ib ketdi.

Ajab, qiz bolaning qalbi lovullab yonsa-yu, yigit kishi ha-deb bo'shaversa...

Anvar Muqaddamning nimadandir ko'ngli cho'kkanini sezdi shekilli, ketidan gapirib qoldi:

– Alimardondan xabar olib turing...

Muqaddam eshitsu ham indamay ketaverdi. Anvarning qu-loqlari ostida keskin, asabiy poshna sadolari uzoq vaqt qar-sillab turdi. Bora-bora qadam tovushlari susayib, tinchib qoldi.

* * *

Muqaddam ambulatoriyaga kirib kelganida anchagina odam to'planib qolgan edi. U biri bolasini ovutayotgan, biri tinimsiz yo'talayotgan bemorlar orasidan o'tib, yo'lak oxiridagi eshikni ochdi. To'rdagi stol qarshisida sochlari oqargan doktor o'tirardi. Muqaddam ishga kelgan birinchi kuni-yoq bu ayol qishloqda „Huri do'xtir“ deb tanilib ketganini, odamlar uni qattiq hurmat qilishini eshitgandi. Uning o'zi ham bu ayolning onalarday mehribon muomalasini yaxshi ko'rib qolgandi.

– Men keldim, opa... – dedi u ichkari kirib.

Doktor yozayotgan kasallik varaqasidan bosh ko'tarib, jilmaydi. Tashqarida yomg'ir yog'ayotgani uchun chiroq yoqib qo'yilgan, stol ustidagi shisha bankaga solingan termometrlar yaltirab ko'rinardi.

– Bugun yana xonadonlarga qatnaysiz, – dedi doktor.

„Yana Alimardonning uyiga boramanmi?“ deb o'yladi Muqaddam. O'sha kungi voqeani, kecha Anvar akasi bilan sovuq xayrlashganini esladi-yu, choyshab to'shalgan divan-ning bir chekkasiga bo'shashibgina o'tirdi.

– Boshqa odam borsa bo'lmaydimi? – dedi u choyshabni g'ijimlab. Huri opa o'ziga sinchiklab qarab turganini his etsa ham boshini ko'tarmay o'tiraverdi.

– Kim boradi?

Muqaddam ko'z qiri bilan qaradi-yu, doktorning ko'zlaridan ajablanayotganini payqadi.

– Xadicha opangiz borolmaydi-da, – dedi doktor xotirjam ohangda.

Muqaddam o'zining lov etib qizarib ketganini sezdi. U ishga kelgan kundan Xadicha ta'tilga chiqishi kerak edi. Ammo Muqaddam hali tajribasiz bo'lgani uchun og'iroyoqligiga qaramay, u hamon qatnab turar, ish o'rgatardi.

Muqaddam stol ustidagi shisha bankaga, tashqarida dera-zaga ohista urilayotgan yomg'ir tomchilariga jur'atsiz qarab qo'ydi-da, shivirladi:

– Uyalaman...

Doktor shu qadar beg'araz qah-qah urib yubordiki, Muqaddam beixtiyor boshini ko'tarib qaradi.

Doktor kula-kula xalatining yengi bilan ko'zlarini artdi.

– Texnikumda Ibn Sinoning gapini aytishmaganmidi? Bemordan seskangan tabib – tabib emas. Siz birovga ona, birovga opa, birovga singil bo'lishingiz kerak.

„U-chi, – deb o'yladi Muqaddam. – U shundoqligini bilarmikan?“ Alimardonning chiroyli chehrasi, chimirilgan qoshlari ko'z o'ngiga keldi-yu, ham qo'rqinchli, ham allanechuk erkaloovchi tuyg'ular ichida ikkilanib o'rnidan turdi. Eshik oldiga yetganida negadir o'zining ham o'sha yoqqa talpinayotganini sezib, hayajon ichida tutqichni ushladi.

– Ayting, navbatdagi odam kirsin, – deb qoldi doktor uning ketidan.

...Yomg'ir hamma yoqni ezib yuborgan edi. Qishloq jim qolgan, paxsa devorlar zax bosib ketgan, hali ko'milmagan toklar egri-bugri qizg'ish gavdasini yashirolmay, iymanganday osilib yotardi. Chor-atrofdagi yomg'ir aralash namiqqan xazon hidi gurkirardi.

Muqaddam o'sha tanish, pastak eshik tagiga yetganidan keyingina tez yurganini, yuragi allaqanday qarama-qarshi tuyg'ularga to'lib-toshganini payqab qoldi. Eshikni qiya ochib, hovliga kirdi-da, yerda yotgan bir qarich yong'oq cho'pini olib, tuffisiga yopishgan loyni sidirib tushirdi.

Hovlidagi narsalar deyarli o'zgarmabdi. Faqat yong'oqlar yap-yalang'och bo'lib qolibdi. Shoxlarining uch-uchidagi bitta-yarimta yaproqlar yomg'irdan ivigan tanini ko'tarolmay ojiz silkinadi. Molxona tomidagi makkajo'xorilar yig'ib olinibdi, qamish bo'g'otdan sizib tushayotgan yirik-yirik tomchilar ora-chora yaraqlaydi.

U devor tagidagi quruq yo'lkadan uch-to'rt qadam yurib, to'xtab qoldi. Ichkaridan rubob ovozi eshitildi. Avvaliga hissiz, erinchoq ting'illab turdi-yu, keyin birdan jo'shqin sadolarda jaranglab ketdi. Muqaddam bir nafas quloq solib, bu kuyni avval hech qayerda eshitmaganini sezdi. Ha, bu kuy yangi kuy edi. Unda endigina yerdan bosh ko'targan boychechaklarning nozik shivirlashi ham, tantanavor bahor shalolalari ham, quyoshday tiniq tuyg'ular ham bor edi.

Muqaddam beixtiyor jilmaydi. „O'zi chalyapti“. U kuy og'ushida erkalanib yana uch-to'rt qadam yurdi. Endi deraza yoniga yetganida kuyga xuddi torlarning o'ziday tiniq bir ovoz qo'shildi. U qo'shiqning birinchi satrlarini yaxshi anglab ololmadi-yu, keyin aniq eshita boshladi:

*Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar ketmoqdaman.
Na ishonch-u, na quvonch-u, na ko'ngildan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo'qdir samar, ketmoqdaman!*

Ovoz shu qadar tiniq, dilrabo ediki, Muqaddam hayajondan entikib ketganini sezdi. Qo'shiq uni allalar, shirin tuyg'ularga g'arq etardi. U yoqasidan muzdek suv quyulib kirayotganini anchadan keyin sezdi. Bo'g'otdan bir qulochcha chiqarib qo'yilgan tarnov tagida to'xtab qolganini bilib,

deraza oldiga yaqinroq bordi. Ichkari qorong'iroq bo'lgani uchun Alimardonning yuzini aniq ko'rolmasa ham, uning karavot yonida tik turgancha rubob chalayotganini ko'rdi. U o'z kuyidan o'zi mast edi, deraza tomonga qayrilib ham qaramasdi.

*Men quyosh yuzlinga deb tun kechalar berdim yurak,
Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.
Shuncha kunlar o'tdi, ammo so'rmading holimni bir,
Oxirida hol so'rab kelsang magar, ketmoqdaman.*

Muqaddam to'xtab qololmadi. Tez-tez yurdi-da, yo'lakdan o'tib, eshikni ochdi. Alimardon uni ko'rib, bir lahza to'xtadi. Lekin zum o'tmay yana rubob jarangladi. U qo'shiqning oxirgi baytini Muqaddamdan ko'z uzmay aytdi:

*Kelganingda dedilarki, bu yigit koni zarar,
Ketmagimdan oxir, ayt, bormi zarar, ketmoqdaman?*

U negadir yengilgina xo'rsinib jilmaydi.

– Muqaddam...

Muqaddam uning quvonch to'la ko'zlari parpirab ketganini, xo'rsinganini sezdi.

– ...Keldingizmi? – dedi Alimardon, xuddi uning albatta kelishini bilganday.

Muqaddam yomg'irpo'shini eshik oldidagi mixga ildi.

– Chalavering...

– Eshitasizmi? – Alimardon shodlik to'la ko'zlari bilan unga boshdan oyoq razm solib chiqdi. – O'tiring. Ivib ketibsiz...

Muqaddam katak-katak adyol to'shalgan karavotning bir chekkasiga o'tirdi. Alimardon uning yoniga og'ir cho'kdi-da, qoshlarini chimirdi.

– Chalaymi?

Muqaddam indamasdan bosh silkidi. Pastak shift ostida yana torlar nola chekdi. Alimardonning qo'llari pardadan pardaga yengil ko'char, toshqin sadolar tekis parvoz etar edi.

Kuy tamom bo'lgandan keyin Alimardon unga yana qoshlarini chimirib qarab qo'ydi.

– Rahmat! – Muqaddam unga mehr bilan tikilib qolganini payqab, darrov ko'zlarini yashirdi.

– O'sha kuni shunaqayam urgan ekansizki, uch kungacha yuzim lovullab yurdi. – Alimardon kuldi.

– Yaxshi chalar ekansiz, – dedi Muqaddam unga yana tezgina qarab olib.

– Siz kuydan ham yaxshisiz...

Muqaddam uning qo'llari chakkasidagi sochlariga tekkanini sezib, cho'g' tekkanday seskandi. Ammo turib ketmadi.

– Mana shu ashula siz uchun yozilgan... – Alimardonning ovozi negadir titrab ketdi. Muqaddam xavotirlanib unga o'girildi-yu, shu ondayoq Alimardonning qaynoq, titroq lablari o'ziga yopishganini his etdi. Muqaddam ojiz talpinar, ammo uning og'ushidan chiqib ketolmasdi. Bu daqiqalar unga ham lazzatli, ham azobli tuyilardi. Anchadan keyin u karavotdan sakrab turdi-da, teskari qarab qo'llari bilan yuzini yashirdi.

– Yaxshimas, nima keragi bor, Alimardon aka... – dedi bo'g'iq ovozd.

Shu ondayoq yelkalariga yana uning og'ir qo'llari tushganini payqadi. Siltanib, burchakdagi shkaf tagiga borib oldi. U yuzlarini kafti bilan yashirgancha turar, oyoqlaridan mador ketib, qaltirardi.

– Muqad...

U Alimardonning ovozini yana quloqlarining tagida eshitib, kaftini tushirdi-da, uning allaqanday hayajonli, o't yonib turgan bejo ko'zlarini ko'rib qo'rqib ketdi.

– Qo'ying! – U Alimardonning ko'krigidan itarib yubordi. – Xudo haqqi, tegmang...

Lekin Alimardonning baquvvat qo'llari beliga chirmashganini ko'rib, dahshat ichida shivirladi:

– Qoching, hozir dodlayman!

Ikkovlari gandiraklab borib shkafga urilishdi. Shkaf ustidagi ganch mushukcha ag'darilib Alimardonning yelkasiga, undan yerga tushdi-da, chil-chil bo'ldi.

– Qoching! Uyatsiz! – U Alimardonning yuz-ko'ziga urar, tipirchilardi. Yana bir lahzadan keyin Muqaddam karavotga uchib tushdi. – Nima qilyapsiz? – dedi qo'rquvdan ko'zlarini katta-katta ochganча pichirlab. Keyin kuchi boricha yulqina boshladi.

Alimardon uni bo'shatmas, hadeb bir gapni qaytarardi:

– Muqad... Baribir birga bo'lamiz-ku... Muqad...

Muqaddam kuchli edi. U uzoq olishdi. Keyin birdan bo'shshdi-yu, jimib qoldi. Hozirgina o'zi shilib tashlagan Alimardonning yuzlarini silab, ko'zlarini chirt yumib oldi. Endi u hech nimani o'ylamas, unga hamma narsa baribir bo'lib qolgan, faqat qo'rqardi...

...Yarim soatlardan keyin u gandiraklab o'rnidan turdi. Tokchaga suyab qo'yilgan oyna oldiga sekin-sekin bordi. Ko'zgudan sochlari parishon to'zg'igan, yuzlari so'lg'in bir qiz qarab turardi. Shu tobda u o'zining qadri birdaniga pasayib ketganini yurak-yurakdan his qildi-yu, o'krab-o'krab yig'ladi. Alam ichida orqasiga o'girilib qaradi. Alimardon karavotga qo'llarini tiraganча boshini quyi solib o'tirardi.

Muqaddam chidab turolmadi.

– Endi nima bo'ladi, Alimardon aka?

Birdaniga o'ziga yaqin, aziz bo'lib qolgan kishisining quchog'iga o'zini otdi. Uning tizzalaridan quchoqlab, yuzlarini yashirdi.

– Dadam so'yib tashlaydi meni!

Alimardon uning sochlarini silab, xo'rsindi.

– Bo'ldi... Yig'lamang.

Uning ovozi negadir hissiz, sovuq edi.

...Anchadan keyin Muqaddam chil-chil bo'lgan mushukaning siniq bo'laklarini bosib o'tib, yomg'irpo'shini kiydi. Eshikdan chiqib ketayotganida yana bir qayrilib qaradi. U

mana shu pastak uyga, qoshini chimirib o'tirgan Alimar-donga o'zining bir umr bog'lanib qolganini his etar, ketgisi kelmasdi.

* * *

To'satdan kelib tekkan o'qning zarbi anchadan keyin bilinarkan.

Muqaddam eshigi tagiga yetganidan keyingina o'zi qilib qo'ygan gunohning butun dahshatini his etdi. Bu yuk shunday og'ir ediki, borgan sayin uning ikki yelkasidan qattiqroq ezar, yerga bukib, majaqlab tashlayotganday bo'lardi.

„Dadam so'yib tashlaydi!“ U zax hidi anqib turgan kesakiga suyangancha lablarini mahkam tishlab, munkayib qoldi. Eshik go'rday sovuq og'zini lang ochib, qorayib turardi. Zulmat quyuqlashib borar, pastak bulutlar qop-qora etaklarini sudrab shahar ustida kezib yurar, hamon o'sha sovuq, loqayd tomchilarini purkar edi.

Muqaddam yelkasidan muz o'tib ketganini sezib, sekin mo'raladi. Ichkaridan tiq etgan tovush eshitilmas, faqat tarnov g'amgin shovullardi. Uning qadam bosishga majoli qolmagan, ichkariga kirishi bilanoq pichoq ko'tarib turgan dadasiga ro'para bo'ladiganday yuragi zirillardi. U necha yillardan beri o'qituvchilik qilib, odamlarga tarbiya bergan, pensiyaga chiqqanidan keyin ham domkom raisi bo'lib elga bosh-qoshlik qilib yurgan, mahalla-ko'y „Qori aka“ deb orqa-oldidan qattiq hurmatlaydigan otasi yolg'iz qizining sharmandalagini kechirmasligini bilardi.

Yo'lak tomondan gurs-gusr qadam tovushlari, keyin yo'tal ovozi eshitildi.

„Dadam!“ Muqaddam yuragi uzilib tushganday tag'in kesakiga suyanib qoldi.

– Muqad! – U dadasining yo'g'on ovozi eshitib, boshini ko'tardi, qorong'ida uning qalin, hali oq oralamagan soqolini, quyuq qoshlari tagidan sinchiklab tikilib turgan ko'zlarini aniq ko'rdi. – Nima qilib turibsan? – Dadasining baland ovozi yana uning quloqlariga mixday qoqildi.

– O‘zim, – dedi Muqaddam beparvo gapirishga urinib. – Ishdan keldim.

– Kir uyga! Shalabbo bo‘lib ketibsana-ku!

Dadasi uni chetlab o‘tdi-yu, uch qadamcha nariga borib qo‘lidagi soyabonini ochdi. Boshi ustida baland ko‘targancha tez-tez yurib, zulmat qo‘yniga singib ketdi.

Muqaddam sarosima ichida hovliga mo‘raladi. Ravon ayvondan yog‘ilayotgan nur kaftdakina hovlini, bir tup o‘rikning yomg‘irdan qorayib ketgan pastak shoxlarini yoritib turardi. Vodoprovod tagidagi hovuzchaga yig‘ilib qolgan halqob suv xira yiltirardi.

Muqaddam devor tagiga tashlab qo‘yilgan yapaloq g‘ishtlar ustidan sakrab-sakrab o‘tib, ayvon eshigini sharaqlatib ochdi.

Tokchadan allanimani olayotgan Anzirat xola cho‘chib o‘girildi.

– Keldingmi?... Yomg‘ir ham ezildi-yey...

Muqaddam onasining kasalmand yuziga, shishib ketgan qovoqlariga qaradi-da, ko‘zlarini yashirdi.

– Yig‘ladingmi? – Onasi laganni quchoqlagancha uning oldiga keldi. – Nima bo‘ldi?

Muqaddam dahshat ichida eshikka yopishdi.

– Lobarlarnikiga chiqaman...

* * *

Uy ichi qorong‘i edi. Shiftdagi qandil tashqaridan tushib turgan ojiz nurda xira yaltirar, yomg‘irning shivir-shiviri eshitilib turar, qayerdadir soat chiqillardi.

Muqaddam bolalikdanoq qadrdon bo‘lib qolgan bu uyga ko‘p chiqar edi. Shodligini ham, alamini ham mana shu uyda, mana shu Lobarga to‘kib solardi. Ammo hozir u nima deydi? Qandoq gapirsin?

Muqaddam shiftga tikilganча yotar, xayoli chuvalashib ketgan, nimani o‘ylayotganini o‘zi bilmasdi.

Lobar yotgan karavot g‘ichirladi. Qorong‘ida uning uf tortgani eshitildi.

– Muqad...

Muqaddam indamay yotardi.

– Muqad... – dedi Lobar yana sekingina.

– Nima deysan? – dedi u jerkib.

– Uxlaganing yo‘qmi?

Muqaddam indamadi.

Yana Lobarning xo‘rsingani eshitildi.

– O‘lsin! Boshimni yuvgan edim, sochim hech turmayapti.

Muqaddam qaramasa ham Lobarning turib o‘tirganini, semiz qo‘llarini iyagidan o‘tkazib, sochini o‘rayotganini aniq tasavvur etdi.

Anchadan keyin tag‘in karavot g‘ichirladi. Lobar yana uf tortdi.

– Jahongir meni qishlog‘iga olib ketaman, deyapti...

Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, serharakat, xushchaq-chaq yigitni esladi. Jahongir Lobarni yaxshi ko‘rar, yaqinda ular bilan baravar texnikumni bitirib, feldsher bo‘lgan edi.

– Tegaver, – dedi Muqaddam beparvo.

– Voy, opam turibdi-ku..

– Bo‘lmasa sabr qil!

Muqaddam teskari qarab oldi. Yana jimlik cho‘kdi. Qayerdadir chiqillayotgan soat Muqaddamning azobli daqiqalarini loqaydlik bilan bitta-bitta sanay boshladi. Tashqarida yomg‘ir qattiqroq shivirladi.

– Muqad...

– Nima, nima?!

– Vuy, muncha, a! – Lobar sirlı pichirladi. – Nimani o‘ylayapsan?

Muqaddam indamay yotaverdi.

Lobarning piqillab kulgani eshitildi.

– Bilaman... Anvarni...

„Anvar!“ Muqaddamning miyasi zirqillab ketdi. Yelkasi-dan bosib yotgan yuk ustiga yana bir tog‘ ag‘darildi. „Anvar!“ dedi u pichirlab. Yelkalari avvaliga sekin-sekin titradi. Keyin silkinib-silkinib yig‘lab yubordi. U bugun negadir An-

varni eslamagan ekan. Shuncha yillik qadrdon Anvar akasini, Anvar akajonini o'ylamagan ekan.

Muqaddam ovozini chiqarmaslik uchun ko'rpachaga burkanib oldi. Bir vaqt Lobar ko'rpani tortqilayotganini sezib yana ham qattiqroq burkandi.

– Qoch! – dedi nafasi bo'g'ziga tiqilib.

– Voy, jinni, nega yig'laysan?

– Yaqinda men o'laman, Lobar! – u hayratdan og'zi ochilib qolgan o'rtog'iga tik qarab qichqirdi. – O'laman! Eshitdingmi?!

* * *

Alimardon erta uyg'ondi. Yomg'ir tinganidan beri havo tiniqlashib, yerlar selgib qolgan edi. U yuvingani anhor bo'yiga tushdi. Hali quyosh chiqmagan, suv yuzida nozik tuman pardasi silkinib turardi. Alimardon sirg'anchiq sohildan avaylab yurib, pastga tushdi. Qumloq sohilga cho'nqayib, muzdek suvni kaftiga oldi-yu, sovuqdan barmoqlari zirqirab ketdi. Keyin bilaklarini shimarib olganicha pishqirib-pishqirib yuvina boshladi. Bir zumda qo'llari, bo'yni qip-qizarib ketdi. Shimining tizzalariga suv sachrab, shalabbo bo'ldi.

Ko'nglida allanechuk bir yengillik sezib sakrab turdi-yu, bir chekkada, ho'l o'tlar ustida yotgan sochiq bilan uzoq artindi. Qirg'oqdan yuqoriga chiqquncha quyosh ko'rindi. Yong'oqlarning yalang'och shoxida chumchuqlar sayradi. Yerdan mayin hovur ko'tarila boshladi.

U yengil-yengil qadamlar bilan hovli tomonga yurib ketdi.

Uch kundan beri Alimardon shod, ruhi tetik edi. Butunlay sog'ayib qoldi. Beshyog'ochdagi muzika maktabiga borib, dars bera boshladi. Faqat o'sha kundan beri Muqaddam ko'rinmayotgani ko'nglini xijil qilib turardi. Kecha ishga ketayotganida guzardagi do'xtirxonaga kirgisi keldi-yu, tag'in aynidi: „Nima, yalinib kiramanni?“ U yaxshi ish qilmaganini, bir qizni baxtiqaro qilib qo'yanini bilar, uni sog'inardi. „Baribir uylanishim kerak!“ O'sha kundan buyon uning xayolida shu fikr charx urardi.

Hozir ham yelkasiga tashlab olgan sochiqning bir uchidan ushlagancha shudring bosgan so'qmoqdan yurib keldi, yana Muqaddamni o'yladi: „Bugun do'xtirxonaga kiraman!“ U ko'cha eshikni ochib hovliga kirishi bilan o'rtadagi so'rining temir panjarasiga suyanib turgan Anvarni ko'rdi-yu, seskanib to'xtab qoldi. Ko'nglida uyg'ongan qo'rquvmi, uyatmi, allaqanday tushunib bo'lmas bir tuyg'udan rangi o'chib ketganini o'zi ham sezib, Anvarga zimdan qarab qo'ydi. U Anvarning hoziroq kelib yoqasidan olishini, urib yuborishini kutardi. Ammo Anvar hamon so'ri panjarasiga tirsagini tiragancha, oyoqlarini chalishtirib xotirjam turardi.

„Bilmabdi! Nimaning ma'nosiga tushunardi bu!“ Alimardon Anvarning holidan huzur qilib ich-ichidan kulib qo'ydi.

– Qachon kelding!

Anvar sekin-sekin yurib kelib qo'lini uzatdi. U kuyovlardek yasanib, yangi kastum-shim kiyibdi. Ko'kish yaltiroq galstuk taqib olibdi.

– Yana sovuq suvga yuvindingmi? – dedi u yolg'ondaka po'pisa qilib.

– Nima qipti? – Alimardon kuldi. – Senga o'xshab oyimqiz bo'laymi?

– Kim, kim shunaqa? – Anvarning ko'zlari alamdan qisilib ketdi. – Qahramon-ey! Bir oy inqillab yotmagin tag'in...

– Bo'pti! – Alimardon uning hech nimadan xabari yo'qligiga tamoman ishondi-yu, yelkasiga shapillatib urib qo'ydi. – Hazil, uyga kiraylik.

– Yo'q... – Anvarning ko'zlariga jiddiyat cho'kdi. – Ertaga ertalab studiyaga borgin... Konsert bor. Sen ham chiqasan.

Alimardon ko'pdan o'ylab yurgan orzusi chindan ham ro'yobga chiqayotganidan quvonib, yuragi gursullab urib ketdi. Yalt etib Anvarga qaradi-yu, ataylab talmovsiradi:

– Qo'ysang-chi!

– Hazili yo'q! – Anvar astoydil tayinladi. – Men dasturga kiritib qo'ydim.

Alimardon o'ziga soddalik bilan tikilib turgan do'stiga qarab, yana ataylab beparvo gapirdi:

– Meni boshlariga urisharmidi?

– Kutaman! – Anvar yana jiddiyat bilan tayinladi-da, qo'lini cho'zdi. – Xayr!

Uning uchi ingichka tuffisi selgib qolgan hovlida bilinar-bilinmas iz qoldirib, ko'cha eshigiga yetganidan keyin Alimardon shodon tabassum bilan shivirladi: „Galvars!“

* * *

Tushga yaqin Anvar uni telestudiya eshigi oldida kutib oldi. Yana eng avval Alimardonning ko'zi uning chiroyli galstugiga tushdi.

– Rubobing qani? – dedi Anvar Alimardonning quruq ke-
layotganini ko'rib.

– Boshimni qotirmasang-chi, nima deb chiqaman? – U
ichida jon deb tursa ham ataylab tixirlik qildi.

– Mayli, yuraver-chi... – Anvar uni militsioner turgan
vestibuldan olib o'tib, keng, yorug' yo'lakka boshlab kirdi.
Poyandoz to'shalgan zinalardan ikkinchi qavatga ko'tari-
lishdi. Tepasiga „Muzika redaksiyasi“, deb yozilgan eshik
oldida to'xtab qolishdi.

– Yuraver! – Anvar eshikni ochib, uni boshlab kirdi.
Chog'roq xonaga ham xuddi zinalardagiga o'xshash qim-
matbaho gilam to'shalgan, bir-biriga qaratib qo'yilgan ikkita
stol bo'sh turardi.

Anvar yumshoq o'rindiqli kresloni Alimardonning oldiga
surdi.

– O'tirib tur-chi...

– Sening stoling qaysi?

– Ana... – Anvar beparvolik bilan devor oldidagi stolni
ko'rsatdi. – Hozir tor topib kelaman. – U tez chiqib ketdi.

„Shunaqa joyda ishlarkan-da!“ Alimardon sekin uf tortib
qo'ydi. Shu tobda negadir uning Anvarga yana hasadi keldi,
ammo nimagaligini o'zi ham bilolmadi.

Yana bir necha daqiqadan keyin Anvar sadaf pardalari yaraqlab turgan yap-yangi tor ko'tarib kirdi. „Ajoyib tor ekan! – Alimardon cholg'uning u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rarkan, tag'in bilintirmay uf tortib qo'ydi. – Payti kelsin, albatta, olaman!“

– Endi repetitsiya xonasiga kirib mashq qilasan...

...Alimardon studiya zalining bir chekkasidagi jajjigina stulga o'tirgancha navbat kutardi. Bu yerga kirishdan oldin qanchalik qo'rqqan bo'lsa, endi navbat tegishini shunchalik orziqib kuta boshladi. Kimdir qo'shiq aytar, allaqanday qizlar raqs tushar, ammo u hech kimni ko'rmas, hech nimani eshitmas edi. Shu tobda xayolida yolg'iz bir fikr charx urar: „Hozir meni hamma ko'radi. Butun respublika ko'radi!“

Nihoyat, pultda o'tirgan qizning: „Navbat Alimardon To'rayevga“, degani eshitildi.

U boshqa hech nimani eshitmadi. Yuzlari lovullab yonayotganini, quloqlari shang'illayotganini his etib, sekin o'rnidan turdi. Operator kamerani asta-sekin uning oldiga surib kela boshladi. Hozir tabassum qilishi kerakligi to'satdan xayoliga keldi-yu, kameraning qizil chiroqlariga qarab jilmaydi. Torni sekin-sekin cherta boshladi. Keyin zavq bilan, harorat bilan chalishga tushdi. U yaxshi chalayotganini, tor o'zining qo'lida bulbulday sayrayotganini bilar, bilgan sayin zavq bilan chertardi. Kuy tamom bo'lishi bilan u qo'shiqni, o'sha – Muqaddamga aytib bergan „Yigit qo'shig'i“ni boshlab yubordi. Uning ovozi jimjit studiyaning baland shiftlariga tegib jaranglar, bugungi konsertda o'zi g'olib chiqayotganini, ajib bir ohangda aytayotganini bilib turardi.

Qo'shiq tamom bo'ldi-yu, u boyagiday tabassum bilan ohista bosh egib qo'ydi...

Yo'lakka chiqishi bilan Anvarga duch keldi. Anvarning ko'zlari shodlikdan chaqnar, uning qo'lini mahkam qisib, haddeb bir gapni takrorlardi:

– Juda yaxshi chalding, do'stim! Juda yaxshi.

Alimardon do'stining shodlikdan chaqnaq ketgan yuziga qarab miyig'ida kulib qo'ydi. Shu ham chalish bo'ptimi? Hali shunday kunlar keladiki, Alimardon To'rayev degan nomni eshitganida butun mamlakat hayratdan yoqa ushlab qoladi.

– Ketamizmi? – dedi u Anvarga beparvo qarab.

– Yur... Men ham Bo'stonga borishim kerak.

– Muqaddamning oldigami? – U qah-qah urib yuborishdan o'zini arang tiyib, ko'zlarini suzdi. – Mayli, yuraver...

Ko'chada quyosh porlar, havo iliq, huzurbaxsh edi.

Alimardon taksi to'xtatgisi keldi. Anvarning hay-haylashiga qaramay, ko'chani o'rtasiga tushib olib qo'l ko'tardi, ammo mashinalar to'xtamas, uni mayna qilganday g'izillab o'tib ketardi.

Nihoyat, bir „Volga“ o'n qadamcha nariga o'tib to'xtadi. Ikkovlari ketma-ket yugurib borishdi.

– Qayoqqa, birodar? – shopmo'ylov taksichi mashinaning qiya derazachasidan mo'raladi.

– Bo'stonga oborib qo'ying! – dedi Alimardon nafasini rostlab ololmay.

Haydovchi kuldi.

– U yoqqa „sobstvenniy“ mashinangizda borasiz, uka!

Alimardon parparonday yelib ketgan mashinaning orqasidan qarab, tishlarini g'ijirlatib qoldi: „Bo'pti! o'z mashinamda borganim bo'lsin!“

* * *

Qishloq yomg'irdan yuvilib, yashnab ketgan edi. Devorlar tagida adashib bosh ko'targan munis maysalar ertaga qor ostida qolishidan bexabar yashnab turardi.

Alimardon oldinda ketar, Anvar do'stining tekis talpinayotgan baland gavdasiga qarab borar, Alimardonning televizorda chiqqanidan, bunda o'zining ham xizmati borligidan shod edi.

Katta ko'chani muyulishidagi tut tagiga yetganda Alimardon burilib qaradi.

– Do'xtirxonaga boraman, deganmiding?

Anvar ham to'xtab, soatiga qaradi.

– Muqaddam ketmagandir hali?..

– Ko'rishing shartmi?

Anvar uning chehrasida bir qalqib o'chgan masxarali tabassumni o'zicha tushundi.

– Sog'indim, – dedi sekin. Zax yerga yopishib yotgan tutazonlarini oyog'ining uchi bilan titkiladi. Keyin do'stiga qarab ohista xo'rsindi. – Sen bilmaysan-da... Hech tushunib bo'lmaydi bu qizga. Ikki haftadan beri gaplashmay qo'ydi. Nima bo'layotganini o'zim bilmayman. – U boshini baland ko'tarib, kuz osmonida kezib yurgan bir parcha bulutga tikildi. Uning ko'zlarida shirin bir orzumi, entikuvchan tabassummi bor edi.

Alimardon yana boyagiday masxarali kuldi. U endi bu qo'ymijoz oshnasidan oladiganini olib bo'lgan, studiyadagilar bilan tanishib olgan, yana televizorda chiqish uchun Anvarning yordami kerak emasdi.

– Men uylanyapman, – dedi xotirjamlik bilan.

Anvar yarq etib burilib qaradi. U sevinishdan ko'ra ko'proq hayron qoldi.

– Qo'ysang-chi hazilingni!

Alimardonning yuzida yana o'sha quv tabassum qalqdi.

– Hazili yo'q, – dedi sovuqqina qilib.

– Shayton-ey, nega aytmading? – Anvar endi ishondi. – Qachon? Kimga?

Alimardon hozir uning yuragiga bigiz sanchishidan zavqlanar, ich-ichidan toshib kelgan kulgisini arang bosib turardi. Ovozini iloji boricha beparvo qilib, qoshini chimirdi.

– Muqaddamga...

– A? Qaysi Muqaddam? – Dahshatga to'liq qisqa bir hayqiriq havoda faryod soldi. – Qaysi Muqaddam?!

Anvar oyoqlarining uchigacha muzlab ketganini his qilib, Alimardonning beparvo ko'zlaridan ma'no qidirib qoldi. Alimardon tag'in bir marta kulib qo'ydi.

– O'sha, o'zing bilgan Muqaddam-da! – U oyog'ining uchida keskin burilib ketaverdi.

Alimardon boshini g'oz tutib borar, jahonda hech nima o'zgarmagandek, hamma narsa ko'ngilxushlik bilan borayotgandek edi.

U tutzor ko'cha ichiga kirib ketganidan keyingina Anvar o'ziga keldi. Yuragini tilimlab tashlagan xabarni hazilga yo'yishga harakat qilgandek shuursiz jilmaydi. Yugurib borib, Alimardonni yelkasidan ushlab, o'ziga qarattidi.

– Ovsar! Shunaqa narsa bilan hazillashadimi odam?!

Alimardon hayron qolganday qoshini chimirdi.

– O'zing bilasan, hazilni yomon ko'raman.

Anvar uning chindan behzil gapirayotganini tushundi. Birov bexosdan „onang o'ldi“, deganda kishi qanday ahvolga tushsa, hozir u ham xuddi shunday ahvolda qoldi. A'zoyi badani yaproqday qaltiray boshlaganini his etib, Alimardonning yoqasiga yopishdi.

– Yolg'on aytasan, maraz!

Alimardon huzur qilib kuldi.

– Bor, ishonmasang o'zidan so'ra! – U Anvarning qo'lini yoqasidan olib tashlab, dona-dona qilib ta'kidladi: – U menga tegadi, bildingmi?! U menga tegishga majbur! Men uni o'zimmiki qilib qo'ydim!

– Tuhmat!

Anvarning ko'z o'ngi qorong'ilashib ketdi. Qoshini chimirib turgan Alimardon ham, yalang'och tutlar ham, osmonda kezib yurgan bir parcha bulut ham chirpirak bo'lib aylanib ketdi.

U Alimardonning basharasiga qachon musht tushirganini bilolmay qoldi. O'ziga kelganida, Alimardon kaftining orqasi bilan qop-qora qonga bo'yalgan og'zini artar, pastak tutga suyanib olganicha hadeb tupurardi.

Anvar zarang yerni qarsillatib tepganicha yugurib ketdi. Maktabdan qiy-chuv ko'tarib chiqqan bolalar orasidan, so'rilarda choyxo'rlar chordana qurib o'tirgan choyxona oldidan yugurib o'tdi-yu, derazalariga oppoq darpardalar tutilgan do'xtirxona eshigiga borib qoldi. Shiddat bilan yo'lakka otilib kirdi. Navbat kutib o'tirgan odamlarning hayhaylashiga

qaramay, tepasiga „Manipulasionnaya“ deb yozilgan eshikni shaxt bilan siltab tortdi. Qarshi tomondagi derazaning bir tabaqasi daranglab ochilib ketdi.

– Muqaddam!

Uning hayqirig‘i butun do‘xtirxonani jaranglatib yubordi. Ustiga oq choyshab yopilgan stolga tirsagini tayaganicha kafkini peshanasiga bosib o‘tirgan Muqaddam o‘rnidan turdi-yu, oyoqlaridan mador ketganday yana o‘tirib qoldi. Uning rangi quv o‘chib ketgan, ko‘zlarida dahshat bor edi.

Anvar ko‘ksini to‘ldirgan nidoni yalinchoq ingroq ohangda aytdi:

– Muqaddam... Ayting... Rostmi?

U Muqaddamning yo‘q deyishini kutib turar, shu bir og‘iz so‘z uchun butun borlig‘ini berishga tayyor edi.

Vahimali sukunatga to‘liq bir necha daqiqa o‘tdi.

Muqaddam kafti bilan yuzini to‘sib yig‘lab yubordi.

– Rost...

Anvarning ko‘z o‘ngida yana hamma narsa chirpirak bo‘lib ketdi. Oyoqlari o‘z-o‘zidan bo‘shashib, gandiraklab ketdi-yu, eshikka suyanib qoldi. Bu yerdagi hamma oppoq narsalar birdaniga qop-qora tusga kirdi-da, boshini solintirgancha tashqariga qarab sudraldi.

U birdaniga hammasini tushundi. Muqaddam nima uchun o‘ziga begona bo‘lib qolganini ham, endi hech qachon qaytib kelmaydigan, umrbod nasib etmaydigan aziz bir narsasidan judo bo‘lganini ham, o‘zining sofdilligi, ochiqko‘ngilligi o‘z boshiga balo bo‘lib yog‘ilganini ham – hamma-hammasini tushundi. Faqat bir narsani tushuna olmasdi. Shuncha yillik qadr don do‘sti nima uchun xiyonat qildi unga? Shunchalar ablahlik qilishga uni nima majbur etdi ekan?! Dunyo paydo bo‘lganidan beri nima uchun odamlar boshi ustida xiyonat degan qop-qora sharpa kezib yuradi? Odamlar bunchalik qabihlikni qayoqdan o‘rganisharkin?!

U yelkasiga kelib tushgan qaqshatqich zarbadan mun-kib ketganday boshini quyi solib borar, qishloq oqshom

taraddudini ko'rar, choyxona gavjum, maktabdan qiy-chuv solib bolalar chiqib kelishardi. Olisda – ufq etagida quyosh botib borar, daraxtlar uchida qonli shafaq o'ynardi.

* * *

Shanba oqshomida Bo'ston qishlog'i ajib bir joziba kashf etdi. Bu oqshom oy ham erta chiqdi. To'lib, qip-qizarib, yashnab-yashnab chiqdi. Nog'oraning shodon taka-tumi iliq kuz havosini titratdi. G'ujg'on o'ynagan yulduzlar to'yxona ustida pasayib raqs tushdi.

Anvar Qonqus ustidagi yakkacho'pda oyoqlarini osiltirib uzoq o'tirdi. Anhor jimjit, suv yuzida yulduzlar qalqib oqar edi.

Nog'orachi yigit usta ekan! Shunday berilib, shunday terga botib chaldiki, osmon pardasini yirtib yuborguday bo'ldi. O'z kasbini yaxshi bilar ekan! Boplab chalar ekan! U faqat bir narsani bilmadi. Nog'ora cho'pi bilan nog'orani emas, xuddi o'ziga o'xshash bir yigitning qalbini savalayotganini bilmay qoldi.

Shu kuni ajoyib voqea bo'ldi. Kimningdir ko'nglida bahor gulladi. Kimdir kimgadir intizor bo'ldi. Kimningdir qalbiga qor yog'ib chiqdi.

To'yga butun qishloq yig'ildi. Faqat anhor o'z o'zanidan chiqolmadi. Qonqus tun bo'yi g'azab bilan, alam bilan to'lg'anib oqdi.

* * *

Hayot shunaqa ekan. Goho kimningdir motami kimgadir bayram bo'larkan!

Alimardon ikki oygacha ana shu bayram rohati bilan gasht qilib yashadi. Muqaddam o'zi o'ylaganidan ham yaxshiroq, mehribonroq chiqib qoldi. Anvar bo'lsa undan butunlay uzoqlashib ketdi. Telestudiyada to'satdan duch kelib qolsa, teskari burilib ketadigan bo'lib qoldi. Ammo Alimardon parvo qilmasdi, bir vaqtlar o'ziga qadrdon bo'lgan bu yigitni endi bir pulga ham olmas, o'z quvonchi, o'z baxtidan mast edi.

U shu ikki oy ichida to‘rt marta televizorda chiqdi. Ha, endi uning omadi yurisha boshlagan edi. Uzoq safarga chiqayotgan odam biron narsasini unutib qoldirishidan cho‘chib, o‘zini qanchalik tekshirsa, Alimardon ham shunchalik puxta tayyorlanardi. Yong‘oqzor bog‘ ustida har sahar uning yangiroq, dilbar ovozi parvoz etar, u qo‘shiq boshlaganida tabiatning o‘zi ham tan berib quloq solganday bo‘lar, so‘qmoqlar ham, anhor ham bir nafas sukut saqlab tinglardi.

Alimardon har haftada yangidan yangi qo‘shiqlar o‘rganar, she‘rlarga o‘zi kuy bastalar edi.

Navbatdagi bayram arafasida uni yana studiyaga chaqirishdi. Shu kuni Alimardon o‘z kuchiga ikki marta ishonch hosil qildi. Musiqa tahririyatiga kirib borishi bilan Anvarning yordamchisi – kasalmand muharrir yigit unga uchta konvert topshirdi.

– Sizga ekan.

Alimardon hayron bo‘lib konvertlardan bittasini ochdi.

Oddiy qora qalam bilan yozilgan xatning birinchi satrlarini o‘qidi-yu, hayajondan ko‘z o‘ngi jimirlashib ketdi. U ko‘pdan orzu qilib yurgan niyatiga yeta boshlaganidan mast, shod edi. Xatning oxirgi satrlarini o‘qirkan, qo‘llari qaltirab ketdi. „Biz kolxozchilar Alimardon To‘rayevning ajoyib ovozi har kuni eshitsak deymiz...“

Maktub ana shunday so‘zlar bilan tugallangan edi.

Shu kuni u beshta qo‘shiq aytdi. Har qaysisini o‘zgacha zavq bilan, o‘zining dilbar ohangi bilan yurak-yurakdan kuyladi.

Konsertdan keyin studiya bufetiga kirdi. Ikki qadah konyak ichdi. Bugun uning ruhi tetik, kayfi chog‘ edi. Shahar yangi libos kiygan, ko‘chalar charog‘on, rang-barang afishalarning olovli jimjimasi salqin havoda kamalakdek tovlanadi. U trolleybus bekatiga chiqqanida tanish bir ovozni eshitib, to‘xtab qoldi.

„O‘zim! O‘zimning ashulam!“ U to‘rt qavatli kattakon binoning ovoz kelayotgan derazasini topdi. Qo‘shiq birinchi qavatdagi yorqin shu‘la tushib turgan derazadan quyilib

chiqib, qanot qoqardi. Alimardon hayajon ichida sekin-sekin yurib deraza tagiga bordi. Deraza pardalari tushirib qo'yilgani uchun hech nima ko'rinmas, ammo ichkarida odam ko'pligi soyalardan bilinib turardi. Chamasi, biron-bir kecha bo'layotgan bo'lsa kerak, ichkarida bosinqi g'ovur eshitilar, ammo qo'shiq tovushi baralla, tiniq yangrar edi. Bu Alimardonning o'sha birinchi „Yigit qo'shig'i“ edi.

„Magnitofonga yozib olishgan ekan“, deb o'yladi Alimardon nafas chiqarmay. U bu bino talabalar yotoqxonasi ekanini esladi. „Boshlandi! Talabalar yoqtirdimi, ommalashish shu!“ Alimardonning lablarida quvnoq tabassum o'ynadi. Hozir kirib: „O'sha qo'shiqni aytgan Alimardon To'rayev men bo'laman“, desa ishonisharmikan?..

U yong'oqzor bog'ko'chaga allamahalda yetib bordi. Hali oy chiqmagan, ammo osmonda jimjima yulduzlar charaq-laydi, oyoq ostida xazon qirsillaydi. U pastak eshikni taqillatarkan, negadir zaharxanda bilan jilmaydi. „Alimardon To'rayev! Durustroq darvozasi ham yo'q!“

* * *

Ertalabdan beri ezila-ezila yog'gan yomg'ir tushga borib qorga aylandi. Avvaliga bitta-yarimta uchqunlar havoda erinchoqlik bilan kezib yurdi-yu, keyin birdan tezlashib ketdi. Yirik-yirik laylakqor qiyalatib urib berdi.

Alimardon deraza oldida tik turgancha, birinchi qorning yog'ishini tomosha qilardi. Hamma yoq tabiatning ulug'vor, ayovsiz haqiqati oldida quti o'chganday jimjit bo'lib qoldi. Yomg'ir yog'ayotganda shodon shovullagan tarnov ham, bo'g'otdagi chumchuqlar ham bir nimadan cho'chiganday ovozsiz qotdi. Hovlidagi so'rining panjaralari, molxonaning tomi oppoq bo'lib qoldi. Hovli etagidagi azamat yong'oqlar taqdirga tan berganday ma'yus bosh egdi, yakkam-dukkam yaproqlar sovuqdan dildiray boshladi.

Bora-bora oqshom qo'ndi. Yurakni ezuvchi, ko'ngilga g'ashlik soluvchi g'ira-shira oqshom qo'ndi.

Narigi uyda Muqaddamning oyoq mashinani shatillatib ish tikishga o'tirgani eshitildi. U og'iroyoqli bo'lganidan beri kechalari hech kimga sezdirmay chaqaloqchaga atab ko'ylakchalar tikadigan odat chiqargandi.

Ko'cha eshik taqilladi. Alimardon negadir cho'chib tushdi. Eshik sukunat qo'ynida yanada qattiqroq gursulladi. Muqaddamning mashina shatillatishdan to'xtagani eshitildi. Ammo Alimardon undan oldinroq hovliga tushdi. Kuyovlikdan yodgor bo'lgan beqasam choponi bilan yuzini qordan pana qilib, yo'lakka bordi. Pastak eshikning halqasidan ushlab tortdi.

G'ira-shira qorong'ilikda ikki kishi turardi. Ulardan biri novcha, boshyalang, yomg'irpo'sh kiyib olgan, sovqotgan bo'lsa kerak, turgan yerida hadeb depsinardi. Ikkinchisi pakana, semiz, kalta palto kiyib olgan, ammo chehrasi aniq ko'rinmasdi.

„Yo'ldan adashganlar bo'lsa kerak“. Alimardon eshikni kattaroq ochib taklif qildi:

– Kelinglar.

– Sizni topadigan kun bor ekan-ku, Alimardon aka! – Novcha yigit eski tanishlarday quyuq so'rashdi. Sherigi ham qishloqliklarga xos tavoze bilan qo'shqo'llab uning kaftini qisdi.

Alimardon hech nimani tushunmagan bo'lsa ham, yana taklif qildi:

– Marhamat...

– Yo'q, aka, – novcha yigit yana dilkashlik bilan shang'illab gapirdi. – Biz bir xizmat bilan kelgan edik.

Alimardon ular to'yga aytib kelishganini tushundi-yu, ataylab o'zini go'llikka soldi.

– Qanaqa xizmat?

– Mana shu do'stimiz, – yigit sherigiga imo qildi. – Ukasini uylantirayotgan edi. Endi kattalik emas, erkalik, aka, bir xizmat qilasiz-da!

Sherigi ham qo'shqo'llab ta'zim qildi.

– Endi yo'q demaysiz-da, aka! Xizmat haqingiz qancha bo'lsa rozimiz. Olisdan keldik.

Alimardon „qancha berasiz“ demoqchi bo'ldi-yu, aytmadi.

– Yo'q... – u keskin bosh chayqadi. – Men to'yga yurmayman... Hech borgan emasman...

To'y egasi astoydil yalina boshladi:

– Xo'p deng endi, aka. Oqqo'rg'on degan joydan daraklab keldik, yo'q demang...

Alimardon yigirma qadamcha narida, tumshug'i bilan derazaga qadalay deb turgan „Volga“ni endi ko'rdi. Qorning qalin pardasi ortida uning rangi ko'rinmas, sharpaday arang ko'zga chalinardi.

– Mashina o'zingiznikimi?

To'y egasining ko'nglida umid uyg'ondi shekilli, quvonib ketdi.

– O'zimizdan, aka, o'zimizdan! Birpasda yetkazib olib boraman.

– Yo'q, bo'lmaydi, – Alimardon tag'in bosh chayqadi. – Ertaga ishga borishim kerak.

– Xo'p deng, aka, biz ham tushunadigan odammiz. Xafa qilmaymiz... – U Alimardonning o'ylanib turishini o'zicha tushundi. „Faloncha beramiz“, deb katta pulni aytdi.

Alimardon yana bir tarang qilsa, qadri oshishini bilib noi-loj qiyofada yelkasini qisdi.

– Borolmayman, dedim-ku, ilojim yo'q.

To'y egasi bir lahza o'ylanib turib qo'l siltadi.

– Mayli, aka, – deb ikki hissa ko'proq „zakalat“ va'da qildi.

Alimardon jilmayayotganini yashirish uchun uf tortdi.

– Hech qo'yildingiz-da!... Qaytib kelishim nima bo'ladi? Men ham ishlik odamman.

– O'zim keltirib qo'yaman...

Alimardon yana yuzini qordan pana qilib, ayvonga qaytdi. Muqaddam uning hayallab ketganidan xavotir olib bo'lsa kerak, eshik oldida turardi.

– Kim? – dedi u erining ko'ziga tikilib.

Alimardon beparvo qo'l siltadi.

– Mehmonga chaqirib kelishibdi.

– Borasizmi? – Muqaddam sekingina, hurkibgina so‘radi. Endi u turmushni tushuna boshlagan aksari xotinlarday yuvosh bo‘lib qolgandi.

– Albatta!

Ketma-ket uyga kirishdi. Muqaddam shifonyerdan kiyimlarini olib berib turdi. Alimardon bir og‘iz ham gapirmay eshikka tomon yo‘l oldi. Faqat ayvonga chiqqanida burilib qaradi:

– Eshikni zanjirlab ol!

U yo‘lda ham churq etmadi. Mashina qor bo‘roni orasida shiddat bilan olg‘a uchar, havoda parpiragan uchqunlar old tomondagi oynaga chirsillab urilar, bir juft shu‘la oqish zulmatni yorib borardi.

Alimardon suyanchiqqa o‘zini tashlagancha yo‘ldan ko‘z uzmay ketar, mana shu ko‘rimsiz, qo‘pol qishloqida bor mashina o‘zida yo‘qligi alam qilardi unga.

Bir soatchadan keyin chiroqlar nurida charaqlab yotgan to‘yxonaga kirib borishdi. Kattakon uy odamlar bilan liq to‘lgan, mehmonlar to‘rt tomondagi devor tagida chordana qurib o‘tirishar, dasturxon to‘kin, araq isi gurkirardi.

Alimardon qo‘shiq boshlashi bilan hamma yoq suv quyganday jimib qoldi. U o‘z ovozinig sehri bilan to‘yxonani rom etganini sezib, zavq bilan ashula ayta boshladi. U qo‘shiq aytar, qo‘pol etik, chopon kiygan odamlar boshini sekin-sekin chayqab, huzur qilib eshitishar, shu tobda deraza ortida ham bola-chaqa, xotin-xalaj to‘lib ketganini Alimardon bilar, bilgan sayin zavqlanar edi.

Qo‘shiq tugashi bilan: „Yasha!“, „Baraka top!“ degan qiyqiriqlar yer-u ko‘kni qopladi. Uning oldida odamlar tizilib ketdi. Ular qadoq qo‘llari bilan uning chakkasiga pul qistirishga navbat kutishardi. Alimardon ko‘pdan buyon shu qadar ehtiros bilan kuylamagan edi. Shu qadar ko‘p ichmagan edi. Ha, u bugun mast bo‘ldi. Ammo nimadan mast bo‘lganini o‘zi ham bilmadi: maydanmi, olqishdanmi, pul isidanmi...

* * *

Tashqarida shamol uvullaydi, qor uchqunlarining derazaga chirsillab urilishi aniq eshilib turadi, allaqayerda yong'oq shoxi ayanchli ingraydi. Muqaddam ko'rpaga o'ralib olgan-cha, dahshat ichida qorning shitirlashiga quloq solib yotar, muzdek zulmat mo'ralab turgan derazaga qarashga botinolmas, yuragining gup-gup urishi o'ziga ham aniq eshitalaverdi.

Devordagi ko'kish tun chirog'i o'limtik nur sochadi, yaltiroq kapgirli soat goh qattiq, goh sekin chiqillaydi, vaqt imillab o'tadi.

Qiziq, balog'atga yetgan qiz muhabbatni emas, muhabbatning o'zi uni izlab topadi, deganlari rost ekan. Muqaddam necha yillardan beri Anvardan muhabbat izlab yurardi. Biringdaniga Alimardonning sevgisi uni izlab topdi. U to'y oldidan qanchalik kuyib-yongan, iztirob chekkan bo'lsa, to'ydan keyin shunchalik quvonch bilan yashay boshladi. Otasi ham to'yga darrov rozi bo'la qoldi. Alimardon unga bir dunyo baxt hadya etdi.

Muqaddam hamon guzardagi do'xtirxonada ishlar, hamkasb dugonalari uning baxtiga havasi kelganini yashirib ham o'tirishmasdi. Muhabbat to'shakda uyg'onadi, deganlari shu bo'lsa kerak-da! Bora-bora Anvarni unutdi. „O'zimning Mardon akamni hech kimga alishmayman!“ Bo'yida bo'lganini sezganidan beri xayoliga shu fikr mahkam o'rnashdi. Ammo xuddi o'sha kundan boshlab tag'in bir narsani ko'p o'ylaydigan bo'lib qoldi.

Muqaddam bir vaqtlar bolaligida shahar hovlisining yo'lagida qizaloqlar bilan chirchira o'ynashni yaxshi ko'rardi. Har kuni ularning hovlisiga qizlar to'lib ketar, kechga-cha koptok o'ynashardi. O'yinning qiziq qoidasi bor edi.

Kimki chirchirni ellikkacha yetkazmay koptokni qo'lidan qochirib yuborsa, o'yindan chiqib ketardi.

Keyingi kunlarda uning nazarida Alimardon akasi ham xuddi koptokday qo'lidan chiqib ketayotganga o'xshardi.

Ayol kishi erkakning, oz bo'lsa-da, o'zidan sovishini darrov payqaydi. Muqaddam Alimardon akasining avvalgiday ochiq-sochiq muomala qilmayotganini sezib turardi. Keyingi paytlarda eri ko'p ichadigan, sal narsaga jerkib tashlaydigan odat chiqardi. „Yeganing oldingda, yemaganing ketingda, men bilan ishing bo'lmasin“, degan gapni ko'p qaytaradigan bo'lib qoldi. Axir, odam dunyoga faqat yeyish-ichish, kiyinish uchun kelmaydi-ku! Nahotki, Alimardon akasi shuni bilmasa! Muqaddam shularni o'ylagan sari, eri kun sayin o'zidan uzoqlashib borayotganini his qilar, bundan dahshatga tushardi. Hozir ham o'sha beshafqat tuyg'u yuragiga bigizday sanchildi-yu, qaltirab ketdi. „Yo'q, yo'q... o'zim ham vahima bo'lib qolibman“. U ko'rpaga burkandi, o'zini majbur qilib ko'zini yumdi...

Muqaddam depsinib uyg'onib ketdi. U uxladimi, yo'qmi, bilolmadi, ammo vahimali bir tuyg'udan negadir vujudi titray boshladi. Ko'rpadan sekin boshini chiqarib quloq soldi. Hamon shamol uvullaydi, qor uchqunlari hamon zulmat qoplagan derazani savalaydi. Birdan tashqarida allakim dodlagandek bo'ldi. Muqaddam oyoq-qo'llari bo'shashib, ko'zlarini katta-katta ochgancha, taxta bo'lib qoldi. Boyagi ovoz tag'in qaytarildi.

– Mashina-ku, – deb pichirladi u qo'rquv ichida, – uy orqasidan mashina o'tyapti.

Shu ondayoq ko'cha eshik qattiq taqilladi.

„Mardon akam!“ Vujudiga huzurbaxsh iliqlik yugurdi. Alimardon akasining zanjirni tez-tez taqillatishiga o'rganib qolgan edi.

Muqaddam qushday yengillik bilan sakrab turdi, chiroqni yoqdi. Boshiga Alimardon akasining beqasam choponini yopganicha ayvonga chiqarkan, yo'lakay devordagi soatga qarab oldi. Soat millari to'rt yarimni ko'rsatar edi.

Muqaddam hovliga tushgan zamoni sovuq havo nafasini qaytarib yubordi. Kalishi qorga to'lib chiqdi. Shu payt eshik tag'in qattiq taqilladi. U oyog'ining igna sanchib achishishiga qaramay yugurdi. Toyg'ana-toyg'ana eshik tagiga yetib keldi.

– Kim? – dedi hurkovich ohangda.

– Och!

Muqaddam Alimardon akasining ovozi tanib, darrov zanjirni tushirdi.

Alimardon engashib eshikdan kirarkan, unga urilib ketdi.

– O'lib qoldingmi? – Uning og'zidan gupullab araq isi keldi.

„Ichibdi!“ Muqaddam indamasdan eshikni tag'in zanjirladi.

Ketma-ket ayvonga chiqishdi. Alimardon telpagini yechib, paltosining yelkasiga qo'ngan qorni qoqarkan, qoshini chimirib Muqaddamga qarab qo'ydi. Uning yuzlari qizarib ketgan, qisqa-qisqa nafas olardi.

– Bitta chaqirganda ochsang bo'lmaydimi? – dedi u telpagini burchakdagi divanga tashlab.

Muqaddam uning savoliga savol bilan javob berdi:

– To'yga bordingizmi?

Alimardon unga yelkasi osha qaradi.

– Ha! Yoqadimi?

Erining boya yo'lakda aytgan gapi Muqaddamning yuragini o'rtab yuborgan, ikki yo'l o'rtasida o'tirgan og'iroyoqli xotiniga o'limni ravo ko'rgani hamon vujudini titratardi.

– Yo'q! – dedi u ovozi titrab. – Yoqmaydi!

– Yoqmasa... – Alimardon kinoyali jilmayib qoshini chimirtdi. – Yoqmasa... Keta qol! Uying yaqin...

– A?! – alamli bir hayqiriq Muqaddamning bo'g'ziga tiqilib qoldi. Ko'zlari birdan jiqqa yoshga to'ldi. Titroq qo'llari bilan erining bo'yniga mahkam osilib yig'lab yubordi. – Qaytarib oling so'zingizni... Jon Mardon aka, qaytarib oling!..

Yana bir necha daqiqadan keyin u erining zabardast yelkasidan mahkam quchoqlab bag'riga bosar, hozir uni birov tortib olayotganday qo'yib yuborgisi kelmasdi.

„Mast-da, kayf ustida aytib yubordi, – derdi u o'ziga o'zi tasalli berib. – Ertaga o'zi pushaymon yeydi!“

* * *

Anvar mashinka xonasidan chiqdi-yu, qo‘lidagi qo‘g‘ozni sekin-sekin silkitgancha, yorug‘ yo‘lakdagi guldor poyandozning bir chekkasidan boshini quyi solgancha yurib ketdi. U ish ko‘pligidan xursand, faqat mehnat bilan ovunar edi.

Bir yo‘la ham sevgilisidan, ham do‘stidan judo bo‘lish og‘ir ekan. Alimardon bilan Muqaddamning to‘yi o‘tganidan beri u odamlarga o‘zgacha bir sinchkovlik, ichki alam, ishonchsizlik bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. Bog‘larda sayr qilib yurgan oshiq-ma‘shuqlarni ko‘rganida, ularning sirli shivirlashayotgani qulog‘iga tasodifan chalinib qolganida g‘ashi kelardi. „Bir-birining ko‘ziga tikilib aldashyapti, – deb o‘ylardi u jirkanch bir tuyg‘udan ijirg‘anib. – Mana shu qiz hozir bu yigitning qulog‘iga shivirleyapti. Ertaga labi sovumasdan turib, boshqasini o‘psa ajab emas...“

Iqbol xola yoz kelishi bilan to‘y harakatini boshlab yubordi. Uzoq xolavachchasining E‘tibor degan qizini hadeb maqtaydigan bo‘lib qoldi. Anvar onasining gaplarini eshitganida zaharxanda kulib qo‘ya qolardi. „Rost-da, maqtasa-maqtayvermaydimi, unga nima!“

Bugun ertalab ham onasi hadeb gapiraverib, uning jahlini chiqarib yubordi.

Anvar onasi bilan achchiqlashib qoldi. „Uylanmayman, vassalom!“

U hozir ham yo‘lakdan og‘ir-og‘ir qadamlar bilan borarkan, o‘sha dilxunlikni esladi. „Nima qilsin, axir, onasida nima gunoh? U ham to‘y ko‘rsam, orzularim ushalsa deydi-da...“

Anvar musiqa tahririyati eshigiga yetganda, allakim chiqqanini eshitib, to‘xtab qoldi. Burilib qaradi-yu, yo‘lak muyulishida, kattakon toshoyna oldida turgan Alimardonni ko‘rib, yuragi sirqillab ketdi. Alimardon konsertga kelgan bo‘lsa kerak, qora kastum kiyib olgan, o‘sha haqoratli tabassum bilan iljayib, sigareta chekib turardi.

Anvar o'shandan beri u bilan gaplashmas, ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q edi. Uni odamlarga nafrat bilan qarashga o'rgatgan, butun orzularini chil-chil qilgan, eng ulug' baxtini tortib olgan mana shu emasmi, axir?! Do'st bo'lib qo'yniga kirib, yuragini yulib olgan shu emasmi?!

Anvar qo'li asabiy qaltirayotganini sezib, ushlab turgan qog'ozni shartta ikki buklab shimining cho'ntagiga solib oldi-yu, uning yaqin kelishini kutib turdi.

Alimardon hech nima bo'lmaganday jilmayib yaqinlashdi-da, qo'l uzatdi.

– Chaqirsam ham qaramaysan... Shunchalik qasding bormi?

Anvarning ko'ziga u hozirgina o'ljasini yeb, labini yalab turgan bo'riday ko'rinib ketdi. U bilan pachakilashib o'tirgisi kelmadi.

– Qo'lingni tort!

U ovozi titrab ketganidan afsuslanib, yuzini chirt o'girdi.

– Voy-bo'! – Alimardon yana hech nima bo'lmaganday kuldi. Uning beparvo kulgisi Anvarning yuragini o'rtab yubordi. O'zini g'olib his qilayotganini ovozidan bilib, azob cheka boshladi. – Qachon uylanasan?

Anvar nafrat bilan burilib qaradi-yu, Alimardonning hamon kulib turgan ko'zlariga to'qnash keldi.

– Ishing bormidi? – dedi u g'azabdan ko'zlarini qisib.

Alimardon yana kuldi.

– To'yingda bir xizmat qilay degan edim-da...

Anvar bir nafas ikkilanib turdi-da, aytmasligim kerak, deb turgan gapi og'zidan chiqib ketdi.

– Avval katta pul berayotgannikiga borib tur-chi...

Bu gap Alimardonga shunchalik ta'sir qilishini bilma-gan edi. Alimardonning ko'zlaridagi tabassum birdan o'chdi. Atrofga sergaklanib qarab oldi-da, kinoyali ohangda gap qildi:

– Nima, studiya xo'jayinlariga chaqmoqchimisan?

Qiziq, bu narsa Anvarning xayoliga ham kelmagandi. U to'satdan ko'nglida bir yengillik his etdi-yu, yana aytmasligi kerak bo'lgan fikrni aytib yubordi:

– Xotirjam bo‘l, xoinlikni yomon ko‘raman. Lekin o‘zing qanoting chiqmasdan turib uzoqqa uchmoqchisan, bola! Ehtiyot bo‘l, sho‘ng‘ib ketmagin tag‘in.

Keng yo‘lakda yana Alimardonning g‘olib kulgisi yangradi.

– Aytaver, qo‘rqadigan joyim yo‘q. Televizorga chiqmasam, bir yerim kamayib qolmaydi. Allaqachon estradaga ishga kirganman.

Anvarning quloqlari shang‘illay boshladi. Uning oxirgi gaplarini eshitmay, burilib ketaverdi. U o‘zini bosib ololmas, hadeb titrardi.

* * *

Yozga chiqib Alimardon ishni katta qilib yubordi. Ota-bobosidan qolgan paxsa devorli bir uy, bir ayvonni buzdirib, yangi, sakkiz xonali, oldi oynaband ayvonli uy soldirdi. Pul bo‘lsa changalda sho‘rva, deb bejiz aytishmagan ekan. O‘sha pastak, eski eshikni oldirib tashlab, o‘rniga yaxshi niyat bilan mashina kiradigan darvoza qurdirdi. Bahorda Anvar unga „Bir kuni sho‘ng‘ib ketasan“, deganda yanglishgan ekan. Alimardon pastga emas, kun sayin yuqoriga parvoz eta boshladi. Tole uning oldida hamma gulshanlarning darvozasi baravar ochib yubordi. Endi Alimardon To‘rayevning nomi kunora radioda yangrar, televizor ekranida qoshini xiyol chimirib, jilmayib turgan chiroyli chehrasi tez-tez ko‘rinib qolar, dilrabo ovozi bilan odamlarning yuragini larzaga solar, har bir uyning derazasidan uning tiniq ovozi eshitilar, magnitofon lentalar Alimardonning qo‘shiqlari bilan to‘lib ketgan edi. Odamlar bir-birini: „Yuring, falonchining to‘yiga Alimardon To‘rayev kelarmish“, deb shoshirishar edi. Ha, u kamolot pog‘onalaridan tez, ishonch bilan ko‘tarilib borardi.

Bugun konsert yo‘qligi uchun Alimardon uyda qoldi. Kun bo‘yi o‘z xonasidan chiqmay yangi qo‘shiq mashq qildi.

Rejissor, tomoshabinlar oldida o‘zingizni yaxshi tutolmay-siz, deb koyinganidan buyon u toshoyna qarshisida turib, ashula aytishni qayta-qayta o‘rganar edi. Hozir ham xuddi sahnaga

chiqqudek yengil odimlar bilan yurib, burchakdagi toshoyna oldiga keldi. Ko'zgudagi o'z aksiga qarab ohista ta'zim qildi-da, mayin jilmayib qo'ydi. Keyingi oylarda u to'lishgan, salobatli bo'lib qolgan, ko'zlarida baxtiyorlik nuri barq urib turardi.

Uyning yaqinda sirlangan, bo'yoq isi anqib turgan shif-ti ostida tor sadolari titrab ketdi. Alimardon torni zavq bilan berilib-berilib cherta boshladi, barmoqlari pardalar ustida ko'z ilg'amas ildamlik bilan ko'char, go'yo kuy o'z-o'zidan quyulib kelardi. Yana bir lahzadan keyin tor sadolariga uning shirali ovozi ulanib ketdi:

Daryo to'lqin, suvlar toshqin, o'tolmasman...
Otim oriq manzilinga yetolmasman...
Otginamni oriq qilgan shu soyning toshi,
Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...

Alimardon qadim zamonlardan buyon xalq tilidan tushmay kelayotgan bu satrlarda o'zgacha bir joziba, yashirin, iboli tuyg'ular borligini darhol payqab olgan, o'zi bastalayotgan kuyda mana shu pokiza tuyg'ular butun go'zalligi bilan yarq etib ko'rinishini xohlar, yurak-yurakdan to'lqinlanib aytardi:

Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...

U hamon tor chertarkan, orqa tomondan Muqaddam kelganini payqadi. Ammo chalishdan to'xtamadi. Nihoyat, qo'shiq tugadi.

– Nima gap? – dedi Alimardon Muqaddamning o'ziga emas, oynadagi aksiga qarab.

Muqaddam ozib, qorayib ketgan edi. Alimardon uning yelkalari osilib tushgan ko'ylagiga, ichiga cho'kkan ko'zlariga bir lahza tikilib qoldi. Bahorda Muqaddamning bolasi tushgan, o'shandan buyon ko'zlaridan ana shunday ma'yus bir ifoda arimaydigan, kamgap, g'amgin bo'lib qolgandi. Ammo Muqaddam har qancha tashvish chekmasin, Alimardon parvo qilmasdi. Nima qipti? Farzand bilan davlat – qo'lning kiri. Kelaveradi ham, ketaveradi ham. Ishdan qolmaslik kerak.

– Nima deysan? – Alimardon keskin burilib qaradi-yu, xotining lablari pırpıray boshlaganidan, qo‘pol gapirib yuborganini sezdi. – Xalaqıt bermagın-da, – dedi mayınroq qilib.

Muqaddam eridan ko‘z uzmay turib yutındı. Chamasi, bir amallab o‘zını bosib oldı shekilli, bo‘g‘ıq ohangda, shıvir-lagudek bo‘lib gapırdı.

– Ovqat sovıb qoldı.

– Hozır, hozır, – dedi Alimardon betoqat bo‘lgandek shoshılıb.

Muqaddam indamasdan burilib ketdı. Uning shıppagı ayvonda shap-shap qilib turdı-da, narıgı xonaning eshıgı ochıl-ganı eshıtıldı. Alimardon tag‘ın tornı qo‘liga oldı. Hamma nar-sanı unıtıb, qo‘shıqni qaytadan boshladı.

* * *

Alimardon uchastkasını daranglatıb bıtırıb oldı. Qovun po‘choq yerga tushdı. Za‘faron qanotlarını unsız sılkıtıb yana kuz kırdı. Ko‘chalar ustıda chinorlarınıg yırık-yırık yap-roqları kapalakday pırpıradı. Oqshomları yo‘lkalar chetıda yoqılın xazonnıg yupqa tutunı havoda uzoq kezıb yuradı-gan bo‘ldı. Bog‘lar, xıyobonlar jımbı qoldı. Shaharlıklarıng ko‘pı terınga – hasharga jo‘nab ketganı uchun Toshkent xıyla osuda, tramvaylarda odam sıyrak.

Alimardon tramvaydan tushdı-da, estrada teatri tomonga yengıl, dadıl qadamlar bılan yurıb ketdı. Quyosh endıgına botgan, konsert boshlanay deb turar edı. U oyog‘ı ostıda qı-sırlagan xazonları bosıb-yanchıb borarkan, teatr bınosınıng oldıdagı oynaband taxta qarshısıda bır zum to‘xtab o‘tdı. Kat-takon, ranglı afıshada bugun konsert beradıgan artıstlarıng nomı yazılın edı. U o‘z rasını topdı. Uning nomı artıst-larıng eng oxırıga mayda harflar bılan tırkab qo‘yılın edı.

Alimardon lablarını qımtıb yutındı. Kassa oldıda uyma-lanıshın odamlarga bır qaradı-da, yana o‘shanday yengıl qa-damlar bılan teatr bınosını aylanıb o‘ta boshladı.

Yosh chinor daraxtlari qalin xazon to'kkan kichkinagina bog'chadan o'tib, teatrning orqa eshigidan ichkari kirdi. Shoshilmasdan sement zinalardan ko'tarildi. Yo'laklar nim qorong'i, zaldagi hashamlar bu yerda ko'rinmas, devorlar zax edi. Qayerdadir doira taraklar, pianino tovushi eshitilib turardi.

„Repetitsiya qilishyapti“, deb o'yladi u sahna tomonga yurib borarkan. Yana bir yo'lakdan o'tib, yonboshdagi eshikni taqillatdi. Ichkaridan yo'g'on, bosinqi ovoz eshitildi:

– Kiring!

Alimardon ovoz egasini tanidi: „Zufar Xodiyevich! Hozir urishadi!“

U eshikni shaxt bilan ochdi. Jajjigina xona billur qandildan yog'ilayotgan nurga to'lgan, devorlardagi kekxa artistlarning suratlari ramkalar oynasi yaraqlab turardi.

Zufar Xodiyevich kattakon stol orqasida kresloga og'ir gavadasi bilan cho'kib o'tirar, sigaret tutatar, oppoq, siyrak sochlari chiroq nurida yaltillardi. Uning xiyol ochiq lablaridan og'zidagi uch-to'rt tilla tishi ko'rinib turar, chehrasida charchoq bir ifoda bor edi.

– Yana kech qoldingizmi? – Zufar Xodiyevich kafti bilan tamaki tutunini haydab koyidi. – Shu odatingizni qachon tashlaysiz?

Alimardon indamay turaverdi. U teatr badiiy rahbarining qattiqqo'lligini, unga gap qaytarolmasligini bilar, ammo uning yoshlarni yaxshi ko'rishidan ham xabardor edi. U Alimardonni ishga olayotganda hamma sharoitni yaratib berishga, gastrollarga olib chiqishga va'da bergan edi. Chindan ham va'dasini bajardi. Alimardon yoz bo'yi respublikaning hamma viloyatlariga borib keldi...

U tag'in nima derkin, degan xayolda Zufar Xodiyevichdan ko'z uzmay turaverdi.

– Grimxonaga kirmaysizmi? – Zufar Xodiyevich tag'in o'sha koyigan ohangda.

Alimardon hech nima demay, keskin burildi-da, chiqib ketdi.

U sahna chekkasiga surib qo'yilgan parda oldiga bor-ganida konsert qizib ketgan edi. Yana ikkita nomerdan keyin konferansye qiz shoshilib kelib, uning qulog'iga shipshidi: „Tayyormisiz? Chiqing!“ U Alimardonning javobini ham kut-may sahna o'rtasiga borib e'lon qildi:

– Navbat yosh xonanda Alimardon To'rayevga!

Gulduros qarsaklar zalni titratib yubordi. Uning nazarida odamlar qo'shiqning nomini eshitishga ham toqat qilmay, o'zini ko'rishga oshiqardilar. Alimardon yengil, ishonchli qa-damlar bilan sahna o'rtasiga – mikrofon oldiga yetib bor-di. Hamon havoni qarsaklar titratar, u yurib emas, mana shu qarsaklar qanotida uchib sahnaga chiqqandek edi. Alimar-don bir vaqtlar sahnada qay holatda ko'rinishni orzu qilgan bo'lsa, hozir xuddi o'sha holatda edi. U chust do'ppi, qora kastum-shim kiyib olgan, oppoq ko'ylagining kraxmallangan yoqasi tagida chiroyli yaltiroq galstuk yonib turardi. U bir vaqtlar telestudiyada ilk bor qo'liga ushlab tomosha qilgani-dan ham yaxshiroq tor ko'tarib turardi.

Alimardon qoshini biroz chimirib jilmaydi-da, ohis-ta ta'zim qildi. Zal yana guvullab ketdi. Torning jozibador yangroq sadolari kungurador shiftlarga urila boshlagach, zal sekin-sekin tinchib qoldi. Alimardon o'zi bastalagan yangi qo'shiqni ayta boshladi. Chehrasida hamon o'sha tabassum bilan zavqlanib, yurak-yurakdan erib aytdi.

Qo'shiq tugashi bilan zal yana dengiz to'lqiniday gu-vullab ketdi. Alimardon ohista burilib ketarkan, tag'in bir marta ta'zim qildi. Ammo zal tinchish o'rniga battar to'lqinlanib, odamlar o'rnidan turib ketdi. Konferansye qiz uni qo'lidan yengilgina tortib, yana mikrofon oldiga yetak-lab bordi.

– „Yigit qo'shig'i!“ dedi u jarangdor ovozd.

Zal suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Alimardon yana o'sha tabassum bilan, yana o'sha zavq bilan kuyladi.

Qo'shiq oxirlashi bilan shiftlar tag'in larzaga keldi. U bu safar chuqur ta'zim etdi-da, parda orqasiga o'tib ketdi.

Konferansye navbatdagi artistlar nomini e'lon qila boshlagan edi, tomoshabinlar guvullab, tartibsiz qarsak chalib yuborishdi. Zum o'tmay qarsaklar bir me'yorda takrorlanuvchi gurs-gurs etgan ovozga aylanib ketdi. Odamlar navbatda chiqayotgan xonandalarning peshanasiga mix qoqayotganday baravar qarsak chalishar, Alimardonning o'zini talab qilishardi.

Alimardon hayajonlanib ketdi. Konferansyening e'lon qilishini ham kutmay, tez-tez yurib sahnaga chiqib bordi. Zalga emas, sutdek oqish nur to'kib turgan qandillarga qarab yangi qo'shiq boshladi.

U olqishlar ostida sahna chetiga chiqishi bilan Zufar Xodiyevichning g'azabdan chaqnagan ko'zlariga to'qnash keldi.

– Insof bormi sizda? San'atkorlik odobi bormi?

Alimardon indamadi. Uning ko'zlariga dangal tikilib turib, masxarali kulib qo'ydi.

Zufar Xodiyevich o'zini bosib ololmas, Alimardon bemalol jilmayar, pastda esa zal hamon guvullar, Alimardonni talab qilib qiy-chuv ko'tarardi.

Alimardon mana shu sahna tez kunda butunlay o'ziniki, yolg'iz o'ziniki bo'lib qolishini hozir aniq bildi.

* * *

Alimardon sahna chekkasida, og'ir zangori baxmal pardaning tirqishidan zalni kuzatib turardi. U har safar sahnaga chiqishdan oldin shunaqa – bir chekkada turib zalni tomosha qiladi, ko'ngli shodon tuyg'ularga limmo-lim to'lib ketadi.

Zaldagi kattakon qandil hali o'chmagan, tomoshabinlar qatorlar o'rtasidagi yo'lakdan shosha-pisha o'tib, o'z o'rinlarini qidirishardi, hali ochilmagan sahna tomonga orziqib qarab-qarab qo'yishardi. Ular har xil: yosh, qari, erkak, ayol... Qandaydir bir yarim-ikki yil ichida butun O'zbekistonni hayratga solib qo'ygan Alimardon To'rayevni ko'rishga, dildor ovozini eshitishga uzoq-yaqindan kelgan odamlar shular.

Alimardon miyig'ida kulib qo'ydi. Ha, u shod edi! U chindan ham butun O'zbekistonni zabt etganini bilar, bil-

gan sayin quvonardi. Odamlar butunlay mahliyo bo'lib qol-ganga o'xshardi. Uning konsertiga eng chekka qishloqlardan kelishar, ikki hafta ilgari olib qo'yilmasa biletlar topilmas, shunda tomoshabinlar har bir biletni o'n barobar bahosiga bo'lsa ham olib tushishardi.

Alimardon o'zining nima uchun bunchalik tez tanilib ket-ganligini biladi. U odamlarning yuragini qitiqlash sirlarini o'rganib oldi. Qo'shiqdagi har bir yangi ohang tomoshabin-ning zavqini toshirib yuborishini, har bir harakat olam-olam olqish hadya etishi aniqligini tushunib qoldi. O'zi bastalayot-gan kuylarda quvonch bilan iztirob, muhabbat bilan sadoqat – hamma-hammasini mujassam etishga urindi. Har bir ashulada hech qachon takrorlanmas ohang bo'lishi, qo'shiqlarning har bir so'zi tinglovchining yurak-yuragiga yetib borishi uchun harakat qildi. Shu tufayli shinavandalar uni ehtiros bilan ol-qishlaydigan bo'ldilar.

Alimardon to'ylarga ham ko'p qatnaydi, ammo arzon-ga-rovga emas.

Zalda gulduros qarsaklar yangradi. Alimardon yana parda tirqishidan mo'raladi. Oldingi qatorlar liq to'lgan, orqaroqda esa joyini topolmagan tomoshabinlar zir yugurishar edi. U soatiga qarab qo'ydi. Tomosha boshlanishiga besh minut qol-gan. U burilib ketayotganida yana zal guvullay boshladi.

Mana, ikki yildirki, Alimardon shu qarsaklar havosida uchib yuribdi. U xuddi oyga o'xshardi. Kun sayin tiniqlashib, kun sayin yorqinlashib, balandlab borardi. Uning silliq taral-gan sochi ustidan chust do'ppi kiyib, qoshini xiyol chimirib, tabassum qilib turgan surati allaqachon hammaga tanish bo'lib qolgan, afishalar nomi o'qlog'iday harflar bilan yozilib chiqar edi.

U pardoixonaga kirib, o'zini yana bir marta ko'zguga sol-di-da, torini ko'tarib qaytib chiqdi.

Sahna pardasi sekin-sekin ochila boshladi. Zaldagi katta qandil o'chdi. Chekka-chekkadagi eshiklar ustida yonib tur-gan qizil chiroqlargina qoldi.

Konferansye e'lon qilgandan keyin Alimardon sahnaga chiqdi. Kungurador shiftlar qarsak sadolaridan titrab ketdi, butun zal hayajondan larzaga keldi. Alimardon har tarafga qarab ta'zim qildi. Olqishlar yana ham kuchayib ketdi. Shu ko'yi besh daqiqagacha to'xtamadi.

Alimardon torini ko'ksiga bosib, tomoshabinlarga zimdan qarab qo'ydi. G'ira-shirada hayajondan qizargan chehralar ko'rinadi, orqa qatordagilar o'rnidan turib ketgan, hamma baravar chapak chalar edi.

Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirganidan keyingina zal sekin-sekin tinchiy boshladi. O'sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi:

...Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...

U ko'zlarini xiyol yumib olgancha qo'shiqni zavq bilan aytdi. Ashula tugamasdanoq zal titrab ketdi. Uning sahnadan jilishiga hech yo'l qo'ymasdilar.

Konsert oxirlab qolganida u charchadi. Boshi qizarib, tor simlari uzra surilgan barmoqlari zirqiray boshladi. Ammo ikkinchi bo'lim tamom bo'lgunicha ham hech kimga gal bermadi. Bisotidagi yangi qo'shiqlarning hammasini aytdi. Uning dilrabo ovozida goh vasl quvonchi yangrar, goh hijron iztiroblari ingrar, goh shodon hazil ohanglari mavjlanardi.

Nihoyat, konferansye konsert tamom bo'lganini e'lon qildi. U tomoshabinlar bilan xayrlashish uchun sahnaga chiqqanida hamma yoq yana dengiz toshqiniday g'uvullab ketdi.

Sahna chetidagi zinadan guldasta ko'targan qator-qator odamlar chiqib kelishardi. Eng avval uning oldiga kattakon guldasta ko'targan chiroyli juvon yetib keldi. Alimardonni quchoqlab, qo'lga gul tutqazdi. Shu ondayoq u chakkasida ayolning titroq issiq lablarini tuydi. Dimog'iga allaqanday xushbo'y atir isi gupullab urildi.

Alimardon qayrilib qaraguncha, boshqa odamlar uni o'rab oldi. U quchog'iga to'lib, ko'z o'ngini to'sib qolgan gullarni

qayerga qo'yishini bilmas, shu tobda oyog'ining tagigacha gulga to'lib ketgan edi.

Parda yopilganidan keyin gullarni konferansye qizga topshirdi-da, nim qorong'i, tor yo'lakdan o'tib hovliga chiqdi. Galstugini yechib, cho'ntagiga soldi-da, yoqasidagi tugmalarini tushirib, namxush kuz havosidan to'yib-to'yib nafas oldi.

Asfalt yo'lkalar qorayib qolganini, shivalab yomg'ir yog'ayotganini shundagina bildi.

Poshnalari bilan qorong'i sukunatni charsillatib titratgancha yo'lkadan o'tib, bog' chekkasidagi temir panjara oldiga keldi. Panjaraning pastak eshikchasini ochib, ichkari kirdi, „Volga“sini motorini gurullatdi.

Alimardon mashina haydashni maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq amakisidan o'rganib olgan edi. O'shanda g'alati ishlar bo'lgandi.

Bir yili kolxoz raisi, boshida eri yo'q, deb onasini anhor yoqasidagi katta bog'ga qorovul qilib qo'ydi. O'sha yili uzum yaxshi bo'ldi. Yozda Alimardon har kecha katta bog'da yotib qolardi. Bir kecha chaylada uxlab yotganida amakisi uyg'otdi: „Darvoza yonida mashina turipdi. Uzumlarning yaxshi-yaxshisidan tanlab uz...“ dedi. Alimardon endi og'iz ochmoqchi edi, amakisi gapirtirmadi: „Aytganimni qilavergin, mashina haydashni o'rgataman“. Ikkovlari qo'lchiroq yoqib, ishkonga kirishdi. Amakisi mashinani haydab ketar ekan, tayinladi: „Hech kimga aytma. Velosiped olib beraman!“

O'sha kundan boshlab Alimardonning ishi yurishib ketdi. U onasi uyda qolgan kechalari amakisi bilan ishkorm oralab, kunduzlari „GAZ-51“ning kabinasidan chiqmaydigan bo'ldi.

O'sha yili kuzda u yettinchi sinfga soat taqib, velosiped minib boradigan bo'ldi.

Kelgusi yil yozida Alimardonning yana omadi keldi. Ammo endi u pishiq bo'lib qolgan edi. Amakisidan uzum haqining yarmisini talab qiladigan bo'ldi. Hamma ish silliq borayotgan edi-yu, kuzda lop etib amakisi qamalib ketdi. Alimardon amakisining shaltog'iga o'zi ham toyib ketishidan

qo'rqardi. Xayriyat, hech nima qilmadi. Lekin endi ularni katta bog'ga yaqin yo'latmay qo'yishdi. Qiziq, amakisi o'n yilga qamalganini eshitganida achinmadi ham. Bahonada o'zining bir nimalik bo'lib qolgani, mashina haydashni o'rganib olganiga suyundi.

Yaqinda „Volga“ sotib olganida, o'shanda mashina haydashni o'rganib qo'ygani yana qo'l keldi. Naridan beri haydovchilik kursini bitirib, guvohnomalik bo'lib oldi. U yangi uylanganida Muqaddamni qanchalik yaxshi ko'rgan bo'lsa, endi mashinasini ham shunchalik suyardi. Hozir ham faralarining yorqin nurida asfalt yo'lakni yoritib, mashinani avaylab katta ko'chaga olib chiqdi. Teatrdan qaytayotgan tomoshabinlar to'dasini yorib o'tdi, shiddat bilan yelib ketdi.

Muyulishga yetganda ikki qavatli uy oldida turgan oqish „Volga“ni ko'rdi. Mashinaning eshigi ochilib, oq xalat kiygan kishi tushdi-da, kafti bilan chiroqdan ko'zini pana qilib chekindi. „Tez yordam“ ekan, deb o'yladi Alimardon yo'ldan ko'z uzmay borarkan. Bir lahzada chetlab o'tishni o'yladi-yu, shu ondayoq fikridan qaytdi. Tezlikni pasaytirmasdan yelib boraverdi. Ikkala mashina yonma-yon kelganida yo'l o'rtasidagi halqob suv sachrab ketdi. Alimardon „Tez yordam“ga yopishib turgan kishining xalati rasvo bo'lganini, orqadan qo'l siltab allanima deb koyiganini ko'rib qoldi. Lekin parvo qilmadi. „Jon kerak bo'lsa chetroq tursin-da!“

* * *

Anvar Bo'stonga qanday kelib qolganini o'zi tushunmasdi. Kim bilsin, balki, o'tmish xotiralari bilan xayrlashish uchundir...

Qorong'i tushib qolgan, havo bulut, yurakni qon qilib yuboruvchi kuz yomg'iri boshlanay-boshlanay deb turardi. U qishloq ko'chalaridan o'tib borarkan, hamma yoq o'zgarib ketganini ko'rdi. Avvalgi egri-bugri tor ko'chalar o'rnida yangi asfalt yo'l ochilgan, qator-qator simyog'ochlar cho'zilib ketgan edi. Negadir unga qishloqning ancha o'zgarib qolgan

yangi manzarasi yoqmadi. Avvalgi bog‘-rog‘larning ko‘pi yo‘q bo‘lib ketibdi. Kishining nafasini qaytaruvchi shahar havosi sezilib qolibdi. Bir paytlar o‘zining bolaligi o‘tgan hovli o‘rnida to‘rt qavatli uy qurilibdi. Yong‘oqzor yo‘qolib ketibdi.

U ko‘cha chetidan sekin-sekin yurib borarkan hozir Muqaddamni ko‘rishini bilar, ammo qay holatda uchratishni, o‘zini ko‘rganda uning qanday ahvolga tushishini tasavvur eta olmas edi.

Har odamda ham boshqa hech kimda topolmaydigan biron fazilat bo‘larkan. U E‘tibordan – o‘sha onasi ko‘p eslaydigan qizdan Muqaddamda yo‘q bir fazilatni topdi. E‘tibor Yadro institutida ishlar, jiddiyligi, oqila qiz ekanligi bilan Anvarga yoqqan edi. Anvar bu qiz o‘zini yaxshi ko‘rib qolganini bilar, ammo o‘zi uni sevadimi, yo‘qmi, bilolmas edi... Baribir, endi hamma narsa hal bo‘lgan, ortiqcha ikkilanib o‘tirishning hojati yo‘q edi.

U xayol bilan Alimardonning eshigiga kelib qoldi. Alimardon yangi uy solganini eshitgan, ammo bunchalik deb o‘ylamagan edi. Pishiqlik g‘ishtdan boloxonador qilib solingan kattakon uy qaddini baland tutib turar, derazalariga temir panjaralar to‘silgan edi.

Anvar peshtoqida chiroq yonib turgan jimjimador darvoza oldiga yetganida, birdan yuragi gupullab ketdi. Shundagina ko‘nglining bir chekkasida kul bosib yotgan cho‘g‘ hamon o‘chmaganini, bu yerga bekor kelganini angladi. Ammo ichki bir kuch – Muqaddamni ko‘rish orzusimi, boshqa bir narsami, majbur etdi-yu, eshikni taqillata boshladi. Keyin darvoza chekkasida oppoq tugmacha turganini ko‘rib qoldi-da, xijolatdan tugmachani bosdi.

Ichkaridan kalishning shap-shap etgan tovushi darvozaga yaqinlashdi. Zum o‘tmay ayol kishining tovushi eshitildi.

– Mardon aka...

„Muqaddam!“ Anvar yuragining allaqayerida nozik bir tor jaranglab ketganini sezdi. „Nega keldim? Mayna bo‘lganimi? Yo maqtanganimi, qasos olganimi?“

U tomog'i qurib, yutinolmay qolganini, lablari o'z-o'zidan piri-piray boshlaganini payqadi-yu, qat'iy pichirladi:

– Ketish kerak!

Yo'q, u kechikkandi. Darvoza ichiga o'rnatilgan eshik g'iyqillab ochildi.

– Voy!

Anvar Muqaddamning birdan cho'chib ketganini, hurkib boshini ichkari tortganini ko'rdi. Ikkovi bir-birlariga tikilib qolishdi. Anvar bir qarashdayoq uning rangi o'chib ketganini, eshik tutqichidan ushlab turgan qo'li titraganini sezdi. Shundan keyingina uning ancha oriqlab, qorayib qolganini, ko'zlarida avvalgi shodlik uchqunlari yo'qligini payqadi. Muqaddam boshiga kapron ro'mol tashlab, guldor xalat kiyib olibdi.

Chamasi, u Anvardan ko'ra ilgariroq o'ziga keldi. Yuziga iliq bir qizillik yugurdi-da, jilmayib salom berdi.

– Keling.

U eshikni lang ochib, ikki qadam orqaga chekindi.

– Keling, – dedi yana sekingina.

Shu tobda Anvarning ko'zi uning tugmalari ochiq xalatinga tushdi. „Ikkiqat ekan!“

Qiziq, Anvar o'zida hali hech sezilmagan ajib bir yengillik his etdi. Bu odam o'ziga butunlay begona ekanligini, kerak ham emasligini butun vujudi bilan birdaniga tushundi-yu, qalbida hozirgina qayta lovullagan o't to'satdan so'ndi. U qandaydir loqayd, xotirjam bo'lib qoldi.

– Alimardon qayerda? – dedi bosiqlik bilan.

Muqaddam ham uning ko'nglidan kechgánlarning hammasini birdan tushundi shekilli, yana jilmaydi. Bu tabassum sevikli kishisiga emas, ko'proq singilning akasiga qarashiday erkin, sokin edi.

– Konsertda edilar...

– Shanba kuni to'yga boringlar.

Anvar Muqaddamning chehrasida hayrat paydo bo'la boshlaganini payqadi. Ammo shu ondayoq u yana jilmaydi.

– Tabriklayman...

Anvar bu yerda uzoq turmasligi kerakligini bilib, tezgina xayrlashdi-da, jo'nab ketdi. U Muqaddam orqasidan tikilib turganini bilar, shuning uchun qayrilib qaramas edi. Anchadan keyin eshikning taraqlab yopilganini eshitib, o'girilib qaradi. Ostona bo'm-bo'sh edi.

– Ikkiqat ekan... – u yuragining yarasiga malham topilganidan shod bo'lgandek, yana bir bor pichirladi.

Shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Havoda tuproq isi gurkiradi. U Qonqus bo'yiga kelganda yomg'ir tezlashib ketdi. Qishloq o'zgacha tus olgan bo'lsa ham anhor o'zgarmabdi. Qirg'oqda hamon o'shanday qamishzor shovullab yotar, suv hamon jimgina oqar edi. Anhor bo'yidagi tollar ham joyida turibdi. Faqat bittasining kattakon shoxi sinib tushib, bir uchi suvga osilib qolibdi. To'lqinlar g'ira-shira zulmat qo'ynida tol shoxlariga urilib shovullaydi, yomg'ir tomchilari anhorga unsiz shivalab tushadi.

Anvar yomg'irdan sirg'anchiq bo'lib ketgan yakkacho'p ustida anchagacha suvga tikilib turdi-da, avaylab yurib, narigi sohilga o'tib oldi. Oxirgi marta anhorga qarab qo'ydi-da, tez-tez yurib ketdi.

* * *

Alimardon ta'bi tirriq bo'lib keldi. Mashinasini hovliga olib kirdi-da, o'rtadagi sement maydonchada to'xtatib, mashinadan tushdi. Yozlik shiypon peshtoqidagi chiroqni yoqdi. Rezinka ichakni vodoprovod jo'mragiga ulab, mashinani yuva boshladi.

Yomg'ir shivalab yog'ar, ust-boshi shalabbo bo'lib ketgan, nafasi qisar, ammo o'jarlik bilan rezinka ichakni qo'yib yubormasdi.

– Loaqal palto kiyib olsangiz-chi, shamollab qolasiz!

Alimardon xotining tovushini eshitib, burilib qaradi. Muqaddam bir tabaqasi ochilgan darvoza oldida eriga achinib qarab turardi. U o'tgan safar qo'rqib qolgani uchunmi, endi bo'yida bo'lganidan beri o'zini ayniqsa ehtiyot qilar, ishdan ham bo'shagan edi.

– Paltongizni olib chiqaymi? – dedi u hamon derazadan qarab turarkan.

– Kerakmas! – Alimardon rezinka ichakning uchini qattiq qisdi. Suv tizillab otilib, mashina eshigiga yopishgan loyni yuvib tusha boshladi.

Deraza tabaqasi ohista yopildi.

– Bilganini qilmaydimi! – pichirladi Muqaddam o'kinch bilan. U divanga borib o'tirdi-da, chala qolgan kashtasini tika boshladi. U o'zini chalg'itishga, ko'nglidagi g'am soyasini haydashga harakat qilardi.

Mana, to'ydan buyon ikki yil o'tibdiki, shu azob. Alimardon hamisha u aytganining teskarisini qiladi. Bir og'iz ortiqcha gapirib ko'rsin-chi! O'sha qish kechasida aytgan gapini qaytarolmaydi deysizmi?

Nima qilsin? Dardini kimga aytsin? Otasigami? Yo onasigami? „O'zing ko'ngil qo'yib tekkansan“, deyishmaydimi?

U bahorda bolasi tushganidan keyin juda cho'kib qolgan edi. Yo'q, xayriyatki, tole yana farzand ato qildi. Faqat erining insofga kelmagani o'rtaydi Muqaddamni. Bugun Anvar kelib ketganidan keyin Mardon akasining siltab-siltab gapirishi nimagadir yana og'irroq botdi unga...

...Alimardon mashinasini garajga kiritib qo'yguncha yarim kechadan oshib ketdi. U vannaga tushdi. Shalabbo bo'lib ketgan kiyimlarini almashtirdi-da, o'z xonasiga kirdi.

Devorga qimmatbaho gilamlar qoqilgan, shiftdagi katta-kon billur qandil uy ichini munis, erkalovchi nurlarga to'ldirgan edi.

Alimardon deraza oldida turgan royal qopqog'ini ochib, chala boshladi. Mashhur „Oqqush ko'li“ baletining jo'shqin ohanglari xonani to'ldirib yubordi. Alimardon undan har gal yangi ohang topar, kuyning sehrli olamiga kirib ketardi.

Bir mahal u eshik ochilganini ko'rib, yonlamasi buriilib qaradi. Eshik oldida Muqaddam turar, aftidan, bir nima demoqchi bo'lar, ammo eriga xalaqit berishdan cho'chir edi.

– Nima gap? – dedi Alimardon, nihoyat, notadan bosh ko‘tarib.

– O‘rtog‘ingiz keldi...

Alimardon kipriklarini pirlpiratdi:

– Kim?

Muqaddam bir nafas jim qoldi-da, sekingina aytdi:

– Anvar.

– Ki-i-m? – dedi Alimardon cho‘zib. Ko‘zlari chaqna ketdi. Muqaddam indamay turaverdi.

– Nima xizmatlari bor ekan?! – dedi Alimardon jerkib.

– To‘y qilayotgan emish. – Muqaddam eriga xotirjam tikilib turib qo‘shib qo‘ydi: – Shanba kuni...

Alimardon uning kimga uylanayotganini bilgisi keldi-yu, so‘ramadi. „Menga nima?“ U Muqaddamning bilinar-bilinmas dog‘lar paydo bo‘lgan chehrasidan ma‘no uqmoqchi bo‘lganday ko‘ziga qarab turib so‘radi:

– Qachon keldi?

– Hali, – dedi Muqaddam yana o‘sha ohangda.

Alimardon indamasdan royal ustiga egildi. Endi challa boshlagan edi, xotining nozik kafti yelkasiga tekkanini sezib to‘xtadi.

– Borasizmi? – Muqaddamning qaynoq nafasi uning qulog‘i ostida pichirladi. – Tayinlab ketdi. – Muqaddam uning sochlarini barmoqlari orasiga olib siladi. Chamasi, u bugun erining o‘ziga mehribonroq bo‘lishini ayniqsa xohlar, bu narsa juda muhimdek tuyulardi.

Ammo Alimardon uning qo‘lini siltab tushirdi.

– Ko‘p suykalaverma!

Muqaddamning xo‘rligi kelib, ko‘zida yosh halqalandi. „Nega hadeb jerkiydi? Nimaga xor qiladi? Axir, u ham umid bilan uyim-joyim deb yuribdi-ku!“

Muqaddam erining ataylab shunday qilayotganini payqadi-da, bir amallab ko‘z yoshini yutib yubordi. Shuncha paytlardan buyon yuragining qaysi bir ko‘chasida yashirilib yotgan qaysar g‘azab tuyg‘usi lop etib yuzaga chiqdi.

– Nimaga siltaysiz? – dedi lablari pirpirab.

Alimardon notadan ko'z uzib qaradi-da, uning gapini eshitmaganday ermak qilib kuldi.

– Anvar akangizni mehmon qildingizmi?

Muqaddam g'azabdan titrab pichirladi:

– Ha! Qildim!

Alimardon boyagidan ham yoyilib kuldi.

– Yig'lab ko'rishgandirsizlar?.. Bir vaqtlar yaxshi ko'radingiz... Sog'inib qolgansiz...

Muqaddam uning yuziga tarsaki qo'yib yuborgisi keldi-yu, zo'r-bazo'r o'zini tiydi. Alam bilan yer tepib chinqirdi.

– Bo'ldi!

U jahldan oyoq-qo'llari qaltirab, erining tepasida turar, boshqa payt bo'lsa yig'lab yuborgan bo'lar, lekin ko'z yoshi ham, o'kinchi ham allaqayoqqa yo'qolgan, uning ko'nglida faqat g'azab qolgan edi.

– Hammani o'zingizga o'xshatmang! – dedi ko'zlari yonib.

Alimardonning rangi bir oqardi-yu, ammo yana o'sha ermak qiluvchi kulgi bilan o'zini bosdi.

– Mayli, boraman, o'sha qo'ymijoz akangizning to'yiga... Sizning ham ko'nglingiz qolmasin...

Muqaddam ijrig'anib yuzini burdi.

– Bormang! Hech kim sizga zor emas!

Alimardon stuldan sekin turdi-da, uning xuddi qulog'i tagida ta'kidladi:

– Mana shuning uchun ham boraman. Albatta, boraman!

Muqaddam qayrilib ham qaramay, eshikni qarsillatib yopib, ayvonga chiqdi. Hamon yomg'ir shivalab yog'ar, hovlidagi yong'oqlar, o'rtadagi shiypon zaxkash zulmat qo'ynida mung'ayib ko'rinar edi.

Muqaddam ayvon derzasining muzdek qirrador raxiga peshanasini bosdi. Shu tobda uning ko'nglida umid ham, quvonch ham qolmagan. Alimardon bilan o'zining o'rtasida kattakon jarlik yotganini, bu jarlik kun sayin chuqurlashib borayotganini sezib turardi.

* * *

Konsert kech tamom bo'ldi. Alimardon har galgiday bu safar ham bufetga kirib konyak ichdi. U foyega chiqqanida yarim kecha bo'lib qolgan, teatrning chiroqlari o'cha boshlagan edi. U tashqariga chiqib ketayotgan edi, garderoxbonada bir ayol tikilib turganini sezib to'xtadi. Katta qandillar o'chgani uchun foye nim qorong'i, hech kim yo'q edi. „Kim ekan bu?“

Ayol ilgakka osig'liq yomg'irpo'shini olmoqchi bo'lar, ammo bo'yi yetmas, oyog'ining uchida cho'zilib talpinardi. U Alimardonga burilib qaradi-da, ko'mak kutganday jilmayib qo'ydi. Alimardon bu tiniq chehrani, bu iliq tabassumni qayerdadir ko'rgandek bo'ldi-yu, ammo eslay olmadi. „Do'ndiq ekan!“ Uning yuragi gursullab urib ketdi. Ayol yana yomg'irpo'shiga talpindi-da, unga burilib jilmaygancha uf tortib qo'ydi.

„Ataylab qilyapti. Garderobchi allaqachon ketib qolgan. Bu ataylab kechikkan“. Alimardonning xayoliga shu o'y kel-di-yu, tez-tez yurib ayolning yoniga bordi.

– Olib beraymi?

– Mayli... – ayol unga qarab tag'in jilmayib qo'ydi.

Alimardon yomg'irpo'shni ilgakdan chiqardi.

– Qani, qo'lingizni uzatib yuboring...

Ayol hamon o'sha tabassum bilan qo'lini orqasiga cho'zdi. Alimardon yomg'irpo'shni kiygizdi-da, bir lahza qo'llarini uning yelkasiga qo'yib, turib qoldi. Ayol ham uning og'ushidan chiqishni xohlamaganday suyanib turgancha tugmalarini qadar, negadir barmoqlari qaltirar edi.

„Barno qiz ekan“, deb o'yladi Alimardon uning yelkasi osha chehrasiga nazar tashlab. Ayol chindan ham barno edi. Jajjigina qabariq lablari, popukday qosh-ko'zi nihoyatda o'ziga yarashar, chiroyli qilib turmaklangan sochining bir cheti peshanasida yarim doira yasab, orqaga qayrilib ketgan edi.

– Kuzatib qo'ysam maylimi? – so'radi Alimardon u bilan yonma-yon eshik tomon yurib borarkan. – Bir o'zingiz... Kech qolib ketibsiz.

Ayol unga sho'x bir nazar tashladi-yu, indamadi. Alimardon shu boqishdanoq uning rozi ekanligini bildi. Ikkovlarining qadam tovushi parketga urilib, jimjit shiftlar ostida aks-sado berib turdi-da, bora-bora tindi.

Havo ochilib ketgan, salqin shamol esar, shundoqqina televideniya minorasining qir uchida pufakday to'lin oy osilib turardi.

– Birpas turing, men... hozir... – Alimardon tez-tez yurib, teatr binosini aylanib o'tdi-da, mashinasi turadigan temir panjara ichiga kirdi. Shosha-pisha cho'ntagidan kalit olib, mashina eshigini ochdi. Motorni gurullatib, ko'z ochib-yumguncha tashqariga chiqdi.

Ayol faralarning yorqin nurida ko'zini pana qilib chetlashdi. Alimardon o'tirgan yerida cho'zilib, o'ng tarafdagi eshikni ochdi.

– O'tiring.

Ayol yomg'irpo'shini shildiratib uning yoniga o'tirdi.

– Sizni qayerdadir ko'rganga o'xshayman, – dedi Alimardon yo'ldan ko'z uzmay borarkan.

– Siz bizdaqalarni ko'rarmidingiz!

Alimardonning ko'nglidagi umid ishonchga aylanib, jilmayib qo'ydi.

– Otingiz nima?

– Klara...

Alimardon katta ko'chaga chiqib olish uchun mashinani chapga burgan edi. Klara surilib kelib unga urildi. Shu ko'yi qayta nari surilmadi. Alimardon badaniga tegib turgan yosh, tarang vujudni sezib, hayajonlanib ketdi, yuragi orziqa boshladi.

Shu tobda ko'chalar ayniqsa kezishli bo'lgan, militsionerlar mototsikli-yu suv sepadigan mashinalardan boshqa hech nima yo'q, ikki qator chiroqlar marjoni mashina istiqboliga yugurib kelardi...

Xadraga yetgandan keyingina qayoqqa borishini so'rashi kerakligi Alimardonning esiga keldi.

– Qayoqqa borasiz, Klaraxon? – dedi xotirjam ohangda gapirishga urinib.

– Chilonzor...

– Yo‘limiz bir ekan.

– Bilaman.

Alimardon unga ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi.

– Qayoqdan bilasiz?

– Sizni bilmagan odam bormi? – Mashina ichi g‘ira-shira qorong‘i bo‘lsa ham Alimardon Klaraning chiroyli ko‘zlarini suzib qo‘yganini payqadi.

– Faqat siz hech kimni bilmaysiz... – Klara bir lahza jim ketdi-da, negadir armonli ohangda kuldi. – Har safar konsertingizga tushaman. Bergan gullarimni olasiz-u, qayrilib ham qaramaysiz.

Alimardon birdaniga konsertda o‘zini o‘pgan ayolni esladi. „Ha, shu ekan-da...“ U indamay kulib qo‘ya qoldi.

Besh qavatli panelli uylardan birining oldiga yetganda Klara sekingina shipshidi:

– Chapga yurasiz...

Mashina parcha-parcha oy nuri sochilib yotgan yo‘lakdan daraxtlar orasiga kirib to‘xtadi. Bir eshikdan Alimardon, narigisidan Klara tushdi.

– Rahmat, – Klara qo‘l cho‘zdi.

Alimardon uning chiroyli, do‘mboq qo‘lini avaylabgina qisarkan, vujudida tag‘in yengil titroq uyg‘onganini sezdi.

– Zinangiz qorong‘i ekan, – dedi u qop-qora og‘zini lang ochib turgan yo‘lak eshigiga qarab. – Chiqqani qo‘rqmaysizmi?

– Sizga baribir emasmi? – Klara hamon uning qo‘lini qo‘yib yubormas, oydinda chehrasi biroz rangsiz, ammo jozibali ko‘rinardi. Alimardon uning qo‘yib yuborgisi kelmayotganini tushundi. Boyadan beri xayolida charx urayotgan fikr yana g‘imirladi. „Besh kunlik dunyoda xotinga xiyonat qilmagan erkak bormi?“

Shartta qo‘lini bo‘shatib, asabiy harakatlar bilan mashinani eshigini qulfladi-da, qaytib keldi, uni qo‘ltiqldi.

– Yuring.

Ikkovlari qop-qorong'i sement zinalardan chiqib borisharkan, negadir Alimardonning ko'nglida qo'rquvgami, g'ashlikkami o'xshagan tuyg'u uyg'ondi.

– Uyingizda kim bor? – dedi qorong'ida qattiq shivirlab.

Klara piq etib kuldi.

– Shunaqa qo'rqoqmisiz?!

Uchinchi qavatdagi eshiklardan birini ochishdi. Klara „chiq“ etib chiroqni yoqdi. Uy shinamgina, did bilan bezaatilgan edi. Burchakda, deraza oldida oyoqli magnitola turar, qarshi tomondagi devor tagida divan-karavot qo'yilgan, berrigi burchakda kattakon shifonyer bor edi.

– O'tiring, – Klara o'rtadagi stol yonida turgan stulni uning oldiga surib qo'ydi. Alimardon o'tirmadi. Devordagi rang-barang suratlarni tomosha qila boshladi. Bular jurnallardan kesib olingan rasmlar, kinoyulduzlarning suratlar edi. Birdan u o'rtada o'zining suratini ko'rib qoldi. Bu o'sha – afshalarda chiqqan chust do'ppili rasmi edi.

Alimardon ham quvonch, ham zavq bilan unga burilib qaradi. Ammo Klara ataylab magnitola ustida kuymanar, lentalarni tanlagan kishi bo'lardi. Alimardon yana suratlarni tomosha qila boshladi. Quyiroqda Klaraning surati osilgan edi. U qoraqosh, sochlari jingalak, yoshgina yigitga suyanib turardi.

– Bu... akangizmi? – U „Eringizmi?“ demoqchi bo'ldi-yu, ataylab aytmadi.

Klara yelkasi osha beparvo qarab qo'ydi.

– Ha... akam...

Alimardon hech qaysi singil akasi bilan bunaqa turib suratga tushmasligini bilgani uchun miyig'ida kuldi.

– Yaxshi akangiz bor ekan. Qayerda hozir?

– O'lgan... Muzika eshitasizmi? – Klara uning javobini kutmasdanoq magnitolani buradi.

Dengiz to'liqiniday tiniq bir kuy yangradi. „Shtraus... Moviy Dunay vals“, deb o'yladi Alimardon. Har gal shu kuyini eshitsa, negadir quyoshning tumanli nurlariga to'lgan

o'rmon, undan pastroqda o'zining to'liqlarini ohista sudrab oqayotgan moviy daryo ko'z o'ngiga kelardi. U hozir ham ko'zlarini chirt yumib, huzur qilib tinglay boshladi.

– O'tiring, – dedi Klara uning yelkasiga ohista turtib. – Hozir qahva qaynatamiz. Ichasizmi?

Alimardon o'zi bilmagan holda bosh silkib qo'ya qoldi.

...Klara shifonyerning toshoynasi oldiga borib, o'zini oynaga soldi. Alimardon uning ko'zgudagi aksini ko'rib turardi.

– Qaramang, – Klara shirin jilmayib, barmog'i bilan po'pisa qildi. – Uyat bo'ladi.

Alimardon tentaklarcha bir ehtiros vujudini yondira boshlaganini sezib, istamay teskari o'girildi. Lekin o'sha ondayoq zimdan uning harakatlarini kuzata boshladi. Klara ayollarga xos chiroyli harakat bilan sochini orqasiga tashlab yubordi. Keyin o'z eri oldida turganday bemalol yechina boshladi. Alimardon uning marmarday oppoq, tarang yelkalarini ko'rdi-yu, beixtiyor o'rnidan turdi. Yugurib borib mahkam quchoqlab oldi.

– Qoching! Tegmang! – Klara negadir ko'zlarini yashirar, ammo borgan sayin uning pinjiga kirib borardi.

...Shu kecha Klara yig'ladi. Kim bilsin, balki, to'ng'ich sevgisini eslagandir...

Alimardon tong qorong'isida zulmat zinalardan tushib ketdi. Uning ko'ngli g'ash, badaniga allaqanday iflos bir narsa yopishib qolganday edi.

Mashinasiga o'tirdi-yu, loqaydlik bilan haydab ketdi.

Yana yarim soatdan keyin Alimardon uyda, divan-karavotda chalqancha yotar, Muqaddam uning tepasida ko'ziga tikilib o'tirardi. U ichko'ylik ustidan xalatini kiyib olgan, sochlari parishon, kechasi bilan uxlamagan bo'lsa kerak, ko'zlari qizarib ketgan, chehrasi horg'in edi. Alimardon xotining oyoqlariga, xalat ostidan ko'tarilib turgan qorniga, ozg'in, horg'in chehrasiga qarab ijirg'andi. „Oyog'i muncha ingichka! Tovuqniga o'xshaydi. Uylanayotganimda ko'zim qayoqda edi!“

U chuqur uf tortib, teskari burildi.

– To‘ydamidingiz? – dedi Muqaddam nihoyat, uy ichidagi o‘lik sukunatni buzib.

„Qaysi to‘yni aytyapti? – Alimardon bir lahza o‘ylanib qoldi-yu, birdan miyasiga gursullab urildi: – Ha-a! Bugun Anvarning to‘yi edi-ku! – U lablarini qimtib oldi. Bir lahza yuzlari uyatdan lovullab ketganini sezdi. Lekin shu ondayoq o‘ziga tasalli berdi. Nima, o‘tkazib qo‘yibdimi menga?! To‘yi mensiz ham o‘taveradi!“

– Ha, to‘yda edim! – dedi jerkib.

* * *

Birinchi qor yog‘ishi bilan Alimardonning eski dardi qo‘zidi. Bronxit to‘shakka mixlab qo‘ydi. Aksiga olib, bu yil qish juda qattiq keldi. Qora ayoz yer-u ko‘kni qahriga olib qaqshtar, kechalari dahshatli sovuqdan daraxtlarning shoxi qarsillab sinardi. Keyin gupullatib qor yog‘di.

Muqaddam oy-kuni yaqinlashib qolgani uchun uning holliga yaxshiroq qaray olmasdi. Oxiri Alimardon kasalxonaga tushdi. Doktorlar vaqtincha qo‘shiq aytmasligi, ichmasligi kerakligini aytishdi. Lekin Alimardon sog‘ayib chiqqanidan keyin Gagruga – kurortga yo‘llanma olgan joyida aynidi: dekabr oyida teatr Yaponiyaga gastrolga borishi kerak edi.

U yana ishini boshlab yubordi.

Alimardon hamon oyga o‘xshar edi. U kun sayin tiniqlashib, kun sayin yorqinlashib, zamindan uzoqlashib borardi-yu, bir nasrani bilmasdi. Oy eng baland nuqtasiga yetgandan keyin pastga sho‘ng‘ishga majbur bo‘lishidan bexabar edi.

U hamon avvalgiday qoshini biroz chimirib, tabassum bilan qo‘shiq aytar, zalning oldingi qatorida ko‘zlari yonib o‘tirgan do‘ndiq juvonlar o‘zini xayolan quchoqlayotganini bilib turar, deyarli har hafta Klara bilan uchrashar, yangi-yangi jazmanlarni topar, ammo endi avvalgidek o‘zidan o‘zi jirkanib yurmas edi.

Faqat yangi kuylar bastalash ham, olqishlar ham ko‘ngliga sig‘may qoldi. „Odamlar borini hazm qilib tursin-chi!“ –

Qiziq, negadir odamlar ham uni avvalgiday olqishlamas, shiftni ko'chirib yuborgudek qasrak chalishmasdi.

Alimardon ishga jo' nayotganida bugun o'zi uchun ham eng mudhish, ham eng quvonchli kun bo'lishini o'ylamagan edi.

U rulga o'tirgisi kelmadi. Trolleybusdan tushganida oqshom qo'ngan edi. Maydalab qor yog'ar, teatr oldidagi bog'cha butunlay ko'milib ketgan, pastak daraxtlar yukining og'irligidan noliganday bosh egib turardi. Uning o'pkasi sovuq havoga to'lib, yana nafasi qisdi. Bir lahza to'xtab qoldi.

Bog' ustidagi chiroqlar birin-sirin yondi. Hamma yoq allanechuk go'zal, jozibador bo'lib ketdi. U ko'pdan buyon o'zi bilan o'zi ovora, tabiatga mana shunday nazar solmagan edi. Hozir ajib bir manzarani ko'rdi. Havoda uchqunlar kezar, chiroqlarning qalpog'i ostidan elak-elak qor quyilar, jimgina kuzatib turgan odamga qor yerga tushayotgandek emas, yerning o'zi sekin-sekin osmoni falakka ko'tarilib ketayotgandek tuyulardi.

Uning yonida qo'ng'iroqdek kulgi sadosi yangrab ketdi. Bog' ichkarsidan tizzagacha qor kechgan qiz yugurib chiqdi. Uning ro'moli ham, paltosi ham qorga burkangan, chiroq nurida qip-qizarib ketgan chiroyli chehrasi yashnab ko'rinadi. Zum o'tmay uning ketidan bir yigit yugurib chiqdi. Yigitning ham paltosi, kepkasi qorga burkangan.

Yo'lka chetida yigit qizni quvib yetdi. Qo'lidagi yumaloqlangan koptokday qorni baland ko'tarib, qizning peshanasiga yaqin olib keldi.

– Nima qilay, – dedi u kulib. – Qani, nima qilay?

Qiz hamon qo'ng'iroqdek kular, sokin bog' uning shodon qahqahasi bilan to'lgan edi.

– Bo'ldi, – qiz kula-kula kafti bilan yuzini to'sdi. – Bo'ldi, Marat aka, tavba qildim...

Yigit qorni uloqtirib yubordi-da, burilib qarab, yo'lka o'rtasida turgan Alimardonni ko'rib qoldi. Qizni ohista qo'l-tiqlab oldi. Ularning bir-biriga monand gavdasi chiroqlar nurini kesib o'tib qorong'ilik qo'yniga singib ketdi.

Alimardon sevishganlarning ketidan uzoq qarab qoldi. Shu tobda unga alam qilardi: o'zining hech qachon shunday yurmagani, endi hech qachon yurolmasligi alam qilardi.

U yolg'izoyoq iz tushgan yo'ldan yurib, bog'dan chiqdi. Teatrning baland peshtoqida kamalakday nur porlar, chiroq ostida yashnayotgan afisha oynasi ichida o'zining surati uzoqdan yaqqol ko'rinib turardi. Kassa oldida odam siyrak edi.

Alimardon tez-tez yurib, orqa eshikdan ichkari kirdi. Qorong'i yo'lakdan o'tdi, uchragan hamkasblarining salomiga boshini bilinar-bilinmas qimirlatib alik olib, to'g'ri grimxona eshigini ochdi. Shoshilmasdan kiyindi.

Yana chorak soatdan keyin Alimardon To'rayevning nomi zal ustida qanot qoqdi. U qarsaklar og'ushida torini ko'tarib, sahnaga chiqib kelarkan, nim qorong'i zalga zimdan nazar tashlab qo'ydi. Odamlar siyrakligini ko'rdi-yu, negadir hafsalasi qaytdi. Shundoq bo'lsa ham o'sha – odamlarga tanish tabassumni chehrasiga qalqitib chiqardi.

Zal ustida tor sadolari parvoz etdi. Ketidan Alimardonning mayin ovozi yumshoq qanot silkidi. U birinchi qo'shiqni yaxshi aytdi. Lekin ikkinchisining avjiga chiqqanida nafasi qisila boshladi. Shunda ham qaysarlik bilan uchinchi ashulani boshladi. U nafasi bo'g'ziga tiqilib qolayotganini bilar, peshanasidan ter quyilar, ammo qo'lida tor bo'lgani uchun artib ololmasdi.

Bir amallab qo'shiqni tugatdi-da, parda orqasiga o'tdi.

Konferansye qiz endi navbatdagi qo'shiqni e'lon qilishga chiqib kelayotgan edi, jahl bilan shivirladi:

– Boshqasiga gal bering!

Qiz hayron bo'lib to'xtab qolgan edi, jerkib berdi:

– Nega anqayasiz? Boshqa odam chiqsin.

Konferansye qiz tushundi shekilli, tez-tez yurib mikrofon oldiga bordi.

– Mutal Qodirov! – dedi u baland ovoz bilan.

Qorachadan kelgan, jingalak sochli, ozg'ingina yigit Alimardonning oldidan o'tib sahnaga chiqdi.

Alimardon sahna orqasiga o'tib ketayotgan edi, gulduros qarsakni eshitib to'xtab qoldi. Odamlar guvullab chapak chilib, yosh xonandani olqishlashardi.

„Iblis!“ Alimardon parda orqasidan sekin mo'raladi. Mutal mikrofon oldida turib tomoshabinlarga yengilgina ta'zim qilardi.

„Iblis!“ dedi Alimardon yana pichirlab. U mana shu yosh bola o'zi bilan raqobat qila boshlaganidan g'azablanar, uning Leningradda konservatoriyani bitirib kelganini, ajoyib ovozi borligini, odobli, bilimdon artist ekanini bilar, alamdan qaqshar edi.

Alimardon uning ovozi eshitmaslik uchun tez-tez yurib, nim qorong'i yo'lakka chiqdi. Yonboshidagi xonani taqilatmasdan kirib bordi. Zufar Xodiyevich boshini quyi solgancha stol ustidagi allaqanday qog'ozlarni kovlashtirib o'tirar, uy ichi tamaki tutuniga to'lgan edi. Zufar Xodiyevich uni ko'rdi-yu, og'ir, kattakon gavdasini arang ko'targanday shoshilmasdan o'rnidan turdi.

– Keling, azizim! – U Alimardonning qo'lini o'zining semiz, yumshoq kafti orasiga olib qisdi. – Butunlay sog'ayib ketdingizmi?

Alimardon o'tirmadi. Zufar Xodiyevichning tilla tishlariga tik qarab so'radi:

– Yaponiyaga qachon ketamiz?

Zufar Xodiyevich xijolat chekkanday bir unga, bir stol ustidagi qog'ozlarga qaragancha jimib qoldi.

– Bilasizmi, – dedi anchadan keyin uzr so'ragan ohangda. – Bizlar Mutal Qodirovni yozib qo'ygan edik.

„Nima?“ – Alimardonning ko'ziga mana shu tor xona zindondek ko'rinib ketdi. O'sha yosh artistning qoracha chehrasi ko'z o'ngiga keldi-yu, alamdan tishlarini g'ijirlatdi.

Zufar Xodiyevichning gaplarini anchadan keyin eshitdi.

– Siz Boltiq bo'yiga bordingiz. Boshqa respublikalarda bo'ldingiz... Yoshlarga ham yo'l berishimiz kerak... – u bir lahza o'ylanib turdi-da, qo'shib qo'ydi: – Uch kundan keyin Tojikistonga guruh boradi. O'zingiz bosh bo'lasiz.

Alimardon shartta burildi-da, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi.

„Ablah! U Zufar Xodiyevichning yuziga aytolmagan gapini pichirlab o'zicha takrorladi. Ablah! Allaqanday so'takka alishtirib o'tiribsanmi meni! Hali shundoq dodingni berayki, teatring mensiz bir kun ham kun ko'rolmaydi!“

Shu ketganicha uyga yetganida o'ziga keldi. Darvoza pesh-toqidagi chiroq yoqilmagan, derazalar zimiston edi. U qo'ng'iroq tugmasini uzoq bosib turdi. Ichkaridan sado chiqmadi.

„O'lib qolganmi bu?“ Alimardon g'azab bilan yana uzoq bosdi. Hamon sukunat hukm surar, qor uyni ham, Muqaddamni ham, hayotning o'zini ham og'ir yuki bilan bosib qolganday edi.

Birdan uning esiga tushib qoldi. „Kalit! Kalitni topish kerak!“ Muqaddam u yoq-bu yoqqa chiqsa, kalitni darvoza peshtoqidagi teshikchaga qo'yib ketguvchi edi. Alimardon qorong'ida timirskilab kalitning temir halqasini topdi. Tortib oldi-da, darvoza o'rtasiga o'rnatilgan eshikni ochdi. Qor bosgan yo'lakdan o'tib, ayvonga, undan yotoqqa kirdi-da, chiroqni yoqdi. Uy ichi nurga to'ldi. Burchakdagi toshoyna, devordagi gilamlar yashnab ketdi. Divan-karavot bo'sh, Muqaddam yo'q edi.

„Qayoqqa daf bo'libdi!“ U o'z xonasiga o'tdi. Chiroqni yoqdi. Royal qopqog'i ustida turgan bir varaq oq qog'ozni ko'rib qoldi, shoshilib bordi. Yulib oldi-da, egri-bugri qilib yozilgan so'zlarni o'qidi: „Mardon aka, meni yettinchiga olib ketishdi“.

To'satdan uning xayoliga yashinday fikr'urildi: „yettinchi tug'uruqxonaga ketgan!“

U mashinani garajdan olib chiqarkan, pichirladi: „yettinchi.. yettinchi... Qayoqda edi?.. Ha, Chilonzorda. Chilonzorda!“

Alimardon mashinani yeldirib ketdi. Qor tingan, ammo yo'llar ko'milib ketgan, ko'chalar sirg'anchiq edi. U tug'uruqxona eshigiga yetib kelganida yarim kechadan oshgandi.

Alimardon mashina eshigini qarsillatib yopib, yorug'nur tushib turgan eshik oldiga bordi. Oynaga yopishtirib

qo'yilgan ro'yxatni shosha-pisha o'qib chiqdi. To'rayeva degan familiya yo'q edi. U shiddat bilan eshikni taqillata boshladi.

Eshik yonidagi jajjigina darcha ochilib, oq xalat kiyib olgan semiz kampirning yuzi ko'rindi.

– Nima deysiz, bolam? – dedi kampir xasta ohangda.

– Bilib chiqing-chi, To'rayeva nima bo'ldi ekan...

Kampir Alimardonning iltijo bilan tikilib turgan ko'zlariga qarab rahmi keldi shekilli, darchani ochiq qoldirib burilib ketdi.

Alimardon ancha kutdi. Sovuq kuchaygan, atrof jimjit, uzoqlarda tramvaylar g'iyqillar, tunning qahraton sukunatini buzishga ahd qilganday nola chekardi.

Anchadan keyin ichkaridan ship-ship etgan qadam tovushi eshitildi.

Alimardon toqat qilolmay darchadan boshini suqdi.

– Ha?!

Kampirning semiz yuzi shodlikdan yorishib ketgan edi.

– O'g'il muborak bo'lsin, bolam! O'g'il! – dedi u ovozi titrab. – Hozirgina ko'zi yoridi. O'n oltinchi palatada yotibdi.

Alimardon titroq qo'llarini cho'ntagiga soldi-da, ilashib chiqqan yigirma besh so'mlikni kampirga uzatdi. Kampirning gaplarini eshitib ham o'tirmay, zinalardan chopib tushib ketdi.

Mashinani g'izillatib uyga qaytarkan, yuragi nurli bir tuyg'udan to'lib-toshgan edi.

– Otini Shavkat qo'yaman, Shavkat! Shavkatli kunlarimdan xotira bo'lsin! – derdi u pichirlab.

* * *

Ayol kishi bir beva qolganida, bir ko'zi yoriganida ko'ngli nozik bo'ladi, deyishadi. Bir haftadan buyon dadasi bilan onasi, goho Lobar tug'uruqxonaga galma-gal kelib-ketishar, ammo Mardon akasidan darak yo'q edi. Rost, u chaqaloq tug'ilgan kunning indiniga bir marta kelib ketdi. Muqaddam

deraza oldiga kelib hovlida turgan eri bilan bilan imo-ishoralar qilib gaplashdi. Alimardon xursand ko'rinardi. Boshidagi kubankasini yechib olib hadeb silkitar, jilmayar edi.

Lekin o'shandan beri daragi yo'q.

Qaysi kuni onasi ering Tojikistonga ketibdi, deb gap topib keldi. „Nima, bir safar gastrolga bormasa, birov urisharmidi? Uyda hech kim bo'lmasa? Bu yoqda pahlavondek o'g'il ko'rgan bo'lsa?.. Arzimabdimi?“

Palatadagi xotinlar Muqaddam Alimardon To'rayevning xotini ekanligini bilib qolib har kuni surishtirishar, „Turmush o'rtog'ingiz kelsa bizlarga ko'rsatasiz“, deb iltimos qilishar edi.

Muqaddam deraza oldida tik turgancha shularni o'ylar, o'ylagan sayin ko'ngli cho'kardi.

Hovli qiy-chuv bo'lib ketdi. Muqaddam darpardani surib mo'raladi. Necha kunlardan beri bugun quyosh charaqlab ketgan, qor zarralari nurli kukunlarday yaraqlab ko'zni olar, daraxt shoxlariga qo'ngan uchqunlar duv-duv to'kilib tushardi.

Pishiq g'ishtdan baland qilib o'ralgan devor tagidagi tepalikda bolakaylar chana uchishardi. Ana, bo'ynini ola-bula sharf bilan o'rab olgan qizaloq, ukasi bo'lsa kerak, besh-olti yoshlardagi bolakayni chanaga o'tqazdi-da, tepalikdan itarib yubordi. Chana uch-to'rt quloch surilib pastga tushdi-yu, yonboshiga burilib ag'darildi. Bolakay mukkasidan yiqilib, qorga dumalab ketdi. Bir amallab qordan chiqdi-da, opasiga o'girilib qarab yig'lay boshladi.

Muqaddam uning do'mboqqina qo'llari bilan ko'zini ish-qalashini ko'r-di-yu, zavqlanib kulib yubordi. Yuqoridan opasi chopib tushdi. Bolakayning telpakchasini yechib, qorini qoqa boshladi. Biron narsa va'da qilib ovutdi shekilli, ukasi hali yoshi qurimagan ko'zlarini katta-katta ochib, jilmayib qo'ydi.

Mana, yana to'rt yilmi, besh yilmi o'tib uning o'g'li ham xuddi shunaqa yiqilib-surilib, katta bo'lib qoladi. Keyin jajjigina papka ko'tarib maktabga boradi. Undan keyin... Muqaddam shirin xayollar og'ushida huzur qilib deraza raxiga suyandi. Endi adasi ham insofga kirib qoladi. Ota bo'ldi,

axir. Avvalgi o‘dag‘aylashlarini tashlasa ajabmas... Shunday deydi-ku, unga ham qiyin, axir. Ishi og‘ir, ko‘pchilikning ko‘nglini olish osonmi?

...Yo‘lakdan yig‘i tovushi eshitildi. Muqaddam cho‘chib o‘girildi. U onalarga xos ichki bir sezgi bilan shuncha chaqaloq orasidan o‘g‘lining ovozi – baland, azamat yig‘isini darrov ajratib olardi.

Dimog‘iga oq doka tutib olgan yosh hamshira qiz chaqaloqni ko‘tarib kirdi. Muqaddam uning qo‘lidan o‘g‘ilchasini oldi, mehr bilan bag‘riga bosdi. Chaqaloq ko‘zlarini chirt yumib, jahl bilan yig‘lar, halitdan bilinib qolgan qoshi chimirilib ketgan edi.

„Xuddi adasining o‘zi, – o‘yladi Muqaddam unga jilmayib tikilarkan. – Jahlini ko‘rmaysizmi buning!“

Hamshira qiz emib bo‘lgan chaqaloqni Muqaddamning qo‘lidan olayotganida iymenib so‘radi:

– Kiyimlaringizni olib kelaymi?

Muqaddam bugun ketishi kerakligini ertalab doktordan eshitgan edi.

– Mayli, – dedi xo‘rsinib. – Oyimlar kelgandirlar...

Uning xo‘rliigi keldi. Hozirgi holatini atrofdagilardan yashirish uchun teskari qarab kiyindi. Bir amallab o‘zini xushchaqchaq ko‘rsatib xayrlashdi-da, yo‘lakka chiqdi.

Issiqlik adyolga o‘ralgan o‘g‘ilchasini ko‘tarib olgan chaqaloq sekin-sekin yurib, yo‘lakdan o‘tdi. Tug‘uruqxonaning og‘ir, oynaband eshigini ochib, qor bosgan sement zinalarga oyoq qo‘ydi-yu, birdan quvonchdan qichqirib yubordi:

– Mardon aka!

Alimardon zangori „Volga“sini ko‘cha tomonga burib qo‘ygancha, mashina eshigini lang ochib o‘tirardi. Uning bir oyog‘i mashina ichida, ikkinchisi yerda turar, yonboshi bilan rul chambaragiga suyangancha sigaret tutatar edi.

U Muqaddamning ovozi eshitib, burilib qaradi. Birdan chehrasida quvonchli tabassum charaqlab ketdi. Mashinadan sakrab tushib, qo‘llarini oldinga cho‘zgancha keldi.

– Qaniy, qaniy! – U bolalarcha shodlik bilan chaqaloqqa talpinar, hadeb jilmayar edi.

Muqaddam o'g'ilchasini uning qo'liga tutqazdi.

– Xuddi o'zingiz... – dedi birov eshitib qolib uyat qilishidan cho'chib shivirlab.

Alimardon chaqaloqni beo'xshov quchoqlab olgancha, bir qo'llab yuzini ochdi.

Chaqaloq birinchi bor quyoshni ko'rayotgani uchun ko'zlari qamashib, sekin-sekin yumib-ochar, qayoqqadir javdirab tikilmoqchi bo'lar, Alimardon bilan Muqaddam esa quvonchdan kulishar, shu tobda ular jahondagi eng baxtli odamlar edi.

– Qo'ying, – dedi Muqaddam chaqaloqning yuzini berkitib: – Shamollatib qo'yasiz!

* * *

Taqdir degan so'zni odamlar o'zini yupatish uchun o'ylab topgan bo'lsa kerak. Boshimizga og'ir tashvish tushsa uning oqibatini ko'ramiz-u, sababini surishtirib o'tirmaymiz. Qismatdan nolib qo'ya qolamiz. Ko'pdan buyon xuddi shu qismat izimizdan quvib yurganini, uni o'zimiz ergashtirib yurganimizni bo'ynimizga olishdan qo'rqamiz.

Alimardon ham o'z taqdirini o'zi ergashtirib yurganidan bexabar edi.

Erta bahor kunlaridan birida u konsertga bormadi: katta magazinining mudiri qizini uzatayotganini aytib, qo'yarda qo'ymay uni to'yga olib ketdi. Alimardon bu „o'g'il bola“ yigit bilan ko'pdan ulfat edi. Bir nafas ikkilanib turdi-da, rozi bo'ldi: „Bir safar konsertni mensiz ham o'tkazib ko'rishsin-da!“

U ertasiga erta bilan repetitsiyaga hammadan ilgari yetib bordi. Mashinasini endi panjara ichiga qo'yib chiqayotgan edi, o'ziga qarab sekin-sekin yurib kelayotgan Zufar Xodiyevichni ko'rib, to'xtab qoldi. Zufar Xodiyevich yomg'irpo'shini yechib yelkasiga tashlab olgan, bo'ynida kastumiga monand jigarrang sharfi osilib yotar, og'ir gavdasini ko'tarolmagandek xiyol egilib, vazmin-vazmin qadam tashlab kelardi.

„Hozir yana diydiosini boshlaydi“, deb o‘yladi Alimardon g‘ijinib. Kecha o‘ylab qo‘ygan bahonasini, tobi qochib qolganini aytishga og‘iz juftlab turgan edi, Zufar Xodiyevich uning barmoqlarini o‘zining yumshoq kaftlari orasiga olib qisdi-da, jilmayib so‘radi:

– Mashina yaxshi ishlayaptimi?

„Nima demoqchi bu?“ Alimardon o‘zining holatiga mos bo‘lmagan tetik ohangda kuldi.

– Otdetik!

– Ketdik bo‘lmasa! – Zufar Xodiyevich ohista yurib kelib, mashinaning orqa eshigini ochdi-da, yomg‘irpo‘shini o‘rindiqa tashladi. – Bir dalalarni aylanib kelaylik. Havoning tiniqligini qarang! – U ko‘zlarini xiyol qisib, quyosh charaqlab yotgan osmonga, panjaraning narigi yog‘idagi yakkam-dukkam yaproq yoza boshlagan sadaqayrag‘ochga qarab qo‘ydi.

– Qayoqqa boramiz? – dedi Alimardon kabina peshanasidagi kaftdek oynadan ko‘rinib turgan Zufar Xodiyevichning aksiga qarab.

– Zaxariqdagi qirga chiqsakmikan, – dedi Zufar Xodiyevich mushtugiga sigaret qistirarkan.

Alimardon mashinani yeldirib borarkan, raqibining birinchi bo‘lib musht tushirishini kutib turgan boladek sergaklanib, uning gap boshlashini kutar edi. Ammo Zufar Xodiyevich shahardan chiqishguncha bir og‘iz ham gapirmadi.

Beton yotqizilgan katta ko‘chaga chiqishgandan keyin o‘tkinchi mashinalar siyraklashib qoldi. Alimardon sochini tortqilayotgan mayin shamoldan rohat qilib, yonboshidagi qiya darchani ochib qo‘ydi.

– Oynani tushirib qo‘yavering, Zufar aka! – dedi orqasiga burilib qarab.

Zufar Xodiyevich xuddi shuni kutib turgandek eshik oynasini tushirdi.

– Bahor yaxshi-da! – dedi atrofiga alanglab. – Bunaqa paytda hammayam yoshligini eslasa kerak...

„Kayfiyati joyida-ku“. Alimardon mamnun jilmayib qo'y-di-da, gazni bosdi.

Ular yo'ldan besh chaqirimcha uzoqdagi baland adir ustida to'xtadilar. Ikkovlari baravar sakrab tushishdi. Havoda endigina erib bitgan qor hidi kezar, hali selgimagan yerdan bosh ko'targan mayin maysalar olis ufqlargacha gilam to'shab tashlagan, onda-sonda quyosh parchasiday qoqigullar yaraqlab ko'rinib qolardi.

Alimardon ko'ksini baland tutganicha to'yib-to'yib nafas oldi. Ko'klam quvonchi butun borlig'ini larzaga soldi-yu, yugurib pastga tushib ketdi. Shu tobda uning ko'ngli bolalarcha shodlikka limmo-lim to'lgan, yumshoq maysalar silkinib turgan yer ustidan qanot chiqargandek uchib borardi. Ancha joyga borgandan keyin charchadi. Shundoq maysa ustiga o'zini tashladi-da, chalqancha yotib oldi. Ko'zlarini yarim yumganicha quyoshga, beg'ubor osmonga tikilib uzoq yotdi. Atrof jimjit, baland osmonda muallaq suzib yurgan yakka-yolg'iz burgut ham qanot silkimas, butun koinot tug'ilish gashti bilan huzur qilayotgan tabiatni sukunat hukmiga topshirganday edi.

Anchadan keyin u og'ir-og'ir qadam tovushini eshitib, burilib qaradi. Zufar Xodiyevich yaqin kelib, yomg'irpo'shini yerga tashladi-da, yonboshladi. Chamasi, u charchagan shekilli, chuqur-chuqur nafas olar edi.

Yana uzoq vaqt ikkovlaridan sado chiqmadi. Alimardon qayrilib qaramasa ham, Zufar Xodiyevich mushtugiga sigaret qo'ndirilganini, gugurt chizganini bilib yotdi. ♪

– To'y yaxshi, o'tgandir?..

„Baribir gap ochdi-ya“, deb o'yladi Alimardon vujudi qaqqash. Hozirgi quvonchidan nishon ham qolmadi. Boshini ko'tarib burilib qaradi. Zufar Xodiyevich yomg'irpo'shiga tirsagini qo'yib yonboshlab yotar, sigaretning tutuniga o'ychan tikilib qolgan edi.

Alimardon o'zi o'ylab qo'ygan bahona foydasiz ekanligini tushundi-yu, rostini aytdi:

– Qalin o‘rtog‘im edi, hech qo‘ymadi. – U bir nafas jim qoldi-da, aybdor ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Bilaman, Zufar aka, odamlar konsertga meni deb kirishadi. Kecha kelmaganim yomon bo‘ldi.

– Shunaqami?.. – Zufar Xodiyevich hamon sigaretdan ko‘z uzmay, negadir kuldi. Alimardon bu kulgida har galgidek jahl ham, zaharxanda ohang ham yo‘qligini sezdi. – Yo‘q, Alimardon, odamlar konsertga sizning ashulalarigizni eshitish uchungina kelmaydi. – U Alimardonning ko‘zlariga o‘ychan tikilib, yana qaytardi: – Faqat sizni deb kelmaydi...

Alimardon keyingi paytlarda odamlar o‘zini ilgarigiday olqishlamayotganini esladi-yu, qaysarlik bilan qoshini chirmirdi.

– Bo‘lsa bordir, konsert mensiz ham o‘tdimi axir? Zufar Xodiyevich uning kinoyasini payqamagandek xotirjam o‘tirar, uning ko‘zlarida Alimardon hali hech ko‘rmagan bir tuyg‘u – achinish to‘la tuyg‘u bor edi.

– Teatrda o‘ttiz yildan beri ishlayman, – dedi u hamon o‘sha sokinlik bilan. – Iste‘dodini qurbon qilgan ko‘p san‘atkorlarni ko‘rdim. Siz ham shunday bo‘lmang, deyman-da...

Alimardon hali hech kimdan eshitmagan, ammo yuragining bir burchi bilan sezib yurgan haqiqatni birdan his qildi-yu, shiddat bilan qaddini rostlab o‘tirib oldi. Zufar Xodiyevich sigaret qoldig‘ini uloqtirib tashladi. Mushtugini shi-mining cho‘ntagiga solib, Alimardonga qarab qo‘ydi.

– O‘zingiz ayting, bir yildan buyon loaqal bitta yangi qo‘shiq aytdingizmi? Tomoshalaringizda odamlar nima uchun kun sayin kamayib borayotganini o‘ylab ko‘rdingizmi?

Yo‘q, Alimardon bularni o‘ylamagan edi. Ammo g‘ira-shira tushunardi. Shunday paytlarda har doim o‘zini bitta narsa bilan yupatardi. Hozir ham shuni aytdi:

– Menga haqiqiy tomoshabin kerak. San‘atni tushunadigan tomoshabinlar kerak.

Zufar Xodiyevich yana kuldi. Ammo bu kulgi alamli bir nidoga o'xshar edi.

– Eng baland qarsak chaladigan, polni tepkilab olqishlaydigan, gul tutadigan tomoshabinlarni?

– Balki, shunaqadir, – dedi Alimardon xotirjam gapirishga urinib.

– Xuddi shunaqa, eng qattiq qarsak chaladigan tomoshabinlar sizni eng avval unutadi. Haqiqiy tomoshabinlar haqiqiy san'atni olqishlaydi.

„Bo'lmasa meniki qanaqa san'at ekan? Bo'lmasa nima qilib teatr meni bog'lab olgan?“ deb o'yladi Alimardon g'ijinib. Lekin o'zini bosib oldi-yu, kuldi:

– Mutal Qodirovning san'atinimi?!

Zufar Xodiyevich o'rnidan turdi-da, uvushgan oyoqlarini uqalay-uqalay yana sigaret tutatdi.

– Sizning san'atingiz ham yaxshi san'at edi. Ajoyib edi! O'zingiz uni tarbiyalay olmadingiz. Aynib ketdingiz. Qo'shiqlaringizning hammasi bir-biriga o'xshaydigan bo'lib qoldi. – U birdan gapidan to'xtadi-da, shiddat bilan Alimardonning ustiga egildi. – Siz iste'dodingizni chakana pullaydigan bo'lib qoldingiz. Yengil-yelpi maqtoqlar ovozingizni bo'g'ib qo'ydi.

Alimardon ijrg'anib yuzini o'girdi.

– Bo'lmasa nima qilib ushlab turibsiz meni? Nimaga?

– Kechagi qilg'ingiz uchun sizni allaqachon haydash kerak edi. Men achinganimdan gapiryapman. Rahbar sifatida emas, do'st sifatida aytyapman...

– Rahmat, – dedi Alimardon o'rnidan turarkan. – Men hech kimning shafqatiga zor emasman...

U yo'l-yo'lakay bir og'iz ham gapirmadi. Uyga qaytdi-yu, to'ppa-to'g'ri ish kabinetiga kirib ketdi. „Chuchvarani xom sanabsan! – deb o'yladi u Zufar Xodiyevichning gaplaridan bo'g'ilib. – Hali shunaqa qo'shiqlar yozayki, o'zing ham, o'sha erkatoying Mutal ham yoqa ushlab qollaring... Shundoq ashulalar aytayki, zallaringni tomi ko'chib ketsin!“

U shu kuniyoq yangi kuy topishga kirishdi. Ajab, har-chand urinsa ham ko'nglida na bir nurli tuyg'u, na ilhombaxsh ohang topilmadi. Oxiri charchadi. „Boshi kesilgan tovuqday pitirlab, nihoyat, nima qilaman, – deb yupatdi u o'zini o'zi. – Shuncha qo'shiqlar ham yetadi. Avval borini hazm qilib turishsin... – Divanga yonboshladi-da, xotirjam jilmayib qo'ydi. Shu tobda hamma narsa baribir edi unga.

* * *

Shavkatjon talpinchoq bo'lib qoldi. U uy burchagidagi belanchakda maykachan yotar, hadeb qiyqirib kular edi.

Alimardon barmog'i bilan uning jajji qornini qitiqlar, Shavkat do'mboq oyoq-qo'llarini baravar silkitib iljayar, hali tishi chiqmagan og'zini ochib qiyqirgancha dadasiga talpinardi.

– Muqad! Qara, qaragin! Oyog'ini velosiped qilyapti! – Alimardon devorga osig'liq gilamni tozalayotgan xotiniga qichqirdi. – Ko'rsang-chi, buningni!

Muqaddam qo'lidagi ho'l lattani tashlab yaqin keldi. Shavkat onasini tanidi: yanayam qattiqroq qiyqirib qo'lchalarini silkita boshladi.

– Voy sen-ey! – Alimardon yana barmog'i bilan uning qornini qitiqladi. – Kulishini qara, kulishini!

– Qo'ying! – Muqaddam uning qo'lini surib tashladi. – Bolani qiynamang!

Ikkovlari bir-birlariga qarab jilmayib qo'yishdi.

Eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Muqaddam yo'lakka yugurdi. Oyog'iga duch kelgan kalishni ilib, hovliga tushdi. Yerlar selgib qolgan, ammo hali havoda erigan qor isi gurkirdi. U sementlangan yo'lakdan halqob suvlarni bosib o'tib, darvoza eshigini ochdi.

– Voy, Lobar!

U quvonchdan chehrasi yashnab ketgan dugonasini quchoqlab oldi. Lobar yomg'irpo'sh kiyib olgan, boshidagi hindiy ro'moli charaqlagan quyosh nurida yarqillab turardi.

Muqaddam uning do'mboq qo'lidan ushlab ichkariga sudradi.

– Yo'q, kirmayman... Ering bo'lsa kirmayman. – Lobar qaysarlik qilib eshik oldida turib oldi. Uning oq-sariq yuzi qizarib ketgan edi.

– Esing bormi, yursang-chi!

Lobar yana qo'lini tortib oldi. Tuffisining uchi bilan hali qurib ulgurmagan yerni chiza boshladi.

– To'yga borasanmi? – Uning chehrasi yana ham qizarib ketdi.

– Voy, rostdanmi? – Muqaddam uni mahkam quchoqlab, u yuzidan bu yuzidan o'pib oldi. – O'sha... Jahongirgami?

Lobar quvonchini yashirolmadi shekilli, uyalgan bo'ldi.

– Ha... – dedi sekin bosh silkiib.

* * *

Kelinlar tushgan avtobus Oynatog' qishlog'iga kunbotar chog'i kelib to'xtadi. Yonbosh tomondagi tik ko'tarilib turgan sip-silliq cho'qqi botayotgan quyosh nurida targ'il alanga bo'lib yonar, butun qishloq uning shafag'ida olovlanib ko'rinardi. Allanechuk afsonaviy, hazin bir manzara hali kurtak yozmagan dov-daraxtlarga ham, pastak uylar ustiga ham olovli soya tashlab turardi.

„Oynatog' deganCHA bor ekan!“ Muqaddam avtobus derazasidan mo'ralab, atrofni tomosha qila boshladi.

Qishloq kichkinagina edi. Yarmigacha toshdan devor urilgan loy tomli uylar, echki qiylari sochilib yotgan shag'al, egri-bugri ko'chalar, katta-katta chinorlar hazin, o'ychan tuyg'ular uyg'otardi unda. Qayerdadir soy shovullar, tog' ungurlarida hali qor erimagan bo'lsa kerak, tezak isi aralash sovuq shabada esib turardi.

Muqaddam ko'pdan buyon – bir vaqtlar o'quvchilik paytida sinfdoshlari bilan sayohatga chiqqanidan beri tog'ni ko'rmagan, shuning uchunmi, bu yerning rang-barang manzarasi unga quvonch baxsh etardi. Allaqayerda radio kar-

nayi shang'illaydi, sigirlar ma'raydi, qishloq ahli oqshom taraddudida yelib-yuguradi.

Ko'cha ichkarisida surnay tovushi eshitildi. Muqaddam yonida o'tirgan Lobar o'zining qo'lini mahkam ushlab olganini sezib, burilib qaradi. U oppoq ro'molga burkanib, engashib olgan edi.

– Kuyovlar kelishyapti, – dedi Muqaddam ro'mol ustidan uning qulog'iga shivirlab.

Lobar uning qo'lini tag'in ham mahkamroq qisdi.

– Qo'rqyapman.

Ular boshqa gaplasha olishmadi. Guldasta ko'targan yigitlar avtobusni o'rab olishdi. Pastdan hayajonli qattiq-qattiq tovushlar eshitildi.

– Kelin tushmaydimi?

– Olib tushsang-chi, Jahongir!

Old tomondagi eshikdan kattakon guldasta ko'tarib kuyov chiqdi. U jingalak sarg'ish sochi ustidan chust do'ppi kiyib olgan, ko'kish ko'zlarida o't chaqnaq jilmayar edi.

Lobarni bir qo'lidan kuyov, ikkinchisidan Muqaddam ushlab, pastga olib tushishdi. Tor ko'cha odamlar bilan to'lib ketgan, oyoq ostini ko'rib bo'lmas, hali qurimagan silliq toshlar ustidan sirg'anib-sirg'anib borishardi. Ikki tomondagi pastak devorlar ortidan xotin-xalaj mo'ralashar, baqirib-chaqirib kelinni ko'rsatishar edi.

Muqaddam bir qo'lida Shavkatni ko'tarib olgani uchun qiynalar, ammo Lobarning bilagidan mahkam tutib borardi.

– Ehtiyot bo'l, qoqilma! – derdi u hadeb bir gapni takrorlab.

Kichkina eshikdan kirib borishganida yigitlar qiy-chuv ko'tarib „To'ylar muborak“ni aytishdi. Allakim sochqi sochdi. Keyin surnay ezib-ezib nola chekdi.

Bunaqa paytda har bir juvon o'zining kelinlik damini eslaydi. Muqaddam ham o'zining ilk bor yor-yor bilan Alimardon akasinikiga kirib borganini esladi-yu, hayajonlanib ketdi.

Hovli o'rtasida lovullab yonib turgan gulxan yonidan o'tib to'rga chiqishdi. Hamma chapak chalib, kelin-kuyovni olqishladi.

Muqaddam stol oldiga o'tirganidan keyingina atrofga razm soldi. Kattakon hovlining to'rt chekkasidagi stollarga mehmonlar tizilishdi. Havo salqin, etak tomondan – shovul-layotgan soydan sovuq shamol esadi. U shamollab qolishidan cho'chib, Shavkatni bag'riga bosdi.

To'y qizib ketganida Shavkat uxlab qolgan edi. Muqaddam uni hamon bag'riga bosib o'tirar, ora-chora Lobarni ovqat yeyishga qistab qo'yardi.

Tog' ustida yirik-yirik yulduzlar yondi. Qop-qora tiniq osmonda ular gavhar donalarday yashnab ko'rinadi, juda past tushib qolganga o'xshaydi. Negadir Muqaddamning ko'ngli xijil bo'la boshladi. U uyiga ketgisi kelardi.

Kelin tarafdand kelgan qiz-juvonlar o'rtasida shivir-shivir gap yurib qoldi.

– Avtobus ketayotganmish...

Muqaddam Lobarni bilagidan ohista tutib, sekingina shipshidi:

– Men ham ketaman.

– Yotib qolaman, demaganmiding? – Lobarning astoydil xafa bo'lgani ovoizdan bilinib turardi.

Muqaddam chindan ham Mardon akasiga „Bugun qayt-mayman“ degan, hozir ham beqarorlik qilib, Lobarni tashlab ketgisi kelmas, ammo qo'lida uxlab qolgan Shavkatni o'ylabmi, ko'nglida tushunib bo'lmas bir g'ashlik uyg'ongani uchunmi, fikridan qaytgan edi.

– Yo'q, ketmasam bo'lmaydi.

U sekin sirg'alib chiqdi-yu, tashqariga yo'l olgan xotin-larga ergashdi.

Chorak soatlardan keyin avtobus chiroqlari past-u baland tog' yo'llarini avaylab paypaslagancha yurib ketdi.

* * *

Muqaddam o'z darvozasi oldiga yetib kelganida tun yar-midan og'gan, oy allaqachon botib ketgan edi. Derazalarda ham, darvozada ham chiroq ko'rinmasdi.

– Adang ishdan kelmabdilar, – dedi Muqaddam xud-ti tushunadiganday Shavkatga qarab. U yo‘lda uyg‘ongan, ammo g‘ingshimay jimgina kelayotgandi.

Muqaddam darvoza peshtoqidagi teshikchaga cho‘zilib qo‘l suqdi. Kalit yo‘q edi.

„Tashlab ketmabdilar-da, – dedi u pichirlab. – Voy, esim qursin, o‘zimda ham bor-ku“. U ketayotganida kalitning bittasini tashlab ketganini, ikkinchisini yomg‘irpo‘shining cho‘ntagiga solib olganini esladi.

Havo ochiq bo‘lgani uchunmi, salqin shamol esib turardi. Muqaddam bolaning shamollab qolishidan cho‘chib, shosha-pisha eshikni ochdi. G‘ishtin zinalardan ayvonga chiqdi. Chiroqni yoqdi.

Xuddi shu payt yotoqxonada ichida chiroq yongani eshik oynasidan ko‘rindi. Ichkaridan kalit shiqirlab, eshik lang ochilib ketdi.

Muqaddam qo‘rqqanidan birdan orqaga chekindi. Bolani tashlab yuboray dedi. Eshik oldida ich kiyimdagi Alimardonning gavdasi ko‘rindi.

– Odamning yuragini yorib yuboray dedingiz! – Muqaddam erkalash ohangiga to‘lgan ovoz bilan Alimardonni koyidi. Keyin jilmayib Shavkatni baland ko‘tardi. – Mana, bizlar keldik...

U Alimardonning chehrasiga qaradi-yu, qo‘rqib ketdi. Eri-ning turqi shu tobda dahshatli bo‘lib ketgandi. Uning rangi quv o‘chgan, negadir titrar, ko‘zlarininng qorachig‘i kichrayib, dum-dumaloq bo‘lib qolgandi. Nihoyat, uning tili kalimaga keldi:

– Muqad...

Muqaddam hayron bo‘lib, ichkariga mo‘raladi. Avvaliga hech nima tushunmadi. Divan-karavot ustida qo‘rquvdan shumshayib o‘tirgan yarim-yalang‘och xotinni ko‘rdi-yu, birdan hammasiga tushundi.

– A-a-a! – deb qichqirib yuborgancha, dahshat ichida orqasiga chekindi. Ayvonning burchak-burchaklari, jimjit hovli iztirobli chinqiriqdan larzaga keldi.

– A-a-a!!

Shavkat qo'rqib ketib, chirillab yig'lay boshladi. Muqaddam uni bag'riga bosgancha hovliga otildi...

...Alimardon turgan yerida haykalday qotib qolgan, hozir nimadir qilish kerakligini, qandaydir muhim, juda muhim bir ish qilish zarurligini bilar, ammo o'ylab topa olmasdi. Ha, topdi! Shavkatni olib qolishi kerak!

U o'zi qilib yurgan ishlari uchun qachondir javob berishga majbur bo'lishini oldindan bilar, ammo bu kun xuddi shu bugun yetib kelishini bilmagan edi. „Kelmayman deb ketgan odam qaytib kelishini kim bilibdi?“ Bir lahzada uning xayolidan bir kechalik huzur uchun Klarani uyiga olib kelib, kechirilmas xato qilib qo'ygani, endi hammasi tamom bo'lgani chaqmoqday yaraqlab o'tdi. Bu xato boshqa bir fojiani boshlab kelishini, Muqaddam uni hech qachon kechirmasligini endi aniq tushundi. Oxirida eng katta fojiani ham tushundi. Yo'q, u o'g'lini – o'zi uchun shu qadar yaqin bo'lib qolgan, yuragining bir parchasiga aylangan Shavkatni endi hech qachon ko'rolmasligini o'yladi-yu, zinadan yalangoyoq pastga otildi. Yo'q, yalinib-yolvorib bo'lsa ham to'xtatib qolish kerak!

Alimardon zax yerda sakrab-sakrab Muqaddamning ketidan yugurdi. Darvoza tagida yetib oldi.

– Muqad... – dedi halloslab.

Muqaddam keskin o'girilib qaradi. U entikib nafas olar, qorong'ida o't bo'lib yonib turgan ko'zlari charaqlar edi.

– Muqad... – dedi Alimardon qo'l cho'zib. – Men...

– Qoch, vijdotsiz! Yo'qol, iflos! Yuvuqsiz! – dedi Muqaddam chinqirib. Birdan qo'lidan Shavkat sirg'alib tushib ketayotganini sezib, ko'tarib mahkam bag'riga bosdi.

Eshikdan otilib chopib chiqib ketdi. U yig'lagisi kelar, ammo yig'lay olmas, turtinib-turtinib chopib borar, bola chirillab yig'lardi. Bir yerga borganda oyog'i toyib ketdi. Ammo Shavkatni qo'yib yubormadi. Cho'kkalab olganicha bolani mahkamroq bag'riga bosdi. Beixtiyor orqasiga qaradi. Kattakon uy vahima ichida qorayib ko'rinar, bitta, faqat bitta derazadan iflos nur to'kilib turardi.

Shundagina u Shavkatning boshiga yuzini bosgancha o'ksib o'ksib yig'lab yubordi. Ha, u sezar edi. Erining sayoqligini, o'zi-ga xiyonat qilayotganini sezardi. Ammo bu xayoldan dahshatga tushib, o'zini aldar, uni pok deb o'ylashga majbur etardi.

Bir vaqtlar mana shu uyga yor-yor bilan kirib kelganini haligina orziqib eslamaganmidi!

Ha, bu yuvuqsiz boshidan uni baxtiqaro qilgan edi. Oxirida ham baxtsiz qildi! Shuncha yillardan beri bir so'zini ikki qilmay hukmiga bo'ysunib kelganida, vaqti kelib allaqanday xotinlar bilan to'shagini harom qilishini bilganida edi!

Munchalar sho'r bo'lmasa bu peshanasi!

U hamon hiqillab-hiqillab borar, qayoqqa ketayotganini o'zi bilmas, uyiga qaytay desa, badjahl atasining g'azabidan qo'r qar, osmoni falakda osilib turgan yulduzlar sovuq ko'z-yosh to'kib yum-yum yig'lar, faqat Shavkat ovunib qolgan edi. U onasiga nima bo'lganini tushunmoqchiday qorong'ida ko'zlarini javdiratib borardi.

* * *

Quyosh baxtidan entikkanlarga ham, g'amidan bag'ri qon bo'lganlarga ham baravar nur sochaverar ekan. Uch haftadan buyon Muqaddamlarning g'am yukini ko'tarolmay jimjit bo'lib qolgan kaftdek hovlisida bahor gurulladi. Tip-tiniq, chuqur osmonda tog'-tog' bulutlarni ko'chirib yurgan ko'klam sabosi el qatori bu hovliga ham iliq tomchilar purkab o'tdi. Hovlidagi bir tup o'rik shoxlarida qinidan chiqqan dovuchchalar mo'raladi. Burchakdagi oshxona tomida chuchmomalar ochildi. Hovuzcha oldida Muqaddam qizligida dadasiga janjal qilib ektirgan bir taxta o'sma yana jonlanib qoldi. Mana shu o'smalar suvi bir vaqtlar uning qunduz qoshida yashnagan edi.

Endi-chi? U o'smani nima qilsin? Kimga? Nimaga? Kim uchun qo'yadi?

Muqaddam afsus bilan xo'rsinib qo'ydi. U Shavkatning yaktakchalarini yuvib o'tirar, iliqqina oftob yelkalarini qizitar, jomashovdagi oppoq ko'pik sachrab-sachrab ketardi.

Muqaddam hech nimani o'ylagisi kelmas, ammo g'amgin xayollar yuragini g'ijimlardi.

Chiqqan qiz chiyiriqdan tashqari, deydilar. U qaytib kelgan kunidan boshlab Anzirat xolaning boshiga tog'day g'am tushdi. Ona har kuni uni koyiyverib charchadi. Muqaddam bo'lgan gaplarning hammasini aytib berdi. Endi hech qachon qaytib bormasligini ham aytdi. Rost-da, nimaga borsin? Qaysi qilgan yaxshiliklariga? To'ydan keyin uch-to'rt oy o'ynab-kulgani bo'lmasa...

Endi o'ylab qarasa, Alimardon uni qilcha ham qadrlamagan ekan. Nima qilsa o'zi uchun qilarkan. Muqaddam unga bir oqsoch bo'lib qolgan ekan.

Yo'q, hecham qaytib bormaydi. Yelkasining chuquri ko'rsin o'sha uyni!

Muqaddamlarning xonadoni o'sha kundan boshlab yana bir qo'rqinchli voqeani kutib yashardi. Otasi bir oycha ilgari Boysunga – uzoq bir qarindoshlarinikiga ketgan, uydagi gapdan bexabar edi. Ona-bola erta-indin qaytishi kerak bo'lgan otani yurak hovuchlab kutishardi...

Ichkaridan bola yig'isi eshitildi. Muqaddam shosha-pisha qo'lining ko'pigini bir chekkada yotgan sochiqqa artib yugurdi. Oynaband ayvonning eshigini sharaqlatib ochib kirdi.

Anzirat xola ikki bukilgancha Shavkatni belanchakdan olmoqchi bo'lar, doka ro'moli sirg'alib yelkasiga tushib qolgan, oppoq sochlari to'zg'ib ketgandi. U ovozin baralla qo'yib Alimardonni qarg'ardi.

– Xudoyo yigit o'lsin. Yigitgina o'lmasa rozi emasman. Bolaning ko'z yoshi ko'r qilmasa, rozi emasman!

Muqaddam yig'layotgan Shavkatni onasining qo'lidan oldi-da, bag'riga bosdi.

– Ungayam boqqan balo bordir, yigitgina o'lgur! – Anzirat xola bolaning ho'l taglik ko'rpachasini almashtirdi-yu, Muqaddamga zarda bilan qarab qo'ydi. Muqaddam onasining toliqqan chehrasiga, kasalmandlikdan milklari shishib ketgan ko'zlariga, oppoq sochlariga qarab turib, rahmi keldi.

Shuncha yillar azob chekib, o'zini katta qilgani yetmasmidi? Keksayganida, endi rohat ko'raman deganida, ko'rgani shu bo'ldimi!

– Qo'ying, – dedi bir onasiga, bir o'g'liga qarab sekin-gina, – qarg'amang. Nima foydasi bor...

– Tag'in qarg'amang deydi-ya! Hali otang kelsa, ko'-rasan tomoshani! – Anzirat xola jahl bilan burilib tashqariga chiqib ketdi. Hovli tomondan uning oh chekkani eshitildi. – Ey, falak!

Muqaddam onasining birgina shu nolasidan umr bo'yi ko'rgan mashaqqatlarining butun dahshatini sezib, yuragi zirqirab ketdi. O'zi ham bilintirmay uf tortib qo'ydi. Ko'k-rakka talpingan Shavkatining qo'ng'ir sochlarini siladi. U jimgina, to'yib-to'yib emar, ko'zlarini suzib turar, ammo qoshlari chimirilib ketgan edi. „Xuddi o'shaning o'zi! – Muqaddam beixtiyor jilmaydi. – Qosh-ko'zi ham, o'jarligi ham...“ U engashib o'g'lining yuzidan avaylabgina o'pdi.

* * *

Muqaddam Shavkat uyg'onmasdan ishlarini bitirib olish uchun yelib-yugurar edi. Anzirat xola yuragi qon bo'lib ketganini aytib, erta bilan qo'shninikiga chiqib ketdi. Muqaddam idish-tovoqlarni yuvdi, hovli supurdi. O'sma oldida to'plan-gan axlatlarni paqirga solayotganida to'satdan eshik taqillab qoldi. Muqaddam tanidi. Tanidi-yu, qo'lidan supurgi tushib ketdi. „O'sha! – Muqaddam uning eshik qoqishini yaxshi biladi. – O'sha!“

U ovoz chiqarishdan cho'chigandek bir lahza nafasini yutib, turib qoldi.

Eshik yana taqilladi.

Muqaddam oyoqlaridan mador ketib, qaltirab borayotganini sezar, o'zini bosib olishga urinar edi. Nihoyat, u sekin-sekin borib, zanjirni tushirdi. Alimardonna ko'rdu-yu, begona erkak qarshisida turgandek barmoqlari bilan ko'y-la-gining yoqasini g'ijimlab, ko'kragini yashirdi.

Alimardonning ko'zlari biroz cho'kkan, ammo tik qarab turar, Muqaddamning ko'nglidagini bilib olmoqchiga o'xshardi. Nihoyat, Muqaddam unga boshdan oyoq razm solib chiqdi. Alimardon eshik kesakisini ushlab olgan, ko'k kastumining yengidan chiqib turgan oltin soati yaraqlardi. Bu soatni yaqinda ikkovlari birgalashib olishgan, Muqaddam o'z qo'li bilan uning bilagiga solgandi.

– Mana, men keldim, Muqad...

U bu so'zlarni shunday mayin aytdiki, Muqaddam uning hech qachon bunday muloyim, yalinchoq ohangda gapirganini eshitmagan edi. Yo'q, eshitgandi, bir vaqtlar, kelin bo'imasidan ilgari...

Muqaddam yana ko'z o'ngi xiralashib ketayotganini, bir og'iz gapirsa ovozi titrab ketishini bilib indamadi. Yana uning qo'llariga, barmoqlarining ustini mayin tuk qoplagan qo'llariga qaradi. Qachondir bu qo'llar uning sochlarini silagan. Mayin-mayin silagan. Silab turib baxtiga chang solgan... Bu qo'llar o'sha xotinning ham sochlarini silagan-da. O'sha xotinning ham yelkalarini siypalagan-da...

Muqaddam g'azabdan bo'g'ilib pichirladi:

– Nega keldingiz? Nima kerak sizga?!

Alimardon Muqaddamga tanish, o'sha ma'noli ohangda kuldi.

– Bo'l endi, Muqad...

Muqaddam alamdan lablarini tishlab, devorga suyanib qoldi.

„Bo'l endi...“ U kelinchak paytida erining xuddi shu so'zlarini, xuddi shu ohangda kulib aytganini har kecha eshitardi. Kim bilsin, yana kimlar eshitmadi ekan bu so'zlarni...

Uning vujudini birdan g'azab yondirdi-yu, nafrat bilan pichirladi:

– Keting!

Shu tobda u Alimardonning yalinishini, yolvorishini istar, o'sha uyga baribir qaytib bormasligini bilib tursa ham, shuncha iztiroblari haqi uni tiz cho'ktirishni, qasos olishni xohlardi.

Ammo Alimardon yalinmadi. Uning ko'zlariga xotirjam tikilib turdi-da, sekin ta'kidladi:

– Bola bor, esingni yig'...

Muqaddam g'azab ichida qo'llari qaltirab, eshikni qar-sillatib yopdi-da, zanjirlab oldi. Nima qilayotganini o'zi ham tushunmay, uyga otilib kirdi. Uxlab yotgan Shavkatni dast ko'tardi-yu, biron tortib olib qo'yayotgandek mahkam bag'riga bosdi.

* * *

Shavkat tug'ilganidan beri Muqaddam uyqusi qush uy-qusidek ziyrak bo'lib qolgan edi. Hozir ham u endi ko'zi ilinganida kimdir ship-ship yurib yoniga kelganini sezdi-yu, uyg'onib ketdi. Boshida onasi engashib turardi. Uy ichi qorong'i bo'lsa ham u onasining chehrasidagi xavotirni pay-qadi. Ko'ylagining ko'krak tugmalarini qadarkan, onasiga tikilib so'radi:

– Nima bo'ldi, oyi?

Anzirat xola javob bermadi. Tashqarida shamol guvullab, derazaning ochiq qolgan bir tabaqasi g'iyqillar, uy ichidagi sukunatni chuqurlashtirishga qasd qilganday horg'in ingrar edi.

Muqaddam Shavkatni uyg'otib yubormaslik uchun eh-tiyot bilan o'rnidan turdi.

– Nima bo'ldi? – dedi tag'in shivirlab.

Ona Muqaddamga go'daklikdan tanish bo'lib qolgan xa-votirli ovozda pichirladi:

– Dadang keldi... – Uning yuragi orqasiga tortib ketdi, qo'rqa-pisa ayvon tomonga qarab qo'ydi. – Ko'chadan eshi-tib uyingga boribdi. Ering bilan gaplashibdi. Avzoyi yomon...

Muqaddam turgan yerida qotib qoldi. Bir vaqtlar qizaloq-lik paytida ayb ish qilib qo'ysa, dadasi uni ayovsiz kaltaklar, o'shanda onasi xuddi hozirgidek titrab-qaqshardi. Muqad-damning vujudini yengil bir titroq silkitib yubordi. U dadasi-ning qahri qattiq ekanini, „Qizing eridan chiqib keldi“, degan isnodni ko'tara olmasligini bilar edi. U dadasining ko'nglida

borini bilib olmoqchiday ayvon tomonga qarab qo'ydi. Qiya ochiq eshikdan uy ichidagi gilamga nur to'kilib turar, ammo dadasi ko'rinmasdi. Tashqarida hamon shamol guvullaydi, o'rik shoxlari ayanchli ingrab, bir-biriga qarsillab uriladi, bit-ta-yarimta yomg'ir tomchilayotgan bo'lsa kerak, deraza oynalari chirsillaydi.

Muqaddam yana bir nafas ikkilanib turdi-da, sekin-sekin borib, eshikni ochdi. To'rda, guldor qog'oz yopishtirilgan devor tagidagi ko'rpachada o'tirgan otasiga salom berdi. Lekin ovozi o'zi ham arang eshitdi. Dadasi o'siq qoshlari ostidan unga bir qarab qo'ydi-yu, alik olmadi. Uning ozg'in, serajin yuzida qon qolmagan, iyagi titraganidan qop-qora soqolining uchi bilinar-bilinmas silkinib turar, ko'kimtir tomirlari bo'rtib ketgan qo'lini musht qilib olgancha xontaxtaga tirab o'tirardi.

Muqaddam otasidan ko'z uzmay, oyoq uchida yurib kelib poygohga cho'kkaladi. Onasi ham sharpaday siljib keldi-yu, eridan ko'z uzmay ikkovlarining o'rtasiga o'tirdi.

Ota hamon indamas, xontaxaning yupqalanib ketgan qirasiga tikilganicha o'tirardi. Muqaddam mana shu dahshatli sukunatning tezroq tamom bo'lishini kutar, nima bo'lsa ham otasi tezroq gapirishini xohlar, hozir portlash ro'y berishini bilib azoblanardi. Onasi gapir, ahvolini so'ra, deganday Muqaddamga imlab qo'ydi. Ammo Muqaddam hozir otasining ahvolini so'rasa, battar lovullab ketishini bilardi. Shuning uchun indamay o'tiraverdi.

Nihoyat, otasi unga qoshini chimirib qarab qo'ydi.

– Ering bilan nega urishding?

Muqaddam dadasining ataylab yumshoq gapirganini tushundi. Lekin javob bermadi.

Onasi qo'rquv ichida goh qiziga, goh eriga qarab shoshilib gapirdi:

– Suv bir loyqalanmasdan tinmaydi... Ertaga o'zingiz obo-rib qo'yasiz, binoyiday bo'lib ketadi. – U Muqaddamga qarab xo'p de, deganday imladi.

Muqaddam bunaqa gaplardan foyda chiqmasligini bilib, past, ammo qat'iyat to'la ohangda yuragida borini aytdi:

– Yo'q, oyi, men qaytib bormayman!

Ona bechora olazarak bo'lib qolganini sezdi-yu, yana qaytardi:

– Bekorga ovora bo'lmanglar...

Otasi xontaxtaga yanayam pastroq munkayib, ko'zlarini tag'in bir nuqtaga tikib turaverdi.

Oraga yana o'sha tarang sukunat cho'kdi. Tashqaridagi shamol kuchayib ketdi. Endi shamol muttasil g'uvullar, o'rik shoxlarining vahimali vishillashi aniq eshitilib turar, bo'g'otning allaqayeri qirsillar, shiftdagi lampochka sekin-sekin lopillab dadasining soyasini xontaxta ustida u yoq-bu yoqqa silkitardi.

– Ering bilan gaplashdim. – Dadasining ovozi sukunatda jaranglab eshitildi. U o'zini bosib oldi shekilli, anchadan keyin bosiq ovozda qo'shib qo'ydi: – Qilmishidan pushaymon bo'lib o'tiribdi. Yalinib borsam, o'zi kelmadi, deyapti.

O'zining to'shagida yotgan o'sha juvon Muqaddamning ko'z oldiga keldi-yu, hali eskirmagan, hech eskirmaydigan alami yana lovullab ketdi. „Qilg'ilikni qilib qo'yib nega yaliniyadi?!“ Boyagi qo'rquv allaqayoqqa yo'qolib, o'rnini chidab bo'lmas nafrat egalladi.

U indamay yuzini o'girdi.

Yana onasi o'rtaga tushdi.

– Urmagan, so'kmagan er bormi, bolam? Bitta bolangni tirik yetim qilasanmi?

Muqaddam yaxshilik uchun yolg'on gapirgan onasiga ma'nosizgina qarab qo'ydi-yu, indamay o'tiraverdi.

– Avlodimizni eridan chiqish odati yo'q, – dedi otasi bo'g'iq ohangda. – Butun mahallaga halitdan gap tarqalib ketibdi... Qaysarlik qilma, yopig'lik qozon yopig'ligicha qolsin. Boshqa iloj yo'q.

Muqaddam kinoya bilan kulib qo'ydi. Boshqa iloj yo'q emish?.. Nima, birov undan o'tganini bilarmidi?

Onasi ota-bolani muhosaga keltirish, Muqaddamning shax-tini qaytarish uchun tag'in o'rtaga tushdi:

– O'zing ko'ngil qo'yib tekkansan, qizim... Birov seni majbur qilgani yo'q.

Muqaddam ayovsiz haqiqatni shundoqqina ro'parasiga keltirib qo'ygan onasiga yarq etib qaradi. „O'zim! O'zim! Hammasiga o'zim aybdorman! – U o'kinch bilan boshini quyi soldi. – Ko'ngil qo'yib... Ko'ngil qo'yibmi, majbur bo'libmi?!“ U allaqachonlardan beri shu savolni o'ylar, ammo javob topolmasdi. Boyagina Alimardonna qovura boshlagan nafrat olovining bir cheti endi o'zini ham kuydirib tashladi. Onasi yana allanimalar dedi. Ammo Muqaddam eshitmadi. Endi uning yuragini beshafqat bir qo'l g'ijimlar, lekin bu qo'l Alimardonnikimi, o'zining qo'limi – ajrata olmas edi.

– Ertaga u keladi.

Muqaddam dadasining so'zlarini yarim-yorti eshitdi-yu, burilib qaradi.

– Nima?!

– Ering kelib, olib ketadi, – dedi otasi yumshoq, lekin qaysar ohangda. Keyin yana ham yumshoqroq qilib qo'shib qo'ydi: – Uyat bo'ladi. Gunohini bo'yniga olib turibdi-ku. Iloj qancha?

– Men bormayman, – dadasi qanaqa ohangda gapirgan bo'lsa, Muqaddam ham xuddi o'sha ohangda javob berdi.

Otasining qalin qoshi ostidagi ko'zlari chaqnab ketdi. Endi uning qoni qaynay boshlagan, o'z hukmiga bo'ysunmagan-larning jazosini beruvchi asablari tarang tortila' boshlagan edi.

– Borasan! – dedi cho'rt kesib. – Bormasang, o'zim obo-rib qo'yaman.

– Bormayman!

– Borasan!

Otaning qoni gupullab ketdi. Lekin Muqaddamning vujudida ham xuddi shu ota qoni aylanardi. U mo'min-qobil onasiga emas, xuddi shu otasiga tortgan edi.

– Bormayman! – dedi u otasiga tik qarab.

– Hay, dadasi, bola qo‘rqadi! – ona dahshat ichida erining titray boshlagan qo‘llariga yopishdi. – Qo‘ying... Qo‘yinglar...

– Borasan, itvachcha, borasan!

Muqaddam sakrab o‘rnidan turdi.

– Bormayman! Bekorga ovora bo‘lasizlar!

Otaning ko‘zlari chaqnab ketdi. Mahsili oyog‘i bilan xontaxtani tepib yubordi. Xontaxta Muqaddamning shundoqqina oldidan uchib o‘tib, obrezga borib tushdi-yu, qar-sillab sindi.

Ona chirqillab eriga yopishdi. U allanima deb yolvorar, ammo Muqaddam eshitmas edi.

– Yo‘qol ko‘zimdan, ko‘rnamak!

Muqaddam jaholatdan qaqshayotgan otasining oldiga tik yurib keldi.

– Haydamaangiz ham ketaman! – U ko‘ksini to‘ldirib kelayotgan yig‘ini arang bosib, nim qorong‘i uyga otilib kirdi-yu, o‘g‘lini ko‘rpasi bilan yulqib karavotdan oldi. Shavkat g‘ingshib yig‘lay boshladi. Muqaddam yana shiddat bilan otilib chiqdi. O‘g‘lini mahkam bag‘riga bosib, ayvon eshigiga yetdi.

Ona endi erini qo‘yib yuborib, yig‘lagancha Muqaddamga yopishdi. U yig‘i aralash bir nimalar der, Muqaddamni olib qoladigan tanho umidi shudek Shavkatga talpinar, bolaning ko‘rpachasidan tortqilardi. Muqaddam hech nima eshitmadi. Ayvonning oynaband eshigini qarsillatib ochdi-da, o‘zining eng osuda damlari kechgan uyiga bir qarab qo‘ydi. Shu qarashda ko‘zlaridan yosh tirqirab ketdi.

– Tegma! Ketsin! – hayqirdi otasi turgan yerida yaproq-day qaltirab. – El-yurt oldida sharmanda qilgandan ko‘ra, yo‘qolib ketsin!

Muqaddam g‘ishtin zinadan hovliga sakrab tushdi. Qattiq shamol nafasini qaytarib yubordi. Ro‘moli pirpirab, yelkasi-dan sirg‘alib uchib tushdi, sochlari yoyilib ketdi.

Yo‘lak oldida onasi unga yetib olib, bilagiga yopishdi.

– Jon bolam, esingni yig‘, jon bolam! – dedi u yig‘lab.

Muqaddam onasining iztirob to'la yig'isini eshitib, qayrilib qaradi. Ammo to'xtamadi. Pastak darvozadan boshini egib ko'chaga otildi, yugurib ketdi.

Ko'chalarda shamol o'kirar, simyog'ochlar uchidagi lampochkalar shiddat bilan lopillar, chopib borayotgan Muqaddamning soyasini u yoqdan bu yoqqa irg'itar edi.

Toshkent! Odamlarning baxtini qanchalik bag'rikenglik, saxiylik bilan ko'ksiga sig'dirsa, baxtsizligini ham shunchalik bag'rikenglik, beparvolik bilan qarshilaydi!

Muqaddam ko'ksini to'ldirgan yig'idan dovdirab ko'cha bo'ylab borarkan, o'zini yakka-yolg'iz, ojiz his etar, odamlar allaqachon uy-uylariga kirib ketishgan, qaysi bir derazalarda chiroqlar o'chgan, kimlardir baxtidan entikib hayot gashtini surar, qaysi bir derazalardan kuy yog'ilib chiqar, kimlardir o'z oqshomini shodlikka to'ldirgan aziz bir odami bilan suhbat qurardi. Faqat u yolg'iz edi. Uning qadam tovushlari asfalt yo'lkada qarsillar, shamol aralash quloqni teshib yuborguday olis-olislariga tarqalar edi. Ha, u biladi! Otasi jahl ustida shundoq qilayotganini, zum o'tmay pushaymon bo'lishini, butun umidlari shu qizidan ekanini biladi. Onasi hozir alam ichida zir titrab, qo'rquvdan bexush bo'lib qolganini ham biladi. Lekin otasi, onasiga bo'lgan mehrdan ko'ra o'z-o'ziga bo'lgan nafrat zo'r chiqib, yetaklab ketyapti uni! Qayoqqa? Mana shuni bilmaydi u...

Muqaddam katta ko'chaga chiqaverishdagi pastak uy tagida yotgan xarsangtoshga ko'zi tushdi-yu, birdan hushi joyiga kelganday to'xtab qoldi. O'g'lining yig'layotganini, o'zining sochlari to'zib ketganini endi payqadi. Chiroq nurida unsiz boqib turgan bu tosh uning ko'ziga oltin bo'lib ko'rinib ketdi. Iliq, aziz xotiralarning quyuni to'satdan yopirilib keldi-da, sekingina tosh ustiga o'tirdi.

Bir vaqtlar eri urushda o'lgan xotin shu tosh ustida o'tirib, pista sotardi, Muqaddam qizaloq dugonalari bilan doim shu yerda o'ynardi.

Keyin... Keyin u oqshomlari o'zini kuzatib kelgan Anvar bilan xuddi shu yerda o'tirguvchi edi...

Birdan uning ko'z o'ngida hozirgi emas, o'sha o'z Anvar akasining uyatchan, xayolchan qiyofasi jonlandi...

Mana, hozir ham hamma yoqqa pista po'chog'i sochilib yotibdi. Chekka-chekkada oqarib yotgan papiros qoldiqlarini shamol ermak qilib pildiratyapti...

O'zi ham bir vaqtlar Anvarning muhabbatini ermak qilgan ekan. Dunyo o'zi shunaqa ekan. Kishi o'zini ardoqlaganlarga ozor berarkan-u, ozor berganlarni ardoqlarkan...

U o'g'li ko'ksini tortqilayotganini sezib, egilib qaradi. Shavkat ovunib qolgan, ammo uzun-uzun kipriklari orasida yosh yaltirab turar, jajji qo'lchalari bilan onasining siynasiga yopishib olgan edi. U o'g'luga bir qarashdayoq hamma fikrlari izsiz yo'qolib ketdi. Ko'ksi quyoshday yagona, quyoshday yorqin onalik mehri bilan to'lib-toshdi. Shavkatni mahkam bag'riga bosib, negaligini o'zi ham tushunmay jilmayib qo'ydi.

Ko'cha ichida shoshilinch qadam tovushlari eshitildi. Al-lakim halloslab yugurib kelardi. Muqaddam shoshilib, ko'ksini yashirdi. O'g'lini bag'riga mahkamroq bosib o'rnidan turdi.

– Muqad!

Muqaddam zulmat ichidan chiqib kelayotgan ayolni daf'atan taniy olmadi. Keyin tikilib turdi-yu, qichqirib yubordi:

– Lobar!

Lobar yugurib kelib, uni quchoqlab oldi. U harsillar, tez chopganidan rangi o'chib ketgan edi.

– Jinni! – dedi u Muqaddamga o'qrayib. – Esing bormi o'zi?! Nima qilib o'tiribsan, Anzirat xolamni o'ldirmoqchimisani? – U Shavkatni ko'tarib olmoqchi edi. Muqaddam bermadi.

– Qo'yaver o'zim... – Muqaddam uning kelinlik latofati barq urib turgan chehrasiga, atir hidi gurkirayotgan atlas libosiga qarab turib, loqayd so'radi:

– Qachon kelding?

– Vuy, odamning o'takasini yorib yuboray deding! – Lobar nafasini rostlab jilmaydi. – Oyim kasalliklarini eshitib kelgan edim... Uzoq yo'l, endi kelib turgandim, xolam yig'lab

chiqdilar... – U yo'l boshlar ekan, shamoldan yuzini pana qilib Muqaddamga qarab qo'ydi. – Jinni bo'lib qoldingmi?

Muqaddam sirdosh dugonasining xuddi shu paytda uchraganidan ko'nglida bir iliqlik uyg'onib, unga ergashdi. Lobarning shamolda xilpirayotgan etaklariga, shoshilib qadam bosishiga qarab borarkan, daf'atan xayoliga qiziq bir fikr keldi. Bu xayol umid chirog'i singari oldinga yetaklaganday bo'lib ketdi.

– Lobar, qishlog'inglarda menga ish bormi? – dedi shoshilib.

Lobar taqqa to'xtab, burilib qaradi. Yana yuzini kafti bilan shamoldan pana qilib, uzoq qarab qoldi.

– Nima, ketmoqchimisan? – dedi ishonqiramay.

– Ish bo'lsa, boraman! – Muqaddam Shavkatni o'nglab ko'tarib, o'jar, qat'iy ohangda yana takrorladi: – Butunlay ketaman!

Lobar uning aniq aytayotganini tushunib, tag'in bir nafas turib qoldi.

– Ish topiladi, – dedi o'ylanib. U dugonasining o'z yonida bo'lishidan quvona boshlagan edi. – Rostdan qaytib kelmaysanmi?

– Butunlay ketaman! – Muqaddamning o'zi oldinga o'tib, yurib ketdi.

Zum o'tmay ular ko'cha ichiga kirishdi. Ikki juft poshna sadosi shamol qanotida uzoq qarsillab turdi.

Muqaddam bu ko'chalarda o'zining qadam tovushlari endi yangramasligini bilardi.

* * *

Kattakon zal ham, balkonlar ham tomoshabinlar bilan liq to'lgan. Chekka-chekkadagi eshiklar ustida yonib turgan qizg'ish, o'ychan nur ostida odamlarning chehrasi shodon, hayajonli ko'rinadi.

Alimardon torini ko'tarib olganicha, sahna chekkasiga surib qo'yilgan zangori baxmal parda orqasidan zalga tikilib

turar, ijirg'anar edi. Kungurador shiftlar ostida Mutal Qodirovning mayin, dilkash ovozi ohista parvoz etgan, odamlar uni hayajondan entikib tinglashardi. Alimardonning nazarida yuzlarcha odamlar shu tobda bir ohangdan tebranib, bir ohang og'ushida to'lg'anayotgandek edi. Bahor suvlari-ning jarangdor kulgisi ham, iliq quyoshning erka nurlari ham, iboli yurak to'lqinlari ham – hamma-hammasi shu ohangda mujassam edi.

Zalda dahshatli qarsak ko'tarildi-yu, Alimardonning yuragi zirillab ketdi. U birinchi qatorda o'tirganlarga vahima bilan qarab qo'ydi. Odamlar baravariga qarsak chalishar, Alimardonning raqibini olqishlashardi.

Alimardon Mutalning zalga qarab yengilgina ta'zim qilib qo'yanini ko'rib turdi. U tomoshabinlarga yana bir mar-ta tashakkur bildirdi-da, sahna chetiga chiqdi. Konferansye qiz tez-tez yurib mikrofon oldiga borganida, qarsaklar yana kuchayib ketdi. Ammo qiz hech kimga parvo qilmay baland ovoz bilan qichqirdi:

– Navbat taniqli, sevimli xonandamiz Alimardon To'rayevga!

Alimardon torini qo'lga olib, chehrasiga o'sha tanish tabassumni qalqitdi-da, sahnaga chiqa boshladi. Ammo shu ondayoq qarsak ilgarigidan ham kuchayib ketdi. Avvaliga u odamlar meni olqishlayotibdi, deb quvondi. Lekin mikrofon oldiga kelganidan keyin chapak tovushlari bir me'yorda gurs-gurs urilayotganini ko'rdi-yu, bir nafas qotib qoldi. Odamlar norozilik bilan qarsak chalishar, zalning chekka-chekkalaridan hushtak ovozlari eshitilib qolardi. Nima gap? Odamlar uni haydashyaptimi? Mutalning o'zini talab qilishyaptimi?

U vahima ichida bir zalga, bir bo'zrayib qolgan konferansyega javdirab qaray boshladi, alamdan lablari titradi. Shunda ham o'zini o'zi majbur qilib qayta jilmaydi. Tomoshabinlarga qarab ta'zim qildi-yu, torini ko'tardi. Zal us-tida torning alamli sadolari jaranglay ketdi. Jarangladi-yu, shu ondayoq gumburlagan chapak tovushlari ostida ko'milib qoldi. Odamlar haydashar edi uni!

Alimardon birdan chalishdan to'xtadi. Sitam to'la ko'zlari bilan zalga tikilib qoldi.

„Bu qandoq sharmandalik! Bu qandoq sharmandalik!“

Bir vaqtlar momaqaldiroqdek gumburlab odamlarning yuragini larzaga solgan, chaqmoqdek chaq nab kishilarning ko'zini qamashtirgan Alimardon To'rayevning qismati shu bo'ldimi? Sahna gulshanida qanoti kapalakdek tovlangan Alimardonning umri shunchalar qisqa bo'ldimi?!

Har safar qiyqirib olqishlagan tomoshabinlar qani? Balki, o'shanda eng qattiq qarsak chalib olqishlagan odamlar hozir ham eng qattiq qarsak chalib uni haydashayotgandir?! Nahotki, Zufar Xodiyevichning gaplari to'g'ri chiqqan bo'lsa!

U zalga o'zining eng shirin, eng baxtiyor damlarini bag'riga yashirgan qarddon zalga, nochor termilib turgan til-siz devorlarga, munis qandillarga oxirgi marta qaradi-da, birdan ko'zlariga yosh quyilib keldi.

Turgan yerida shartta burildi-yu, chopganча sahna che-tiga chiqdi. Undan yo'lakka o'tdi-da, torini to'shalgan poyan-doza gashlaganча yugurib ketdi.

Teatr etagidagi bog'ga kirgandagina o'ziga keldi. Chor atrofda bahor yashnar, tabiat o'zining mangu, buzilmas qonu-niga amal qilib ko'klamni yetaklab kelgan edi. Bog' ustida orombaxsh shabada esar, havoda ko'katlar isi anqir, ko'klam shamoli mayin yaproqlarni silkitar, yomg'ir suvini emib to'y-gan yer emin-erkin nafas olardi.

Ha, yer yuzida qayta tug'ilish, qayta gullash, qayta hayot boshlangan edi. Yolg'iz uning – Alimardon To'rayevning ba-hori o'tgan edi.

Odam o'zi baxtiyor paytida o'zgalarning baxtsizligini tu-shuna olmas ekan. Muqaddam uyidan qon-qaqshab chiqib ketayotganida Alimardon uning mushtiparligini tushunmagan ekan. Mana, bugun o'zi baxtsizlik nima ekanini payqaganida birdaniga tushundi. Hammasini tushundi. Shu tobda oldida bi-ron-bir yupanchi, biron-bir suyanchig'i qolmaganini o'yladi. O'yladi-yu, butun vujudi bilan munkib ketdi. Shu tobda o'g'li-

ni, o‘zining yagona yupanchig‘ini bag‘riga bosib-bosib erkalatgisi, o‘zi ham kimgadir erkalangisi, dardlashgisi kelib ketdi!

Nachora? Hayot nimaniki taqdim etgan bo‘lsa, o‘shandan ortig‘ini qaytib olmaydi.

„Ahmoqlar! – deb o‘yladi u o‘zini sahnadan quvib chiqargan odamlarni o‘ylab. – Molfahmlar! Shular san‘atkorning dardini bilisharmidi? San‘at nimaligini tushunisharmidi?“

U boshini quyi solgancha sekin-sekin yurib borar, alamdand tishlarini g‘ijirlatardi. U odamlardan nafratlanar, kuni kecha bir nafaslik orom uchun chakkasiga pul qistirib, bugun o‘zini sahnadan haydagan yengil-yelpi tomoshabinlarni ko‘rardi-yu, chinakam san‘atni qalbining to‘rida saqlashga qodir chinakam shinavandalar ozmuncha emasligini bilmas, bilishni xohlamas edi.

U bahor quvonchiga to‘lgan ko‘chalardan soyaday sudralib borar, ammo hayot o‘zining kichkinagina bir zarrachasining fojiasiga parvo qilmas, yashash gashti bilan, tug‘ilish zavqi bilan mast edi.

* * *

Alimardon katta yo‘ldan burilib, tor ko‘chaga kirdi-da, o‘n qadamcha yurib to‘xtab qoldi. Devorlar osha egilib yotgan o‘rik shoxida danak qotirgan dovuchchalar marjondek tizilgan, oqarib qolgan gilolar ustida chumchuqlar parvona bo‘lardi. Quyosh endigina ko‘z ochgan, kechasi yog‘ib o‘tgan jalaning tarovatli nafasi hali ketmagan, asfalt ko‘chaning u yerbu yerida suv halqob bo‘lib yotardi. Hamma yoq jim, o‘tkinchilar siyrak. Faqat ko‘cha ichkarisida – yagona simyog‘och tagidagi sayhonlikda ikki qizaloq koptok o‘ynardi. Ularning biri, kalta qizil ko‘ylak kiygan qiz tomosha qilib turar, ikkinchisi, jajji duxoba nimcha kiyib, sochiga bargak taqib olgani koptokni yerga urib, gir-gir aylanardi. Koptok to‘p-to‘p etib yerga urilardi, har aylanganida qizaloqning bargaklari yoyilib-yoyilib ketardi. Qizil ko‘ylakli qiz o‘rtog‘ining aylanishiga havas bilan qarab, bir ohangda sanaydi:

– O'n yetti, o'n sakkiz, o'n to'qqiz...

Alimardon ularga qarab jilmayib qo'ydi. Hayot o'z yo'lidan borar, bahor bolalarga o'z quvonchi, o'z shodliklarini saxiylik bilan taqdim etgan edi.

Alimardon qizaloqlarning oldidan sekin-sekin yurib o'tib ketdi. Qizchalar parvo qilishmadi unga. U yana yigirma qadamcha yurib, boloxonali uy yonboshidagi ko'kish eshikni ko'rib to'xtadi. Yuragining bir burchida shuncha yillardan beri mudrab yotgan allaqanday pok, ammo azobli tuyg'ular birdan tug'yon urdi-yu, nafasi tiqilib qoldi. Bir vaqtlari – bundan uch yil burun u o'zining do'stlari bilan, yoshlik zavqiga to'lgan yigitlar bilan mana shu yerdan bir ko'cha bo'lib o'tib, ko'kish eshikdan kirib borgan edi. Uni quchoq ochib, farzandim, deb kutib olishgan edi. Endi-chi...

U qo'lga tushib qolishdan cho'chigandek oyoq uchida yurib yaqin bordi. Eshik qiya ochiq turardi. U boshini bir tomonga egib asta mo'raladi. Hovli o'rtasidagi vodoprovod jo'mragidan, suv sharillab oqib yotar, sement hovuzcha to'lib chiqib, ariqcha chetidagi barq urib yotgan o'smalarga toshib ketgandi.

Uning ko'z o'ngi qorong'ilashib, entikib ketdi. Hamma narsaning qadri yo'qolganidan keyin bilinarkan. Shu tobda-gina, u Muqaddamni sevganini, qattiq sevganini tushundi. Tushundi-yu, yengil titrayotgan qo'llari bilan eshik zanjirini qoqdi.

Ichkaridan ayol kishining „hu-uv“ degan tovushi eshiltildi. Ayvonning oynaband eshigi taraqlab ochildi-da, qaynanasi ko'rindi. U yo'lakda turgan odamni ko'rmadi shekilli, kaftini quyoshdan pana qilib tikildi. Alimardon uning qo'llari xamir yuqi ekanini ko'rdi. Kampirning egik gavadasi tag'in ham kichraygan, munkillab qolgan edi. Alimardon Muqaddamga uylanganidan keyin bu hovliga kam kelgan, qaynanasini ham, qaynatasini ham kam ko'rgan, ular uyiga borishganida ro'yxush bermas edi. Hozir u kampirni g'amg'ussa ado qilganini payqadi.

– Kelavering, – dedi kampir past, o'jiz tovush bilan.

Alimardon kirmadi, kirolmadi. O'sha, Muqaddam haydab yuborganidan beri bu uyga qadam bosishga haqi yo'qligini bilardi.

Kampir javob bo'lmaganidan hayron qoldi shekilli, zinatlardan avaylab qadam bosib hovliga tushdi. Suv toshib yotgan o'smalarni chetlab o'tib, yo'lak yoniga kela turib, taqqa to'xtab qoldi.

– Keling, – dedi u beixtiyor. Keyin birdan rangi o'chdi. Xira ko'zlari yarq etib ochilib ketdi. Begona, qora niyatli odam oldida turganday doka ro'molining uchi bilan yuzining yarmini yashirdi. – Nega keldingiz? – dedi ovozi titrab. – Nima kerak sizga?

Alimardon shu bir og'iz so'zdan – tubsiz alam, bir olam nafrat ohangidanoq hammasi tamom bo'lganini tushundi.

– Men... – Alimardon qaynanasining ko'zlariga qaray olmay teskari o'girildi. – O'g'lim qani? – dedi yuragidagi gapni aytib.

Ayvon eshigi yana sharaqladi. „Muqaddam“. Alimardon yuragini titratib yuborgan hayajon ichida yarq etib o'sha tomonga qaradi. Zinadan baland gavdasini g'oz tutib qaynatasi tushib kelardi. U hamon o'zgarmagan edi. O'siq qoshlari ostidan tikilib qaradi-yu, uzoqdan Alimardonni tanidi.

Alimardonning nazarida uning ko'zlari g'azabdan chaq nab ketgandek bo'ldi. U, Qori hozir, hozirning o'zidayoq haydab solishini his etib turar, endi bitta umidi qolgan edi. Alimardon o'g'lini ko'rgisi kelar, uning ovozini, loaqal yig'isini eshitib qolishini orzu qilardi.

Qori katta-katta qadamlar bilan yurib kelib Alimardonga ro'para bo'ldi. U qisqa-qisqa nafas olar, kulrang yaktagi tagidagi sertuk ko'kragi tez-tez ko'tarilib tushar, soqoli asabiy titrar, burun parraklari qisilib ketgandi. U Alimardonga, mana shu nobakorga arzigulik bir og'iz so'z topa olmaganday anchagacha tikilib qoldi.

– Nega keldingiz? – dedi u nihoyat tilga kirib.

Alimardon yuragini to'ldirgan tuyg'ularni bosib olib, sovuqqina:

- Muqad... – degan edi, Qori uning gapini kesdi:
- Muqadda nima ishingiz bor?

Alimardon hammasi tamom bo'lganini yanada chuqurroq his etdi. Gapni aylantirib o'tirishdan foyda yo'qligini bilib, ko'nglidagi bor gapni aytdi:

- O'g'lim qani?
- O'g'lingiz... – Qori lablari titrab qaytardi: – o'g'lingiz yo'q... Muqad ham yo'q.

Alimardonning ko'nglidagi iztirob o'rnini g'azab egalladi.

- Shavkat qani? Olib ketaman!
- Shavkat yo'q! – Qori chertib-chertib ta'kidladi. – Shavkatni onasi olib ketgan.

„Qayoqqa?“ Alimardonning xayoliga shu fikr urildi-yu, ammo so'rab o'tirmadi.

- Haqingiz yo'q, – dedi bo'g'ilib. – Men otaman.
- Bola tug'dirishni bilganlarning hammasi ota bo'lavermaydi!

Pastak eshik uning yuzi oldida qarsillab yopildi. Zanjir shiqirladi.

Alimardon g'azab o'tida lovullab bir nafas turdi-da, shartta burilib ketdi.

U hech nimani ko'rmas, ko'z o'ngini oyog'ini „velosiped“ qilib qiyqirayotgan o'g'li to'sib olgan, boshini quyi solib borar, nariroqda esa qizaloqlar hamon chirchira o'ynashardi.

* * *

Goho zarurat bo'lib, eski lash-lushlar bilan to'lib ketgan hujrachani titkilab qolsangiz, zanglab yotgan pichoqchangizmi, jiyagi titilib ketgan do'ppingizmi topilib qoladi. Shunda allaqachon yillarning gardi bosib, tusini yo'qotgan xotiralar to'satdan yarq etadi-yu, tag'in alangalanib ketadi, yuragingizni o't bo'lib yondirib yuboradi. Bir vaqtlar o'sha pichoqchada toldan hushtak yasaganingiz, o'sha do'ppi-

ga qattiq non solib, ariq bo'yida oqizoq qilib yeganlaringiz yodingizga tushadi. Kechmish yillaringiz, o'sha tongday musaffo yillaringiz hozirgi kuningizga qaraganda ancha beg'ubor, ancha pok bo'lganini ayanchli bir haqiqatday tan olishga majbur bo'lasiz.

Alimardon Anvarning yangi mahalladagi shahar hovlisiga kirib kelganida xuddi shunday ahvolda edi. U bu yerga boshi og'ib kelib qoldi, ammo, baribir, Anvarning oldida bosh egishga majbur bo'lishini o'ylab, ich-ichidan ezila boshladi.

Alimardon oldi ochiq ayvon to'rida – guldor ko'rpacha ustida o'tirgancha atrofni sog'inch bilan tomosha qilar, bu yerdagi hamma narsa uning bolaligini eslatar edi. Tokchalardagi yaltiroq barkashlar ham, ayvonning yo'g'on-yo'g'on, xiyla sarg'ayib qolgan to'sinlari ham ko'ngliga yaqin, qadrton edi.

Bir vaqtlar qish kechalarida Alimardon dalada zerikib ketar, ta'tilda shu yerga kelardi. Anvar bilan kechgacha urinib hovli o'rtasida qorbobo yasashar, kechalari xuddi shu ayvon oldiga chodir tashlab qo'yilar, ular tanchaga oyoq uzatib al-lamahalgacha turshak chaynab o'tirishardi. Tong saharda uyg'onib, hovondagi sopol tovoqlarni olishar, muzlagan qaymoqqa shosha-pisha qora non bo'ktirib yeyishardi.

U o'sha damlarni eslab, miyig'ida kulib qo'ydi. Hozir ham deyarli hech nima o'zgarmagan. O'sha ayvon, o'sha kaftday hovli. O'rtadagi o'sha bir tup tut oqarib qolibdi. Qarshi tomondagi boloxonada Iqbol xolaning sarishta qo'llari bilan ipga tizilgan marjon-marjon garmdorilar osilib turibdi. Faqat boloxona tagidagi uy o'zgaribdi. Oqlanibdi, yangi eshik o'rnatilibdi, sirlangan derazalarda kelinlik nishoni bo'lgan nafis darpardalar...

Oshxonada Iqbol xola ko'rindi. U Alimardon ko'nikib qolgan mayda-mayda, chaqqon odimlar bilan kelib, lip etib ayvonga chiqdi. Non, qand-qurs solingan patnisni Alimardonning oldiga, xontaxta ustiga qo'ydi.

– Kelganingiz qandoq yarashib turibdi, – dedi cho'kka-lab o'tirib non ushatarkan. – Santal rahmatlik shundoq bo'lib

ketganingizni ko'rganida yurakkinasi qoq ushalmasmidi. Yaratgandan ham aylanay. Bandasini doim bir tomondan qisib qo'yadi-da! – U choy quyib uzatdi. – Oling, aylanay, begonalarga o'xshab o'tirmang.

Alimardon choyni olarkan, zimdan unga qarab qo'ydi.

„Anvar o'rtamizda bo'lib o'tgan gaplarni aytganmi, yo'qmi? – u Iqbol xolaning chehrasida hech qanday o'zgarish yo'qligini ilg'ab tinchidi. – Aytmagan...“ Iqbol xola deyarli o'zgarmagan edi. Hamon o'sha mehribonlik, qop-qora yuzlarida iliqlik. Faqat sochlarining oqi ko'payibdi.

Alimardon ko'pdan beri yerda – ko'rpachada o'tirmagani uchun oyoqlari uvusha boshladi. Ko'zlari bilan stul qidirarkan, birdan o'zining o'zgarib ketganini, qandaydir boshqa odam bo'lib qolganini o'yladi.

– Anvar kelib qolarmikan?

– Keladi, o'rgilay, hali-zamon kelib qoladi. – Iqbol xola ovozi pasaytirdi. – Kelinning oyi shu oy. Bolam boyoqish xavotir oladi-da. Ishdan chiqa solib uyga yuguradi. O'ziyam bu uyda chaqaloq ovozi chiqmaganiga ikkam o'ttiz yil bo'lyapti.

„Darrov bolalik ham bo'lishayotgan ekan-da!“ U birdan yana o'zining Shavkatini, uning qiyqirib kulishlarini esladi-yu, yuragi sanchib ketdi. „Hozir yo'lga kirgandir“.

Iqbol xola uning chehrasidagi alam ko'lankasini ilg'amadi.

– Kelin do'xtirga qatnayapti. Eson-omon qutulsin, ko'p yaxshi chiqdi-da, bolam boyoqish... Siz bemalol o'tirib turing, qoqindiq! – Iqbol xola yana o'sha ildamlık bilan o'rindan turib, hovliga tushdi.

Kunbotar oldidan havo qizib ketgan, dim edi. Chor-atrofdagi tunuka tomlardan chiqqan harorat hovli ichiga qamalib qolganday tuyular, tutning qilt etgan shabadaga zor yaproqlari g'amgin shalpayib turardi.

Hovli yuzida yana Iqbol xola ko'rindi. U ko'ylagining etagini lippasiga qistirib olganча paqirlab suv sepa boshladi. Qizigan tuproqning mayin isi gurkiradi. Bir hovuch suv

ayvonning pishiq g'ishtdan urilgan poydevoriga sachradi-da, shimilib ketdi.

Alimardon sekin o'rnidan turdi. Uvushib qolgan oyoqlarini yozib, kerishdi. Uning ketgisi kelardi...

Alimardon Anvarni qadam tovushidanoq tanidi. Chehrasiga qalqib chiqqan alamli ifodani yashirishga urinib, burilib qaradi.

Anvar ayvon oldidagi g'ishtin yo'lakning o'rtasida taqqa to'xtadi. Uning chehrasida hayrat ifodasi qotib qolgan, chamasi, Alimardonning kelishini hech kutmagan edi.

– Ol, qasdingni olmaysanmi?! – pichirladi Alimardon undan ko'z uzmay turarkan. Shu tobda u Anvarning to'lishib, ulug'vor bo'lib qolganini payqadi. U boshqalarning, ayniqsa, shu yigitning o'zidan ustunroq bo'lishiga chidab turolmaz edi.

– Ketaymi? – dedi u lablarini zaharli qimtib.

Anvar xuddi shu gapni kutib turganday yaqin keldi. Pastdan turib qo'l cho'zdi.

Alimardon uning qo'lini parvosizgina qisarkan, yana kinoyalari bir xayol ko'ngliga sharpa solib o'tdi:

„O'zbekchilik qilyapti. Bo'lmasa allaqachon haydab yuborardi“.

– O'tir, – dedi nihoyat Anvar ko'rpachaga imo qilib.

Ikkovlari yonma-yon o'tirishdi.

– Qachon kelding?

„Tulkilik qilma!“ deb o'yladi Alimardon unga burilib qarab. Ammo Anvarning xotirjam ko'zlariga ko'zi to'qnashdi-yu, beparvo javob berdi:

– Hozir... Ketmoqchi bo'lib turgandim.

Anvar anchagacha indamay o'tirdi. U ayvonning yo'g'on ustuniga tikilib turar, chamasi, muhim bir narsani aytgisi kellar, ammo kerakli so'zlarni topib ololmasdi. Nihoyat, hovli tomonga shoshilinch qarab oldi-da, Alimardonning ko'zlariga qarab so'radi:

– Muqaddamda nima qasding bor edi?

Alimardon ich-ichidan seskandi. Istehzo bilan kulib ko'zlarini olib qochdi.

– Xursandmisan?..

Anvarning ko'zлари chaq nab ketdi. Rangi quv o'chib, labini tishladi. O'sha to'yga aytib borgan kuni Muqaddamning og'iroyoq ekanini ko'rganida so'na boshlagan o't, E'tibor og'iroyoq bo'lganidan beri butunlay so'ngan edi.

– Haliyam odam bo'lmabsan!.. – dedi u ovozi titrab. – Bolang bor, axir...

U Alimardonning eng nozik yarasiga tegib ketdi. Alimardon bu yerga ham faqat mana shuning uchun – bolasi tufayli kelgan edi. U Anvardan yengila boshlaganini his etib, lov etib yondi.

– Jig'imga tegma! – dedi tishlari qisirlab.

Anvar uning ahvolini tushundi. Anchagacha o'ylanib o'tirdi-da, shu tobda aytish kerak bo'lgan eng zarur gapni topdi:

– Yur, Muqaddamlarnikiga boramiz... – u bir lahza o'ylanib davom etdi: – yo oyimlar borsinlarmi?

Alimardon bu yerga xuddi shuning uchun kelgan edi. U yuragining bir burchida, eng ashaddiy dushmani bo'lsa ham mana shu Anvar yordam berishi mumkinligini bilardi. Shunda ham o'zidan past deb yurgan kishisiga bo'yin eggisi kelmadi.

– Keragi yo'q!

Anvar uning sidqidildan gapirmayotganini tushundi shekilli, yana qistadi:

– Kech bo'lib ketyapti, tur...

Ular Iqbol xolaning tayyor oshini tashlab chiqib ketishdi...

Tor ko'chalar chang-to'zon, bolalar qiy-chuv solib maktabdan qaytishardi.

Alimardon rul chambaragidan ushlagancha ko'cha boshida turar, Anvar kirib ketgan o'sha ko'kish eshikka qarab-qarab qo'yar, ketma-ket sigaret tutatardi. U hammadan ham Muqaddamni ko'rganida o'zini yo'qotib qo'yishidan vahimaga tushar, sovuq gaplashib, uning o'zini aybdor qilib qo'yish, yalintirish kerakligini o'ylar edi.

Oqshom quyuqlashib ketdi. Kun bo'yi o'z tashvishi bilan yelib-yugurgan shahar ustiga tunning qora qushi kelib qo'ndi.

Odamlar biroz tinchib qolishdi. Osmonda yakka-yolg'iz shoshqaloq yulduzlar yondi. Derazalarda chiroqlar parpiradi. Televizorli uylar darchasidan ko'kish nur yog'ila boshladi. Ko'l chetidagi bog'da surnay sadolari yangrab ketdi. Shabada allaqayerdan yozlik kinoteatr karnayining ovozi olib keldi. Har kim o'z ko'ngli tusagancha dam ola boshlagan edi.

Faqat bitta hovlida – Anvar kirib ketgan uyda toshday sukunat qotgan, tiq etgan tovush eshitilmas, go'yo Anvar hovliga kirgan-u, allakim qazib qo'ygan tubsiz chuqurlikka tushib yo'qolganday edi.

Alimardon g'ijinib mashinadan tushdi. Endi oldinga bir qadam bosgan edi, eshik zanjirining shiqirlagani eshitildi. U birov kelib yoqasidan oladiganday shoshilib mashinaga kirdi. Eshikni taraqlatib yopib oldi.

Uzoqdan Anvarning oq ko'ylagi ko'rindi. U yolg'iz o'zi kelar, hech qayoqqa qaramay, yelkasidan og'ir yuk bosgan odamday og'ir-og'ir qadam bosardi.

„Yo'q debdi!“ Alimardon yuzlari o't bo'lib yonib ketganini sezdi-yu, g'azabdan tomiri tortishayotgan qo'llari bilan motorni yurgizdi.

Anvar uning yoniga og'ir cho'kdi-da, indamay o'tira-verdi: Alimardon nim qorong'ilikda uning rangi o'chib ketganini, ko'zlarida tubsiz bir g'ussa borligini sezdi.

Mashina bir sapchib yelib ketdi.

– Xo'sh? – Alimardon ovozi xirillab so'radi. – Nima dedi?

Anvar yana uzoq jim ketdi. U o'zini bosib olishga urinayotganini Alimardon bilib turardi.

Hozirgina suv sepib o'tilgan katta ko'chaga chiqib olishgandan keyin Anvar unga qarab qo'ydi.

– To'xtat mashinangni! – dedi ovozi xirillab.

Alimardon tormozni taqqa bosdi.

Anvar peshanasi bilan old tomondagi oynaga urilib ketay dedi. Uning ko'zlari qorong'ida charaqlar, vajohati xunuk edi.

– Muqaddam qishloqqa ketibdi, – dedi ovozi qaltirab. – Butunlay ketibdi – U boyadan beri bo'g'ziga tiqilib turgan

gapni endi aytdi: – Sening shunchalik haromligingni bilganimda bu yerga kelmasdim! Hayf senga otalik!

Alimardonning qalbidagi eng nozik tor uzilib ketdi. U faqat mana shu gapdan, birov o'g'lini eslatishidan dahshatga tushardi. G'azab ichida Anvarni yoqasidan olmoqchi bo'ldi-yu, kechikdi. Anvar allaqachon yerga sakrab tushgan, eshikni siltab yuborgan edi. Eshik tutqichi Alimardonning qo'lga qarsillab urildi. Zum o'tmay Anvarning oq ko'ylagi zulmat ichiga sho'ng'idi.

– Shunaqami? – Alimardon alam bilan pichirlab gazni bosdi. – Shunaqami hali! – U shiddat bilan mashinasini yeldirib ketdi. – Haromlikni mendan ko'rsin! Qishloqqa ketish mana bunaqa bo'ladi! Butunlay ketish mana bunaqa bo'ladi!

U kuchi boricha gazni bosar, mashina quturib ketganday u yoq-bu yoqqa silkinib, gavjum ko'chalardan uchib borar, siyrak o'tkinchilar qo'rquv ichida o'zini chetga otishardi.

* * *

Mudhish bir tumanlik ichida adashgan ikki yil o'tdi. Alimardon qancha may ichganining, qancha ayollar bilan ulfatchilik qilganining hisobiga yetmadi. Bir ko'ngli Klaraga uylangisi keldi-yu, aynidi. Endi u televizorda kam ko'rinar, konsertlarda onda-sonda chiqib qolar, odamlar o'zini olqishlamayotganini ko'rib jini qurishar, lekin odamlar ham endi unga zor emas edi!

Endi u yagona bir nasranning – pulning hisobini bilardi. Pul uchun dunyoning narigi chekkasiga borishdan ham toymas, to'ylarda tongotar ashula aytib, xirillab qolardi.

Hushyor paytlarda u o'zining ahvolini o'ylab qarar, nazarida dahshatli tush ko'rayotganga o'xshab ketar edi. Goho u uyg'onib ketishni juda-juda xohlar, puldan ham, qarsaklardan ham, mastona o'tirishlardan ham – hammahammasidan voz kechib o'tmishga, pokiza o'tmishga, o'z bahoriga qaytishni orzu qilar, ammo qaytish yo'lini topolmas, yana may bilan taskin berardi o'ziga.

Bu orada Zufar Xodiyevich pensiyaga chiqib ketdi. Teatrdagilar uni allanechuk mehr bilan kuzatdilar. Shunda Alimardon ham bu odamni yaxshi ko'rishini birinchi marta his qildi...

Ora-chora Anvar kelib turardi. Alimardon avvaliga ro'y-xush bermay yurdi-yu, keyin ko'nikib ketdi. Ular o'tmishlari haqida, bolalik xotiralari to'g'risida uzoq-uzoq gaplashib o'tirishardi. Anvar gohi-gohida chopqillab yuradigan bo'lib qolgan qizchasini ko'tarib kelardi. Shunday paytlarda Alimardonning ko'z o'ngida karavotchasida qiyqirib yotgan Shavkat paydo bo'lar, azobli sog'inch tuyg'usidan titrab ketar edi. Anvar har gal bir narsani qistar, „Muqaddam bilan yarashgin“, deb tayinlar edi. Alimardon ham har gal bir xil javob berardi: „Kerak bo'lsa o'zi kelsin!“ Shundoq derdi-yu, kechmish kunlarini qo'msab, dili o'rtanayotganini bilib qolardi.

Shunday kunlardan birida Alimardon esini taniganidan buyon birinchi marta o'zga kishidan yengildi. U yo'lida uchragan har qanaqa g'ovni bosib-yanchib o'tishga, doimo g'olib chiqishga o'rgangan edi. Shu kuni yengildi. O'zi „so'tak bola“ deb yurgan o'sha Mutal Qodirovdan yengildi!

Erta bilan vokzalga keldi. Yo'q, uning kutadigan ham, kuzatadigan ham odami yo'q edi. Shunchaki, boshi aylanib kelib qoldi. Vokzal binosi oldidagi qahvaxonaga kirdi-da, deraza yonida turgan stol qarshisida o'tirganча odamlarni kuzata boshladi.

Havo tund, salqin edi. Maydondagi gulzorda dakana tang'igan xotinlar cho'nqayib o'tirishar, chamasi, xonaki gunafsha ekishardi. Eng so'nggi qor erib ketgan, asfalt maydon qurib qolgan, taksi bekatida odamlar mashina talashardi.

Vokzal gavjum, maydonchadagi skameykalar to'lib ketgan. Birov chamadonga yonboshlab mudrar, birov papiros tutatib, xayol surib o'tirar, boshqalar do'kondan kitob tanlar edi. Ana, qizil jemper kiygan bir xotin ko'ksini ro'moli bilan yashirib bola emizib o'tiribdi. Uning yonidagi semiz kishi beparvo gazeta o'qiydi. Oynaband eshik oldida turgan yigit

ko'kish yomg'irpo'sh kiygan qiz bilan ohista suhbatlashadi. Qiz shodon kulib qo'yadi. Chamadon ko'targan, qop orqalagan odamlar zir yugurishadi. Betoqat baqirib-chaqirishadi. Ko'k shapka kiygan temiryo'l xizmatchilari chamadon yuklangan aravachalarini g'izillatib o'tib qolishadi...

Alimardon ularni kuzata-kuzata kulib qo'ydi. Ajab, qayoqqa shoshiladi bu odamlar? Muncha zir yugurmasa bular! Qayoqqa talpinadi? Baribir borar manzili bitta-ku!

Navbatchi allaqaysi poyezd kelganini e'lon qildi. Odamlar tag'in ham chaqqonroq bo'lib qolishdi. Kepkasini bostirib kiyib olgan bir yigit kattakon guldastani silkitganча perron tomonga chopib ketdi. Xotininimi, sevgilisini kutib olayotgan bo'lsa kerak.

Alimardon kimdir o'zini chaqirganini anchadan keyin eshitdi. Burilib qaradi-yu, qarshisida xiyol egilib turgan Mutal Qodirovni ko'rdi. Mutal sportchilardek tarang, kulrang jemper kiyib olgan, shuning uchun bo'lsa kerak, gavdasi yanayam ixchamroq ko'rinardi.

U salom berdi-da, Alimardonning qarshisiga o'tirdi.

– Namanganga, qishloqqa borgan edim. Poyezddan hozir tushdim, – dedi Mutal ingichka barmoqlari bilan jingalak sochlarini tarab. Keyin uzr ohangida davom etdi: – Qarasam, siz o'tirgan ekansiz...

Alimardon g'ijini yuzini o'girdi. U bu yigitni yomon ko'rishini yashirib o'tirmas, teatrdami, ko'chadami duch kelib qolsa teskari qarab o'tib ketardi. Alimardon bir kun emas bir kun tomoshabinlar uni ham qo'g'irchoqni o'ynab-o'ynab, zerikkandan keyin uloqtirib yuborgan boladek unutilishlarini kutar, ammo niyatiga yetolmas edi. Mutal uning ko'z o'ngida kun sayin o'sib borar, hech qachon boshqalardan oldinga o'tib olishga urinmas, shuning uchun bo'lsa kerak, eng oldinda yaraqlab ko'rinib turardi.

– Birovni kutyapsizmi?

Alimardon uning gaplashgisi kelib turganini payqab yana ijirg'andi.

– Ha, sizni kutib o‘tirgandim! – U Mutalning hamon bolalarcha sodda nur arimagan ko‘zlariga tikilib turib, achchiq kuldi. – Menga bir nasihat qilib qo‘ymaysizmi? Teatrdan gapiring! Stanislavskiydan leksiya o‘qing!

Mutal unga o‘ychan qarab qo‘ydi-yu, indamadi. Ancha-gacha ikkovlaridan sado chiqmadi. Alimardon qo‘li bilan deraza tomonga imo qilib yana kuldi.

– Odamlarni tomosha qilyapman. Ular sizni har kuni tomosha qiladi. Siz ham bir tomosha qiling, axir. Odamlarni yaxshi ko‘rasiz-ku! – U Mutalning ko‘zlariga tikandek qadali so‘radi: – Yaxshi ko‘rasizmi, axir?

Mutal boshini ohista silkitdi.

– Ana, barakalla! – Alimardon huzur qilib kuldi. – Shular orasida bugun sizga guldasta tutib, ertaga unutib yuboradigan beburdlar borligini bilasizmi?

Mutal boshini quyi solganicha kafti bilan stol ustidagi non ushoqlarini bir chekkaga yig‘ishtira boshladi. Uzoq o‘ylab turdi-da, bir qarorga kelgandek ishonch bilan bosh ko‘tardi.

– Bilaman. Lekin shular orasida ming yillardan buyon „Munojot“ni, „Cho‘li iroq“ni chalib kelayotgan, Navoiyning g‘azallarini bolasiga o‘rgatib kelayotgan odamlar ko‘p-ku! Axir, o‘zingiz xalq qo‘shiqlarini yaxshi ko‘rasiz-ku! Shunaqa ashulalarni qayta-qayta aytgansiz-ku!

Alimardon u bilan hech qachon shunaqa dangal gaplashmagan edi. „Tiling burro-ku“, deb o‘yladi hamon ermak qilib jilmayib turarkan. Keyin parvo qilmagandek qo‘l siltadi. Shosha-pisha vokzal binosiga yopirilib kirayotgan odamlarga imo qildi.

– Mana shularning ichida bulturigi olmani uch bahosiga pullash, xuddi o‘ziga o‘xshagan odamlarni laqillatish uchun yo‘lga chiqqanlar yo‘qmi? Erining qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib, begona erkakning sochini iskash uchun kurortga ketayotgan xotinlar yo‘qmi? Nechtasini topib beray?

Mutal bu safar ham unga xotirjam qarab qo‘ydi.

– Bor...

Alimardon mamnun qiyofada stolni shatillatib urdi.

– Har kim o'zining huzurini o'ylaydi. Siz xalqqa xizmat qil-yapman, nom qozonyapman, deb kerilib yuribsiz. Bular bo'lsa sizni sahnaga chiqarib qo'yib, yuragining hovurini bosadi.

Mutal sekin xo'rsinib qo'ydi. Bolalarcha sodda yuzi-da armon ko'lankasi paydo bo'lganini ko'rib, Alimardon ich-ichidan kuldi. „So'taksan hali, qo'g'irchoqsan! Payti ke-lib ko'zing moshdek ochiladi!“

– Qishlog'imizning tepasida Qodirobod degan bog' bor, – dedi Mutal uning gapini eshitmagandek. – Kecha o'sha bog'ga bordim. Bir vaqtlar otam adirdan yuz gektar joy ochib, bog' qilgan ekan. O'lganidan keyin bog'ni otamning nomiga qo'yishgan. – U derazadan maydonga o'ychan qarab qo'ydi. – Mardon aka, men otamni tanimayman. Faqat bitta surati qolgan. Dengizchilarning kokilli shapkasini kiyib tush-gan surati. Urushdan keyin bir odam otamning qanday o'lga-nini onamga gapirib berganini eshitib qolganman. – U nega-dir horg'in qiyofada jilmayib qo'ydi. – Zerikmadingizmi?

– Gapiravering, – dedi Alimardon yana ermak qilib. – Siz bilan ko'pdan buyon gaplashmaganmiz.

Mutal uning kinoyasiga parvosizgina qarab qo'ydi.

– Otam suvosti kemasida xizmat qilarkan. Bir kuni qirg'oqqa razvedkaga chiqishibdi. Nemislar otam bilan o'sha odamni ushlab olibdi. Keyin otamning oyog'ini osmondan qilib, qayiq orqasiga bog'lashibdi-da, suvga tashlashibdi. Otam tipirchilab-tipirchilab tinchib qolganidan keyin dengiz-ga uloqtirib yuborishibdi.

Alimardon bo'g'ziga suv tiqilib tipirchilayotgan odamni to'satdan ko'z o'ngiga keltirdi-yu, vujudi muzlab ketdi.

– O'sha paytda, – dedi Mutal o'ziga o'zi gapirayotgan-dek, – otam siz aytayotgan iflos odamlarni emas, chinakam insonlarni o'ylagan bo'lsa kerak... Otamning bitta xatini hamon asrab yuraman, – dedi Mutal anchadan keyin xo'rsinib: „Dunyoda odamlarni yaxshi ko'rishdan kattaroq baxt yo'q“, deb yozgan ekan otam o'sha xatida.

Oraga jimlik cho'kdi. Hali kun erta bo'lgani uchunmi, qahvaxonada odam siyrak, stollar bo'sh, atrof jimjit edi.

– Onam boshqa turmush qurmadi, – dedi Mutal o'ylanib. – Avvaliga bu narsada hech qandoq sir yo'qdek edi. Onam bo'lganidan keyin men uchun yashasin-da, deb o'ylardim. Mana, o'zim ham uylandim. Bolalik bo'ldim. Onamning qad-rini endi bila boshladim. Meni deb hamma narsadan voz ke-chish oson bo'lmaganini endi tushundim.

„Nima keragi bor shu gaplarning!“ deb o'yladi Alimardon ko'ngli cho'kib. U boyagi ermak qiluvchi kulgilari yo'qol-ganini, Mutalning gaplariga ilk marta jiddiy e'tibor bera boshlaganini o'zi ham sezmay qoldi. Uning ko'z o'ngida onasi jonlandi. Qiziq, u hech qachon onasini o'ylamagan ekan. O'lganidan keyin ham, onam men uchun yashagan edi-ku, degan gap xayoliga kelmagan ekan. Axir, uning otasi ham urushda o'lgandi-ku! Uning onasi ham, shu bolam odam bo'lsin, deb yarim ko'ngil bilan o'stirgan edi-ku. Nahotki, mana shu bola bilgan gapni u tushunmasa!

– Bunaqa onalar ko'p bo'lsa kerak, – dedi Mutal uning xayolini uqib turgandek. – Bilmadim, nimagadir men shu-naqa deb o'ylayman.

Alimardon shu tobda nimadir deyish kerakligini bilar, ammo gapirolmas edi. Uzoq vaqtlardan beri, onasi vafot etganidan beri birinchi marta uning ma'yus boqishlarini aniq tasavvur etdi. Keyin negadir Shavkatni, o'zining Shavkatini ko'z o'ngiga keltir-di-da, tag'in ko'nglida o'sha ayovsiz sog'inch dardi uyg'ondi.

– Men odamlarni yaxshi ko'raman, – dedi Mutal unga parvo qilmay. – Yo'q, otamning vasiyati tufayli emas, o'zim yaxshi ko'raman. Odam bolasi tug'ilgan paytida pokiza bo'ladi-ku. Uning umrbod shunaqa pokiza bo'lib qolishi siz-ga, menga, hammaga bog'liq emasmi?

Alimardon allanima demoqchi bo'ldi. Mutal yana ga-pirtirmadi.

– Alimardon aka, men sizning qo'shiqlaringizni o'rganib hofiz bo'lganman, – dedi Mutal unga ma'yus boqib.

Alimardon uning rost gapirayotganini bir qarashdayoq payqadi. Ammo hech nima demadi. Chamasi, Mutalga ham bularning hammasi baribir edi.

– Sizga nasihatgo'ylik qilishga haqqim yo'q. O'zingiz bilasiz, dunyoga kelgandan keyin biron-bir maqsadi bo'lishi kerak-da odamning. Siz aytganday tomoshabinlarning qar-sagini eshitish, nom qozonishga ishqiboz emasman. Dunyoda hamma narsa o'tkinchi. Yana ellik yildan keyin birov meni eslaydimi, yo'qmi, unisini bilmayman. Menga buning qizig'i ham yo'q. Men yuragimdagi xursandchilikni ham, alamimni ham odamlarga – tomoshabinlarga to'kib solaman. Mening ashula aytishdan maqsadim shu...

...Alimardon Mutalning qachon turib ketganini bilmadi.

Shu tobda alamli bir muammo uning yuragini o'rtar edi. Nahotki, mana shu bola, kuni kecha o'zining qo'shiqlarini o'rganib, sahnaga chiqqan mana shu go'dak bilgan narsani Alimardon bilmasa? Nahotki, Alimardonning shuncha mehnatlari bemaqsad ketgan bo'lsa?! Nahotki, u dunyoga kelib, durustroq niyat bilan yashamagan bo'lsa?

Qahvaxonaning ichi shovqin-suron bo'lib ketdi. Bir to'da yosh-yalanglar sotuvchining atrofini o'rab olishdi.

Alimardon asta o'rnidan turdi-yu og'ir-og'ir qadamlar bilan zinalardan tushib ketdi.

* * *

Alimardon tag'in muallaq tumanlik ichida qoldi. Kalavaning uchini izlab ko'rdi-yu, topolmadi, oxiri Mutalning o'sha kungi gaplari shunchaki valdirashdan boshqa narsa emasdek tuyula boshladi. Yana o'sha sarxush kechalardan taskin izladi. Ammo topmadi. Topolmadi.

Mana shu boshi berk ko'chaning eng ichkarisida ojizgina nur yiltillab turar, ingichka ip bo'lib, kelajakka bog'lanayotgandek edi... Bu nur – Shavkat edi! Ikki yil ichida u yolg'iz mana shu nur umidida yashadi. Qiziq, u o'ta quvonchli yoki o'ta g'amgin damlarida Shavkatni eslar, karavotchasida

oyoq-qo'lini silkitib, qiyqirib yotgan o'g'li xayolida shundoq jonlanar, hozir uning katta bo'lib qolganini, chopqillab yurib ketganini, bijildoq bolakay bo'lganini tasavvur etishga urinar, ammo hech ko'z o'ngiga keltirolmas edi.

„O'zi keladi, – derdi u Muqaddamni o'ylab, – bola bor, bir kuni keladi“.

Lekin Muqaddam kelmadi. Bir kuni uning o'rniga Alimardonni sudga chaqirib qog'oz keldi.

Alimardon xafa ham bo'lmadi, quvonmadi ham. Faqat bir narsa, Shavkatni ko'rish istagi uni sud eshigiga yetaklab bordi. U mashinasini sud binosining soyasiga qo'ydi-da, ikkinchi qavatga ko'tarildi. Yo'lak bo'ylab borarkan, o'zining hayajonlanayotganini, rangi quv o'chib ketganini sezdi. Yuragi gursullab urgancha atrofga alanglab, Muqaddamni, to'g'rirog'i, Shavkatni izlay boshladi. Yo'lak bo'm-bo'sh edi.

U to'g'ridagi eshikni ochdi-yu, eng avval Muqaddamni ko'rdi. U xona o'rtasidagi uzun skameykaning bir chekkasida eshikka orqa o'girib o'tirardi. Muqaddam qora atlas ko'ylak kiyib olgan, boshyalang, sochi turmaklangan edi.

Alimardon bir lahzada xonani ko'zdan kechirib chiqdi. To'rdagi alvon yopilgan stol qarshisida tepakal, ozg'in kishi o'tirar, yonidagi ko'zoynak taqqan kekxa xotinga allanimalarni ohista gapirardi. O'ng tomondagi stolda esa kotiba qiz allaqanday qog'ozlarni to'ldirardi.

Alimardon o'zini majbur etib dadil-dadil qadamlar bilan yurib keldi-da, skameykaning berigi chetiga o'tirarkan, Muqaddamga qarab qo'ydi. Muqaddam ham unga o'girilib qaradi. „O'zgarmabdi“, deb o'yladi Alimardon ko'zlarini olib qochmaslikka urinib. Hamon o'sha egik, uzun kipriklar, hamon o'sha tiniq chehra... Alimardon uning chindan ham chiroyli ekanligini o'yladi-yu, shoshib yuzini o'girdi. Bu odam endi unga begona...

Tepakal sudya Alimardonni so'roq qildi. U nimalar deganini o'zi bilmadi. Ko'nglida kechmishning totli damlarini qo'msash tuyg'usi uyg'onib, yana azob bera boshladi.

Muqaddamning ilk bora o'z uyiga kirib kelgani, ilk marta bag'riga bosgani... Soddagina, bo'ysunuvchan xotin bo'lgani... Shavkat tug'ilganida quvonganlari... Nihoyat, eshikni qars yopib, ostonadan haydab yuborganini esladi-yu, „Murosamiz to'g'ri kelmadi. Menga bolamni qaytarsa bo'ldi“, deganday javob qilib joyiga o'tirdi.

Keyin Muqaddam o'rnidan turdi.

U ham eng avvalo, ilk bora Alimardonning uyiga kirib borgani, to'y bo'lgani, uning mana shu qaysar sochlarini silaganini o'yladi. Keyin Shavkat ko'z o'ngiga keldi. U, shahardan senga uch g'ildirakli velosiped olib kelaman, deb uydan chiqqan edi. Keyin tag'in Mardon akasi bilan kechirgan kunlarini esladi. Oxiri ko'z o'ngida o'zining to'shagida o'tirgan yarim-yalang'och xotin paydo bo'ldi-yu, bir og'iz „Yo'q, birga yasholmayman“, deb javob berdi.

Sudya bilan maslahatchi xotin uzoq nasihat qilishdi. Ammo natija chiqmadi. Oxiri sud ajratishga, bolani onasida qoldirishga qaror qildi. Zum o'tmay xona bo'm-bo'sh bo'lib qoldi.

Alimardon qizil baxmal yopilgan stol, shoyi darparda tutilgan pastak derazadan ko'z uzmay uzoq o'tirdi. Keyin birdan sakrab o'rnidan turib ketdi. Yuragi gursullab urgan-cha ikkinchi qavatdan o'qdek otilib tushib, ko'chaga chiqdi. Yo'lka chekkasidagi xonaki archa orqasiga o'tib ketayotgan Muqaddamning qora atlas ko'ylagini ko'rib qoldi-yu, sement ariqchadan hatlab o'tib ketidan yugurdi.

– To'xtang... – U avvalgidek „Muqad“ demoqchi bo'ldi-yu, nafasi qisilib takrorladi: – To'xtang, Muqaddamxon!

Muqaddam yarim o'girilib qaradi, „Nima gap?“ degandek kipriklarini pipiratib, qoshini chimirdi. Alimardon ikki qadamcha berida to'xtadi.

– Shavkat qani? – dedi u nafasini rostdab ololmay.

Muqaddam unga ma'nosiz qarab qo'ydi.

– Uyda, qishloqda...

– Qachon ko'raman, qachon?! – Alimardon o'zining o'tinch ohangda gapirganini payqab, g'ijini ketdi. – O'g'lim-

ni berkitishga haqingiz yo‘q! – dedi ovozi titrab. – Men uning otasiman.

Muqaddam unga yana ma’nosiz bir nazar tashladi.

– Siz unga ota bo‘lolmadingiz! – U keskin burildi-da, bekatga kelib to‘xtagan trolleybus tomonga yugurdi.

Alimardon yetib borguncha trolleybus yurib ketdi. U g‘azab bilan orqasiga qaytdi. Sud binosi oldida turgan mashinasiga o‘tirdi-da, trolleybusning ketidan shiddat bilan quva boshladi. Zum o‘tmay yetib oldi.

Alimardon trolleybusning katta-katta derazalariga qarab o‘tdi-yu, keyin birdan hafsalasi pir bo‘ldi.

„Qayoqqa boradi? Muqaddamning uyigami? Nima uchun? Xor bo‘lish, haydaliş uchunmi?!“

U gazni bosganicha shiddat bilan yelib ketdi. Restoran eshigiga kelganidan keyingina hushini to‘plab oldi. Bir lahza ikkilanib turdi-yu, ichkari kirdi.

* * *

Uch oydan keyin u Muqaddamning erga tekkanini eshitdi. Konservatoriyada birga o‘qigan kursdoshi shu xabarni topib keldi. Oynatog‘ga borganida Muqaddamning o‘zini ko‘rmabdi-yu, bittasidan eshitganmish. O‘sha yerlik Kabir degan bir o‘rmonchi agronom qayta-qayta sovchi qo‘yaverganmish. Muqaddam, yolg‘iz bolamni birovning qosh-qovog‘iga qarab qo‘ymayman, deb rozi bo‘lmaganmish. Yigit bo‘lsa yugura-yugura oxiri Muqaddamni ko‘ndirganmish.

Ajab, Alimardonning ko‘ngli endi taskin topgandek bo‘ldi. Go‘yo xuddi shu xabarni ko‘pdan buyon kutib yurganday edi. Faqat o‘sha kundan boshlab ko‘nglida tubsiz rashk uyg‘ondi. Qalbining eng chuqur yarasi – o‘g‘li qoldirgan yara chidab bo‘lmas azob berib achishib ketdi. U Shavkatning boshqa bir odamni ota deb chaqirishiga toqat qilolmas, aslo, aslo chidolmas edi! Bu yara kun sayin chuqurlashib borar, Alimardon kechalari mijja qoqmay to‘lg‘anib chiqar, o‘g‘lini qanday qilib bag‘riga qaytarish yo‘lini o‘ylar, lekin topolmas

edi. U kechalari turli rejalar tuzib chiqar, tong otishi bilan bu rejalarning hammasi bema'ni ekanini, raqibining ostonasiga bosh egib borishi mushkul ekanini bilar, o'g'lini qaytarish uchun yana yangi rejalarni izlar edi. Unga sayin qalbining yarasi tag'in ham chuqurlashar, o'z xunini kundan kun qat-tiqroq talab qilardi.

Nihoyat, shunday kun yetib keldi. Nihoyat, Oynatog'ga borishga bahona topildi.

Kechqurun Alimardon har safargiday „Toshkent“ restoraniga kirdi. Ofitsiantkalar uni tanib qolishgan, yolg'iz o'zi o'tirishni yoqtirishini bilishar, kirishi bilan oldiga konyak keltirib quyishardi.

Uchinchi qadahdan keyin uning fikri tiniqlashib, atrofga razm soldi. Bugun restoranda odam siyrak, ammo zalda odatdagidek orkestr jaz chalar, quvnoq sadolar dunyo tashvishlarini unutishga, bir nafas mast bo'lishga undayotganday hayqirardi.

Alimardon yana ikki qadah ichdi. Limon bilan gazak qildi. Endi uning quloqlari guvullab, shirin, mastona kayfiyatga berildi. Supachada kimdir rubob chalib, ashula aytga boshladi. Alimardon xonandaning bo'g'iq ovozidan g'ijinib, qayrilib qaradi.

Qizil sviter kiygan gavdali yigit mikrofon oldiga kelib, oyoqlarini juftlaganicha qaqqayib turar, rubob chalib allaqanday sho'x ashulani aytar edi.

„Konservatoriyadan qochgan so'taklardan bo'lsa kerak!“ Alimardon jahl bilan aftini bujmaytirib, yana qadahni to'latdi. Ikki marta ketma-ket ichdi.

Birdan mastona shov-shuvlar orasidan uning qulog'iga juda tanish, juda aziz bir ohang eshitila boshladi. Bu kuy qayerdadir juda olislarda qolib ketgan, yuragidan izi o'cha boshlagan shirin tuyg'uni qitiqladi-yu, lekin qayerda eshitganini eslay olmadi.

To'satdan u o'rnidan turib ketdi. Axir, bu o'zining kuyiku! O'zining ashulasi „Yigit qo'shig'i“ku!

Alimardon ashulachiga bir qarab qo‘ydi-yu, holsizlangandek joyiga o‘tirdi. Endi yigitning ovozi bo‘g‘iqligi ham bilinmas, Alimardon boshini quyi solganча diqqat bilan eshitar, qo‘shiqning har bir so‘zi unda juda uzoq – qaytib kelmas manzillarga ketib qolgan damlarini eslatardi. Qo‘shiq sadolari uning qulog‘i tagida borgan sayin qattiqroq jaranglar, dunyodagi hamma narsani – mayni ham, pulni ham, tashvishlarni ham unutishga, o‘tmishni, shirin o‘tmishni eslashga majbur qila boshladi.

*Na quvonch-u, na ishonch-u, na ko‘ngildan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo‘qdir samar, ketmoqdaman...*

Ajab, Alimardon qo‘shiqni necha martalab aytgan ekan-u, ammo bu so‘zlarга e‘tibor bermagan ekan. To‘satdan uning ko‘ngli cho‘kib, chidab bo‘lmas bir iztirobda to‘lg‘ana boshladi. Kaftini peshanasiga bosganча, ko‘zlarini chirt yumdi-da, pichirlab qaytardi:

Na quvonch-u, na ishonch-u, na ko‘ngildan ochma gap...

Ilk bora shu qo‘shiqni aytgan kuni ostonada o‘ziga tikilib turgan Muqaddam ko‘z o‘ngiga keldi. Keyin yana Shavkatni esladi.

Shu on ashulachi xuddi uning qalbidagi hasratlarni bilib turgandek, yana dona-dona qilib qo‘shiqni takrorladi:

Barchasidan ushbu kun yo‘qdir samar, ketmoqdaman...

Nima bo‘lyapti o‘zi? Nimalar bo‘lyapti, axir?! Nahotki, hammasi adoyi tamom bo‘lgan bo‘lsa? Nahotki, endi u ham farzandidan ham Muqaddamdan, ham iste‘dodidan – hamma-hammasidan bir yo‘la ayrilgan bo‘lsa!

Alimardon ko‘zlarini chirt yumdi-yu, farog‘atli damlarini esladi. Axir, uning nomini eshitganda odamlar titrab qolar-di-ku! Har xonadonda uning dilrabo ovozi jaranglardi-ku! Kamolot zinapoyalaridan dadillik bilan ko‘tarilgan, qanchadan qancha kishilarning dilini larzaga solgan uning o‘zi emasmidi! Bugun nega hamma undan yuz o‘girdi?

U hammasini bir boshdan eslamoqchi bo'ldi. Eng avval ko'z o'ngiga Anvar keldi. Ha, birinchi bo'lib undan Anvar yuz o'girgan edi. Keyin-chi? Keyin... keyin Muqaddam. Undan keyin boshqalar. Hamma-hamma...

Alimardon yana ichdi. Bu safar fikri yanayam tiniqlashib ketdi. Qiziq, eng avval eng yaqin kishilari undan qochibdi. Nimaga? Nima uchun axir? Tez o'sgani uchunmi? Iste'dodi, dadilligi uchunmi? To'satdan xayoliga bir fikr urildi-yu, alamdan ingrab yubordi. Ajab, u qancha tez o'sgan bo'lsa odamlardan shuncha tez ajralibdi. Kamolot zinalaridan o'tib shon-shavkatga, mol-dunyoga, o'zi bir vaqtlar entikib orzu qilgan hamma narsaga ega bo'libdi-yu, xuddi o'sha zinalarda bitta narsasini, eng aziz, eng pokiza narsasini – odamgarchiligini tushirib qoldiribdi.

Alimardon xayoliga o'rnashib qolgan bu dahshatli o'ydan cho'chib tushdi. Nahotki? Nahotki shundoq bo'lsa!

Uning kayfi butunlay tarqab ketdi.

Shartta qo'lini tushirib, qadahni stol chekkasiga surib qo'ydi-da, bokalni to'ldirib ko'tardi.

Ashula tamom bo'ldi. Chekka-chekkadan siyrak qarsaklar eshitildi.

Alimardon stollar orasidan o'tib, supacha oldiga bordi-da, endi joyiga borib o'tirgan yigitga hayqirdi:

– Hoy, uka!

Yigit uning mastligini ko'rib, parvo qilmadi-yu, keyin tanib qoldi shekilli, sakrab o'rnidan turib, supa labiga keldi.

Alimardon mastona shovqindan ko'zi tinib ketayotganini payqab, supacha qirrasidan ushlab qoldi.

– Ayting! – dedi xirillab. – Hozirgi ashulani ayting!

– Yana qaytaraymi?

– Qaytaring! – dedi u alamli ovoz bilan. – Yuz marta qaytaring! Ming marta qaytaring!

Yigit itoatkorlik bilan rubobini qo'lga oldi.

Alimardon xira bir tumanlik ichida o'ziga qarab turgan odamlar orasidan o'tib, stolini topib oldi. Stol yonida chust

do'ppi kiygan, tojiklarga o'xshagan qoraqosh, shopmo'ylov yigit o'tirardi.

Alimardon yaqin kelishi bilan notanish odam o'rnidan turib salom berdi.

– Kim sizni bu yoqqa chaqirdi? – dedi Alimardon g'ijinib. Notanish kishi xijolatlik ahvolda qolganidan uyaldi shekilli, iymanib gap boshladi:

– Men...

– Yo'q, men sizni taklif qildimmi? – Alimardon uning gapini bo'ldi. U shu tobda kimdan bo'lmasin, alamini olgisi kelar, g'azabdan titrar edi. – Mehmon bo'ling, dedimmi sizga?!

Notanish kishi battar o'ng'aysizlanib tushuntirdi:

– Men sizni qidirib kelgandim, domullo.

Alimardon stulga og'ir cho'kdi-da, jimirlashayotgan ko'zlari bilan tikildi unga.

– Men sizga „domullo“ emasman! Nima dardingiz bor edi?

– To'y qilayotgan edik.

U yana nimadir demoqchi edi, Alimardon gapirtirmadi. Yo'q, to'yi ham, o'zi ham kerakmas unga. Hech kim kerak emas!

– Ishingizni qiling! – dedi jerkib. – To'yingiz mensiz ham o'taveradi.

U hech nimani ko'rmaslik uchun yuzini kafti bilan berkitdi-da, stolga engashdi. Uning quloqlari ostida ashulachi yigitning ovozi yana yangradi:

Barchasidan ushbu kun yo'qdir samar, ketmoqdaman...

Alimardon alam bilan pichirlab bu satrni o'zi ham takrorladi.

Boshini ko'tarib qarab, notanish odam haliyam o'tirganini ko'rdi, hayqirib yubordi:

– Bormayman, deyapman-ku! Nima qilasiz meni qiynab!

– To'y meniki emas, domullo. Bozor kuni rais o'g'lini uylantirayotgan edi. Ataylab yubordi. Oynatog'dan keldim.

Alimardon yarq etib qaradi. Birdan ko'z o'ngi tiniqlashib, tikilib qoldi.

– Qayerdan deysiz? – dedi entikib.

– Oynatog'dan, – notanish kishi yalingan ohangda so'radi: – „Zaklat“ tashlab ketaymi?

Alimardon ichki bir g'ijinish bilan qo'l siltadi.

– Pulingiz kerakmas. Boraman!

* * *

To'y tarqay deb turgan edi, birdan shamol ko'tarildi-yu, zum o'tmay bo'ronga aylandi. Shamol shiddat bilan quyunday yopirilar, hovlidagi olchalarning shoxlarini qarsillatib, ayqash-uyqash qilar, uzun stol ustidagi dasturxonlarni shartta ko'tarib, taqsimchalarni chil-chil qilib yuborardi. Odamlar chuvullab qolishdi. Kuyov-kelin o'tirgan joydagi palak uzilib tushdi.

To'yda yelib-yugurib xizmat qilayotganlar shosha-pisha kelinni uyga olib kirib ketishdi. O'rtadagi minginchi lampochka lopillab-lopillab turdi-da, birdaniga qarsillab yorilib ketdi. Tog' tabiati quturib, bir zumda hamma yoqni ostin-ustin qilib tashladi.

Alimardon o'ziga ajratilgan burchakdagi so'ridan sakrab tushdi. Allakim ichkaridan o'ninchi chiroq ko'tarib chiqdi. Ammo shu ondayoq bo'ron chiroqning shishasini uchirib parchinlab tashladi.

Alimardon xavotirlanib osmonga qarab qo'ydi. Xuddi shu payt ilonday chaqmoq yaraqladi-yu, etagi cho'qqilarga osilib yotgan vahimali, qop-qora bulutlarning qirrasini aniq ko'rinib ketdi. Ketidan yer-u ko'kni larzaga solib, momaqaldiroq gumburladi.

Alimardon o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgan odamlar orasidan o'tib, tor ko'chaga chiqdi. Nariroqda soyaday qorayib turgan mashinasining oldiga bordi. Shoshilmasdan eshikni ochdi.

Alimardon hech qayerda bugunchalik hissiz, sovuq qo'shiq aytmagan edi. Bu safar u bir qultum ham ichmadi. Raisning pulini olmadi ham. Har gal o'rtaga tushganida ko'zlari bilan Muqaddamni izlar, qayerdadir, shu atrofda, odamlar orasida

turibdi, deb ishonar, xotin-xalaj orasida chopishib yurgan bolalar ichida o'zining Shavkati ham borligini o'ylar, qo'shiq aytardi-yu, nima deyayotganini o'zi bilmasdi.

Alimardon ashula aytar ekan, qaysidir bir burchakda o'sha Kabir ham o'ziga iljayib tikilib turganini ko'z o'ngiga keltirib g'ijinardi. Kim bilsin, balki, o'sha raqibi ham uning peshanasiga pul qistirib, sadaqa bergandir.

Alimardon kerakmas, deb harchand qaytarmasin, serzavq tog' xalqi uni pulga ko'mib tashladi. U bo'ron boshlanganidan xursand edi. Eshikni qarsillatib yopdi-da, mashina chirog'ini yoqdi.

Chiroq nurlari zulmatni tilkalab tashladi. Tor ko'chada chekka-chekkada to'dalashib qolgan odamlar, u yoqdan bu yoqqa besaranjom yugurgan xizmatchilar beixtiyor mashina tomonga burilib qarashdi.

Alimardon endi motorni yurgizgan edi, allakim o'ng tomondagi eshikni tortdi. Ocholmadi shekilli, eshik darchasidan mo'raladi.

– Ha? – dedi Alimardon qayrilib qaramay, keyin yelkasiga beqasam chopon tashlab olgan raisni tanidi-yu, yumshoqroq qilib so'radi: – nima deysiz?

– Ketyapsizmi? – dedi rais shamolning o'kirgan ovozini bosish uchun baqirib.

Yo'q, u hech qayoqqa ketmaydi. Bu yerga to'y uchun kelgan emas!

Alimardon Muqaddamning uyini nima deb so'rashini bilmay ikkilanib qoldi.

– Vaqt bo'ldi endi, – dedi ataylab ishonch bilan.

– Shu tobda-ya? – dedi rais yana shang'illab. U tag'in bir nima dedi-yu, momaqaldiroq ovozini bosib ketdi. Gulduros to'xtaganidan keyin boshini yanayam ichkariroq kiritib qichqirdi: – Qoling, yo'l yomon. Shodivoy uyiga olib ketadi.

Alimardon indamadi. U o'tirgan yerida hayajonidan titrar, o'g'lini ko'rishini o'ylagan sayin battar entikib ketardi. Yo'lga chiqqanidayoq yuragi sog'inch bir tuyg'u – Shavkatni

ko'rish tuyg'usi bilan limmo-lim to'lib, tipirchilab ketgan edi. Endi bu tuyg'u qudratli bir talabga aylangan, Alimardon bu talab qarshisida hamma narsadan voz kechishga tayyor edi. Kim bilsin, balki, bir yo'la olib ketar... Nima, haqi yo'qmi?! Olib ketadi!

– Erta bilan tushib ketasiz! – rais nari ketib, zum o'tmay ikki kishi bo'lib qaytib kelishdi. – Shodivoynikida qolasiz! – dedi yana qichqirib.

Alimardon o'tirgan yerida egilib o'ng eshikni ochdi Shodivoy o'rindiqqa og'ir cho'kdi. Bu o'sha – Alimardonni to'yga aytish uchun restoranga qidirib borgan yigit edi. Boya Alimardon ashula aytayotganida Shodivoy uning ketidan choy ko'tarib yurgan edi.

– Jonivorning quturishini qarang-a, mehmon! – Shodivoy qora kastumining yelkalarini oppoq qilib yuborgan changni qoqdi. – Qani, yurdikmi?

Alimardon qorong'ida jirkanib qarab qo'ydi. „Changini mashina ichiga orqalab kirganini-chi! Nima qilsa ham qishloqi-da! Muqaddamning eri ham shunga o'xshagan molsifat bo'lsa kerak!“

O'zining xayolidan o'zi g'ijinib ketdi. Bordi-yu, Muqaddam eshikdan haydab yuborsa-chi?

Shu payt qancha vaqtlardan beri yuragida tugilib yotgan alami qaytadan yangilanib ketdi-yu, nafrat bilan pichirladi: „Nima, o'z bolamni ko'rishga haqqim yo'qmi!“

Alimardon mashinani sekin jildirdi-da, qishloqning pastak tosh devorlari orasidagi o'nqir-cho'nqir yo'llaridan avaylab yurib ketdi.

Bahaybat qoyalar orasida ko'milib qolgan jajji qishloq tabiat qudratidan vahimaga tushganday pusib qolgan, kichik-kichik derazalarda chiroq ko'rinmas, go'yo hamma allaqanday yengilmas dahshat oldida titrayotganday edi.

Yana chaqmoq chaqdi. G'amgin qovoq uyib turgan baland-baland qoyalar yarq etib yorishdi, yana zulmat cho'kdi. Ketidan momaqaldiroq gumburladi. Tog'larning zaharxanda

qahqahasi uzoq aks-sado berib turdi, keyin gumbur-gumburlar bir-biriga ulanib ketdi. Endi gulduros bir nafas ham tinmas, qoyalar cho‘qqidan suron solib, qishloq ustiga ag‘darilib tushayotgandek edi.

– Tog‘da momaqalldiroq vahimali bo‘larkan! – dedi Alimardon g‘amgin xayollardan qutulish uchun ataylab baland ovoz bilan.

– Sekinroq aytasizmi, mehmon! – Shodivoy suyanchiqqa yelkasini tashladi. – Bir kuni deng, Polvontepada tarktor haydayotgan edim. Shunaqa, ayni bahor. Rais har kuni ko‘yidi. Ish cho‘zilib ketayotganidan xafa. Erta bilan oyog‘im tortmasa ham otni egarlab dovonga chiqib ketdim. Vaqt peshindan og‘ganda deng, bir sel kelsa bo‘ladimi! Tog‘ tepasida yolg‘iz o‘zing bo‘lsang hamma yoq vahima bo‘lib ketarkan. Jiyronni choptirib tushib ketaveray desam, yo‘lda bir kori hol bo‘lib qoladimi, deb qo‘rqaman. Turaveraymi, desam, yana qo‘rqaman. Xullas, Yaratganga ming bor sig‘indim-da! – Shodivoy o‘sha kundagi ahvolini esladi shekilli, kulib qo‘ydi.

Mashina peshanasidagi oynaga chirsillab yomg‘ir tomchilari urildi. Yana yuz qadamcha yo‘l bosganlaridan keyin sharros jalaga aylanib ketdi. Tomdan oqib tushayotgan suv oynani butunlay to‘sib qo‘ygan, yo‘l yaxshi ko‘rinmas, g‘ildiraklar tagidan suv shovullab oqardi.

Alimardon boyadan beri xayolini chuvalashtirib yuborgan fikrlardan bir qarorga keldi-yu, tormozni bosdi. Shodivoyga qarab qo‘ydi-da, iloji boricha xotirjam gapirishga urinib so‘radi:

– Kabirning uyi qayerda? – U ovozinıg titray boshlaganidan g‘ijınib, bir lahza jim qoldi. Yanayam xotirjamroq gapirdi: – Agronom Kabir...

– O‘rmonchini aytasizmi? – Alimardon qorong‘ida Shodivoyning hayrat bilan tikilib turgan ko‘zlarini aniq ko‘rdi. – Nimaga edi?

Alimardon teskari qarab oldi.

– Ko‘rmoqchi edim, – dedi bo‘g‘ilib. – Eski tanishmiz...

Shodivoy yana o'sha beg'araz ohangda shang'illadi:

– Qo'ysangiz-chi, mehmon! Bugun biznikida qo'noq bo'lasiz.

Alimardon qat'iyat bilan ta'kidladi:

– Yo'q! Kabirnikiga tushaman.

Mashina suv shovullab oqayotgan toshloq ko'chadan yana avaylab yurib ketdi. Alimardon yo'ldan ko'z uzmay borar, ammo hech nimani ko'rmas, hayajondan tomog'i qaq-rab yutinolmas, rul chambaragidan ushlagan qo'llari qaltirar, hozir qandaydir noxush, mudhish bir voqea ro'y berishini sezib, yuragi titrardi.

Devori oqlangan do'kon oldidan o'tganlaridan keyin Shodivoy Alimardonning qo'liga sekin turti.

– Keldik.

Alimardon qanday qilib motorni o'chirganini, qachon yerga tushganini bilmadi. Kastumining yoqasidan muzday suv oqib tushib, badanini seskantirib yuborganidan keyingina o'ziga keldi.

– Mashina turaveradi! – dedi Shodivoy baqirib. – Qani, marhamat!

Yana chaqmoq chaqdi-yu tor ko'cha yorishib ketdi.

– Xizrni yo'qlasangiz bo'larkan, mehmon, – dedi Shodivoy momaqaldiraq ovozini bosish uchun hayqirib. – Ana Kabirning o'zi!

Alimardon seskanib boshini ko'tardi-da, qarshi tomondan oq ot yetaklab kelayotgan kishini g'ira-shira ko'rdi. Birdaniga uning hamma narsaga qo'l siltagisi, mashinasiga o'tirib, shartta orqaga qaytib ketgisi keldi. Ammo Shodivoy allaqachon otliqning oldiga borib olgan, qo'shqo'llab so'rashar edi. Alimardon uning oxirgi gaplarini eshitib qoldi.

– Mehmon olib keldim, Toshkentdan...

Alimardon yuragini kemirayotgan azobli g'ashlikni yengib, gandaraklagancha yurib ketdi. U o'zining raqibini ko'rib qo'ygisi kelar, uning nimasi o'zidan ortiqroq ekanini, Muqaddam bu odamning nimasiga uchganini bilib olishga urinardi.

Ular pastak eshik peshtoqida osilib turgan xira chiroq tagida to‘qnash kelishdi. Alimardon o‘ziga uzatilgan kattakon, chayir qo‘lni beixtiyor qisarkan, uning aftiga qarab qo‘ydi. Tor peshana, qotma yuzli kishi unga sinchkov ko‘zlari bilan tikilib turar, do‘ppisi tagidan chiqib turgan qop-qora sochlari, g‘ira-shira yorug‘likda qizarib ko‘rinayotgan yuzi, ingichka mo‘ylovi jiqqa suv bo‘lib ketgandi. Kabir egniga brezent yomg‘irpo‘sh, oyog‘iga kattakon etik kiyib olgan, bir qo‘li bilan Alimardonning kaftini qisar, bir qo‘llab otning jilovini ushlab turardi. Uning etigidanmi, yomg‘irpo‘shidanmi anqib turgan chuchmal baliq moyi isi dimog‘iga urildi-yu, Alimardon burnini jiyirdi.

„...To‘pori qishloqi-ku! – U g‘ijinib yuzini burdi. – Hali shu hayvon mening o‘g‘limga ota bo‘lib yuribdimi?..“

Alimardon istehzoli jilmayib qo‘ydi-da, qo‘lini tortib oldi. Kabir hamon undan ko‘z uzmay turar, chamasi, qayerda ko‘rganini eslay olmasdi.

Ot begona odamni sezdi shekilli, chiroq nurida yiltirab turgan katta-katta ko‘zlarini olaytirib, boshini siltagancha pishqirib yubordi.

– Tek! – Kabir ingichka, keskin ovoz bilan hayqirib, jilovni tortdi. – Qani, mehmon, marhamat, – dedi tog‘liklarga xos tavoze bilan.

Alimardon u jilmayganida ingichka mo‘ylovi ostidagi oppoq tishlari yaraqlab ketganini ko‘rdi.

– To‘yga bormadingiz-ku! – dedi boyadan beri ularni jimgina kuzatib turgan Shodivoy.

Kabir jilovni mahkam ushlaganча unga burilib qaradi:

– Oynatog‘ga chiqqandim. – Keyin u Alimardonga qaradi-da, tag‘in qaytardi: – Marhamat!

– Bo‘lmasa men to‘yxonga qaytaveraymi?

Alimardon Shodivoy o‘zidan ruxsat so‘rayotganini anchadan keyin tushundi.

– Boravering! – dedi qayrilib qaramay.

Ular pastak eshikdan egilib, hovliga kirishdi. Tag‘in chaqmoq chaqdi. Hovlidagi besh-olti tup olmalarning yom-

g'irdan qizargan shoxlari, etakdagi qorong'i otxona bir zum yorishib ketdi.

Uning yuragi gupullab ura boshladi. Tubsiz alam, nafrat, allanechuk o'kinch tuyg'ulari aralashib uning vujudini larzaga solar, hech nimani ko'rmas, tasmollab qadam tashlab borardi. Kabir otni qo'yib yubordi-da, o'zi oldinga o'tib yo'l boshladi. Derazadan tushib turgan qizg'ish nurni kesib o'tib, eshik oldiga borishdi.

– Qani, – Kabir eshikni ochdi. – bemalol kiravering.

Alimardon hamon o'zini bosib ololmas, chalkash o'ylardan boshi g'uvullab, ko'z o'ngi xiralashib ketgan edi. Bora-bora u o'zini bosib oldi. Kavshandozda turib, bir laha uy ichiga nazar tashladi. Pastak shiftga guldor qog'oz qoqilgan, o'rtada osilib turgan kichkinagina lampochka ojiz nur sochar, tokchalardagi choynak-piyolalar, qaqir-ququrlar yaltirab ko'rinardi.

Alimardon endi engashib, tuflisining bog'ichini yechayotgan edi, ichkari tomondagi eshik g'iyqillab ochildi-da, do'mboqqina bola yugurib chiqdi.

– Ada! Ada! – dedi u yangroq, ingichka ovoz bilan.

Alimardon ko'pdan buyon izlab yurgan narsasini birdaniga topqanday beixtiyor qaddini rostladi. Bu ovoz, o'zi hali hech qachon eshitmagan, ammo o'ziga shu qadar qardon bo'lgan yangroq ovoz uning quloqlariga o'qday kirdi.

Bola maykachan bo'lib olgan, qop-qora ko'zlari shodlikdan porlar, peshanasidagi bir tutam sochi o'ziga quyib qo'yganday yarashib tushgan edi.

– Ada! – dedi bola tag'in o'sha yangroq ohangda. Keyin qo'lchalarini keng yozganча chopib kela boshladi. Shu tobda u onasining og'zidan don olayotganda qanotlarini pirpiratib turgan qushchaga o'xshardi.

Kabir kavshandozda cho'nqayib olganча qulochini keng yozdi.

– Qani! Qani, otash bolam, bobosh bolam! Achom! Achom!

– Ato-om! – dedi bolakay ham shirin til bilan.

O'g'li quchog'iga kelib urilishi bilan Kabir dast ko'tarib oldi-da, yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi. Bolakay dadasining mo'ylovi tekkanidan qitig'i kelgan bo'lsa kerak, hadeb qiqirlar, boshini orqasiga tashlagan cha qotib-qotib kulardi.

Alimardon suratday jonsiz bo'lib qolgan, ko'zlari o'tday yonib, ularga tikilib turardi.

– Qani, amaqinga salom ber-chi. – Kabir bolani yerga qo'yib, maqtanganday Alimardonga qarab qo'ydi. – Katta yigit-da, bu! Har kuni dadasining ishdan kelishini poylab uxlamay o'tiradi.

Ammo bolakay Alimardonga yotsirab qarab qo'ydi-da, kattalarday qoshini chimirib, hurpayib oldi.

– Voy, tentag-ey, salom berishni esingdan chiqarib qo'ydingmi? – Kabir kuldi. – Yovvoyi-da, amakisi, yovvoyi bu. – Keyin Alimardonga qarab iltifot qildi. – Qani, yechining, chiqing. Men otni arqonlab qo'yay. Hamma yoqni payhon qilib tashlaydi. – U ichkaridagi eshikka qarab qichirdi: – Hoy, onasi, mehmon keldi!

Kabir chiqib ketishi bilanoq Alimardon beixtiyor bolaga talpindi.

– Shavkat! – dedi pichirlab. U butun borlig'i bilan bolaga talpinar, shuncha yildan beri yuragining tubida ojiz titrab turgan nozik bir tor bor ovozi bilan jaranglay boshlagan, eng baland avjiga chiqib vujudini larzaga solar, turgan yerida yaproqday qaltirar edi.

Alimardon bir qarashdayoq otalik mehri bilan shu bola Shavkat ekanini, o'zining o'g'li, yagona ovunchog'i ekanini aniq bilib olgandi.

U tufisini ham yechmay, namatga oyoq qo'ydi. Ikki qo'lini olg'a cho'zib chaqirdi:

– Beri kel-chi, – dedi ovozi titrab. – Menga o'g'il bo'lasanmi?

Bola undan hurkkanday yonlamasi tisarilib-tisarilib tokcha oldiga borib qoldi.

Alimardonning ko'ksini to'ldirgan bir nido bo'g'zidan otilib chiqdi:

– Shavkat!

Bola allanarsani sezgandek, shartta burilib qaradi, Alimardon uning ko'zlarida o'zining ko'zlarini aniq ko'rib, qichqirib yubordi:

– O'g'lim!

Lekin shu ondayoq vahima to'la yana bir qichqiriq burilib qarashga majbur qildi uni. Bu oh chekishmide, qo'rqinch to'la nidomi, har holda, yurakni o'rtab yuboruvchi bir un edi. Alimardon qotib qoldi. Ostonada odmi ko'ylak kiyib olgan, boshyalang Muqaddam turardi. Uning ko'zlari katta-katta ochilib, rangi devor bo'lib ketgan edi. Ha, bu Muqaddam edi. Bir vaqtlar uning o'ziniki bo'lgan, hozir esa bir olam nariga ketib qolgan begona Muqaddam edi.

Alimardon boshi aylanib ketayotganini, ko'z o'ngida xira halqachalar pirpirayotganini sezib turar, hozir bir ofat bo'lishini, allaqanday dahshat ro'y berishini bilar, ammo tili kalimaga kelmas edi.

– O'g'lim! – dedi u nihoyat pichirlab. Tomog'i xippa bo'g'ilib, gapirolmay qoldi. Telbalarday siltanib Shavkatga talpindi. – Shavkat, – dedi titroq qo'llarini cho'zib. – Kel, bolam. – U Shavkatning qarshisida cho'kkalab quchog'ini ochdi. – Kel, o'g'lim... – dedi pichirlab. – Bitta bag'ringa bosay.

Bola labini burib tisarildi. Muqaddamning etagidan ushlab orqasiga yashirindi.

Bu qandoq bedodlik! Bu qanday jazo! O'g'il o'z otasidan tonsa! Shu ondayoq dahshatli bir haqiqat uning yuragini qiymalab tashladi. Nega tonmasin? O'zi ham qachondir bolasidan tongan emasmidi?

Alimardonning shuncha yillardan beri tosh bo'lib ketgan diydasi birdan erib oqdi. Ha, u ko'pdan beri – Muqaddam ketib qolganidan beri bitta dard bilan yashar edi. Bu dard kunduzlari xayolini, kechalari uyqusini olib qochar edi! Endi bilsa – bu otalik dardi ekan. Insonlikning qo'l yetmas baland

cho'qqisi ekan! Mana, o'sha dardning malhami! Mana, o'g'li!
Mana! Shundoqqina oldida turibdi!

U Shavkatni mahkam bag'riga bosib oldi. Uning yuzko'zidan allanechuk tanish bir bo'y – o'z hidi anqib turgan sochlaridan o'pa boshladi. Baxtiyor bir tuyg'udan to'lg'anib negadir jilmaydi.

– Tentagim... Men sening otangman, bildingmi, otangman!

Shavkat birdan lablari burilib yig'lab yubordi.

U chirqillab yig'lar, onasiga talpinar, ammo Alimardonning quchoq'idan chiqib ketolmas edi.

– Yig'lama, Shavkat... – dedi u pichirlab. Bolaning yuzlaridan o'pa boshladi.

Shavkat battar yulqinib, oyoq-qo'llarini silkitardi.

To'satdan Alimardon o'g'liga ozor berayotganini tushunib qoldi. Ichki bir kuch majbur qildimi, qo'yib yubordi.

Shavkat yig'lagancha yana onasining etagiga yopishdi. Muqaddam hamon toshday qotib turar, esi og'ib qolganga o'xshar edi.

Shavkat onasini qo'yib yubordi-yu, chopqillab narigi uyga kirib ketdi. Alimardon uning silkinib borayotgan do'mboq qo'lchalarini ko'rdi. U bolaning ketidan uch-to'rt qadam yurdi-yu, to'xtab qoldi. Shundagina u bu bola hech qachon o'ziniki bo'lmasligini his qildi.

– Shavkat! – U ochiq qolgan eshikka qarab oxirgi marta so'niq, umidsiz ovozda pichirladi-da, hammasi tamom bo'lganini tushundi.

Shartta burildi-yu, telbalarcha ikki hatlab ostonaga tushib qoldi. Uning ko'zlari olayib ketgan, ammo hech nimani ko'rmas edi.

Eshikni taraqlatib ochdi-da, hovliga otildi. Zimiston qo'y-nida Kabirga urilib ketganini ham, yugurib borib mashinaga o'tirganini ham sezmadi.

Mashinani keskin burdi-da, daryo-daryo suv oqayotgan tor ko'chadan yeldirib ketdi.

Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi. Bir zumda qishloqning tosh devorlari orqada qoldi.

Ko'kda momaqaldiroq faryod soldi. Chaqmoqning bir lahzalik sovuq nuri g'amgin bosh egib turgan tog'larni, yomg'irdan yaltirab ketgan qizg'ish qoyalarni, yo'lning shundoq chekkasidan tik tushib ketgan jahannam jarligida ilonday bilanglab oqayotgan soyni yoritib o'tdi. Ammo uning ko'zlari hech nimani ko'rmas, tasavvurida faqat bir narsa – o'z otasidan yotsirab yig'lab, uyga qochib kirib ketgan Shavkat, uning silkinib borayotgan do'mboq qo'lchalari turar, alamdanda vujudi qaltirab, oyog'i og'rganiga qaramay, bor kuchi bilan gazni bosar edi...

Mashina shiddat bilan yelib, ikki chetiga omonat panjaralar o'rnatilgan taxta ko'prikdan o'tib ketdi. Ko'prik yog'ochlari lopillab, ayanchli g'iyqillab qoldi. Yo'lning eng xavfli joyi – eng chuqur jarlik yaqinlashib kelardi.

Alimardon hamon gazni bosar, barbod bo'lgan umidlari haqqi, xazonga aylangan umri haqqi, barcha alamlari haqqi ko'zlariga yosh quyilib kelardi. Nimasi qoldi uning! Nima-si qoldi axir?! Sahnami? Shon-shuhratmi? Nima qoldi o'zi! Nima?! Oxirgi, eng oxirgi umidi, tanho suyanchig'i yuz o'girdi-ku undan. Tag'in nima kerak endi?!

U hamon shiddat bilan yelib borarkan, ko'z yoshidan tomog'i xirillab, oxirgi marta pichirladi:

– O'g'li-im!

To'satdan u ko'nglida xushnud bir yengillik sezdi. Qalbi sokin tuyg'ularga to'lib-toshganday bo'ldi-yu, rul chamberagini chirpirak qilib chapga burib yubordi.

Mashina yonboshga og'a boshladi. Shundagina u xato qilayotganini, yomon ish qilayotganini tushunib qoldi. Ko'zlari dahshatdan olayib, tormozga yopishdi. Ammo mashina allaqachon jahannam labiga borib yetgan edi.

Zum o'tmay dahshatli suron tog'-toshlarni larzaga soldi. G'amgin qoyalar qilib qo'ygan gunohidan o'zi qo'rqib ketgan-day ingrab yubordi... Bir nafas hamma yoq jim bo'lib qoldi.

Tog' bag'riga qanchadan qancha sirlarni yashirishga o'rganib qolgan oqsoqol cho'qqilar ko'klami bekor o'tib xazon bo'lgan bolasining qismatiga achinib boshini quyi soldi.

Qop-qorong'i dara ustida bulutlar uzoq aza tutdi.

* * *

Ertasiga kechqurun Qonqus yoqasida – Alimardonning eng baxtiyor, eng pokiza damlari – bolalik yillari kechgan o'sha anhor yoqasida jimgina mudrab yotgan go'ristonda yana bir qabr mungli do'ppaydi. Hassakashlar go'ristondan chiqib ketayotganida yangi mozorning yomg'irdan ivigan mayin tuprog'i ularning ortidan unsizgina javdirab qoldi.

...O'sha kuni kunbotar oldida havo ochilib ketdi. Ufqqa quyosh qon sachratib yubordi. Anvar qabr ustida uzoq o'tirdi. Unsiz yig'ladi. Negadir shu oqshom oftob juda qiynalib botdi. Ufq etagida uzoq osilib turdi-da, oxiri umidi uzilgan-day sekin-sekin yer ortiga cho'kib ketdi.

Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi. Go'riston yonidan keskin burilib oqayotgan Qonqus toshqin suvlarini bag'riga sig'dirolmay shovullay boshladi. Lojuvard osmon makoniga qaytayotgan turnalarning qiyqirig'i bilan to'lib ketdi.

Qabriston chekkasidagi qator-qator teraklar yaproq yozib oy nurida hazin shivirladi.

Tong otishi bilan juft-juft bo'lib olgan qushlar bezovta chirqillab iniga xas-xashak tashib qoldi. Osmoni falakda yakka-yolg'iz to'rg'ay nola chekdi.

Saxiy ko'klam ko'p qatori Alimardonning qabrini ham chechaklarga burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Erta-indin to'kilib ketishi, o'zidan na bir muattar bo'y, na meva qolishidan be-xabar yal-yal yondi...

1969-yil.

MUNDARIJA

Sirli yulduz. <i>Qissa</i>	5
Bahor qaytmaydi. <i>Qissa</i>	40

Adabiy-badiiy nashr

O‘TKIR HOSHIMOV

SIRLI YULDUZ

Qissalar

„Ziyo nashr“
nashriyoti

Toshkent – 2019

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Bahodir Ibrohimov</i>
Musahhah	<i>Miryusuf Mirsolihov</i>
Sahifalovchi	<i>Surayyo Sunnatullayeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
30.10.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 ^{1/32}.
Ofset qog‘oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,24. Nashriyot-hisob tabog‘i 9,1.
Adadi 10000 (1-zavod 7000). Shartnoma № 43–19.
Buyurtma raqami № 431.

„Ziyo nashr“

Mas’uliyati cheklangan jam’iyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.
«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko‘chasi, 44,
Tel.: (+998) 71-276-37-00.

O'TKIR HOSHIMOV

Sirli yulduz

QISSALAR



ZIYO NASHR



t.me/ziyonashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-5936-0-2



9 789943 593602